

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
MADANIYATSHUNOSLIK
KAFEDRASI**

**“KUTUBXONA-AXBOROT FAOLIYATINING
MEYORIY-HUQUQIY ASOSLARI”**

fanidan

O`QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	300 000	-	Ishlab chiqarish-texnika soha
Ta’lim sohasi:	350 000	-	Aloqa va axborotlashtirish, Telekommunikatsiya texnologiyalari sohasi
Ta’lim yo’nalishi:	5350600	-	“Kutubxona-axborot faoliyat” (kutuxonachilik va bibliografiya)

NAMANGAN – 2023

O`quv-uslubiy majmua O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 2020 yil 14 avgustdagi №418-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan o`quv dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

O.R.Topildiyev –tarix fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchi:

Z.U.Xaydarov - tarix fanlari nomzodi, dotsent

O`quv-uslubiy majmua Namangan davlat universiteti Kengashining 2023 yil _____dagi__-son yig`ilishida ko`rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

Ma'ruza matni

Seminar mashg'ulotlar topshiriqlar.....

Mustaqil ta`lim mashg`ulotlari.....

Glossariy.....

Ilovalar:

Fan dasturi

Ishchi fan dasturi

Tarqatma materiallar

Testlar.....

Nazorat uchun savollar (J.N., O.N., Ya.N.).....

Baholash mezonlari


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**MADANIYATSHUNOSLIK
KAFEDRASI**

**KUTUBXONA-AXBOROT FAOLIYATINING
MEYORIY-HUQUQIY ASOSLARI**
fani bo`yicha

MA`RUZALAR MATNI



NAMANGAN – 2023

Ushbu ma`ruzalar matni Namangan davlat universiteti «Madaniyatshunoslik» kafedrasining 2023 yil ____ ____dagi № ____ - sonli bayonnomasi bilan muhokama qilingan va Namangan davlat universiteti Musiqa ta`limi va madaniyat fakul'teti kengashining 2023 yil ____ ____dagi № ____ - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va Namangan davlat universiteti o`quv-uslubiy kengashining 2023 yil ____ ____dagi № ____ - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi: t.f.n., dots. O. Topildiyev

Taqrizchi: t.f.n., dots. Z. Xaydarov

1-mavzu: Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari faniga kirish.

Reja:

1. Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari faniga kirish.
2. Axborot texnologiyalari.
3. Global tarmoq infratuzilmasi va internet texnologiyalari yordamida ma'lumotlarni almashish.
4. Axborot kutubxona tizimlari va tarmoqlarida ham axborotlarni saqlash va ularning konfedsionalligini ta'minlash muammosi.

Tayanch soʻz va iboralar

Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari faniga kirish. Axborot texnologiyalari. Global tarmoq infratuzilmasi va internet texnologiyalari yordamida ma'lumotlarni almashish. Axborot kutubxona tizimlari va tarmoqlarida ham axborotlarni saqlash va ularning konfedsionalligini ta'minlash muammosi.

Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari fanning predmeti – talabalarga kutubxona-axborot faoliyati sohasiga oid meyoriy-huquqiy hujjatlarni yaratilishi hamda amaliyotda ulardan foydalanishni oʻrgatadi.

Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari fanning maqsadi – talabalarga kutubxona-axborot faoliyati sohasiga oid meyoriy-huquqiy hujjatlardan amaliyotda qanday foydalanishni oʻrgatish hamda ish jarayonida karakli huquqiy hujjatlarni taxlil qilishdan iborat.

Kutubxona jamiyatning tarkibiy qismi boʻlganligi uchun uning faoliyati mamlakatda qabul qilingan qonunlar tomonidan boshqariladi. Lekin, axborot almashuvining kuchayishi, ayniqsa, internet vositalarining kuchayishi oqibatida axborot makoni kengayib bir butun jahon axborot makoni shakllandi. Shunga koʻra **kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari fanning maqsadi** meyoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanishga oid qonunlar, qoidalar hamda xalqaro miqyosdagi meyorlarga amal qilishni taxlil qiladi.

Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari fanning vazifasi - Bugungi kunda kutubxona-axborot xizmatini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga ijobiy tasir kursatuvchi xalqaro miqyosda va mamlakatimizda qabul qilingan hujjatlardan foydalanishni ta'minlash.

Axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlarining rivojlanishini tashkiliy, moliyaviy-iqtisodiy, texniktexnologik mexanizmlarini yaratishga, huquqiy jihatdan tartibga solishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Axborot-kutubxona faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

foydalanuvchilarning axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishini ta'minlash;

foydalanuvchilarning intellektual, ma'naviy-axloqiy, madaniy va ta'lim olish ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

milliy madaniyatni tiklashga va yanada rivojlantirishga ko'maklashish, madaniy meros obyektlarini saqlash;

2011-yilda qabul qilingan «Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona resurslarini shakllantirish hamda aholiga sifatli axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni tashkil etish darajasini yangi pog'onalarga ko'tarish maqsadida axborot-kutubxona muassasalarining yangi mavqei va vazifalari, axborot-resurs markazlarining moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi hamda kadrlar bilan ta'minlanishini belgilab berdi. Qonun normalarining ijro etilishi mamlakatimizda yagona axborot-kutubxona tizimini shakllantirish, foydalanuvchilarni axborot-kutubxona muassasalarida saqlanib kelinayotgan axborotga erkin ega bo'lishi, axborot-kutubxona muassasalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, xususan, belgilangan tartibda soliq va boshqa imtiyozlarini berishga imkoniyatlar yaratmoqda. Bunday

ko'p qirrali imkoniyatlarni amalga oshirish mamlakatimizda axborot-kutubxona faoliyatini yanada yaxshilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Axborot-kutubxona faoliyatida qonun normalarini amalga oshirish doirasida adabiyot fondlarining ko'payishini ta'minlash, kutubxona ishida yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, mamlakatdagi axborot-kutubxona resurslaridan aholining erkin foydalanishini kengaytirish bo'yicha rejali va tizimli ishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida kitobxonlarga axborot xizmatlarini ko'rsatuvchi 12 mingta axborot-kutubxona muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Adabiyotlarning umumiy hajmi 83,6 mln nusxani, shu jumladan, elektron formatda 3,5 mln. nusxani tashkil etadi. Barcha axborot-kutubxona markazlarida Internet tarmog'iga chiquvchi lokal tarmoqlar («ZiyoNET») yaratilgan. Kutubxona muassasalarini zamonaviy kompyuter va orgtexnika bilan ta'minlash ishlari olib borilmoqda, kompyuterlar soni 3 barobar, ko'paytiruv va skanerlash texnikalari 2,5 barobar ortgan. Shuningdek, axborot-kutubxonalarda kitobxonlarga xizmat ko'rsatish jarayonlarini integratsiyalash, axborotni to'plash, unga ishlov berish, elektron kutubxonalar tashkil qilish, ta'lim muassasalarida va hududlarda kitobxonlarga masofadan turib, xizmat ko'rsatishning tezligi va sifatini oshirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Yagona elektron katalogni shakllantirish va yuritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda kitobxonlar Milliy kutubxona veb-sayti orqali 430 mingdan ortiq bibliografik yozuvlardan foydalana olishlari mumkin. Axborot-kutubxona tarmoqlari integratsiyalashuvini ta'minlash hamda kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida elektron kutubxona tizimi yaratildi. Respublika axborot-kutubxona markazi negizida faoliyat yuritib kelayotgan Ilmiy-texnik adabiyotlar elektron kutubxonasida ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar masofadan turib, o'z uylaridan yoki ish joyidan turib, kataloglardan yoki to'liq matnli elektron nashrlar bilan tanishishlari mumkin. Ilmiy-texnik adabiyotlar elektron kutubxonasining uch yil faoliyati davomida uning fondi 40 ming birlikni tashkil etdi, shulardan 28700 mingtasi raqamlashtirilgan va Ilmiy-texnik adabiyotlar elektron kutubxonasi veb-sayti orqali barcha foydalanuvchilarga ochiqdir. Ayni kunda Ilmiy-texnik adabiyotlar elektron kutubxonasi respublikadagi axborot-kutubxona markazlarining axborotresurslarini jamlab, internet tarmog'ida korporativ tarmoq yaratish ustida izlanishlar olib bormoqda. Bu loyiha yurtimiz kitobxonlariga axborot-kutubxona markazlari xizmatlaridan masofadan turib foydalanish imkoniyatini beradi. Barcha axborot-kutubxona markazlarini integratsiyalash maqsadida axborotkutubxona markazlarida elektron kutubxona yaratish va jihozlash, axborot-kutubxona markazlari fondida saqlanib kelinayotgan adabiyotlarni raqamlashtirgan holda onlayn-kutubxona barpo qilish orqali viloyat axborot-kutubxona markazlarini rivojlantirish va modernizatsiyalash bo'yicha texnik loyiha ishlab chiqildi. Mazkur loyihaga ko'ra joriy yil mobaynida barcha axborotkutubxona markazlari o'zaro va markaz bilan optik tolali tarmoq orqali ulanadi, zarur texnik uskunalar bilan ta'minlanadi.

Axborot texnologiyalari ma'lumotlarni boshqarish va qayta ishlash texnologiyalaridir. Odatda bu atama ostida kompyuter texnologiyalari tushuniladi. Axborot texnologiyalari sohasida turli axborotni EHM va kompyuter tarmoqlari orqali yig'ish, saqlash, himoyalash, qayta ishlash, uzatish kabi amallar ustida ishlar olib boriladi.

Axborot texnologiyasi asosiy texnik vositalari sifatida hisoblash- tashkiliy texnikadan tashqari aloqa vositalari – telefon, teletayp, telefaks va boshqalar qo'llaniladi. Axborot texnologiyasi insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lgan bo'lsa-da, xozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch energiya, xomashyo, materiallar va moddiy iste'mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ustunlik qilmoqda, ya'ni axborot texnologiyalari mavjud yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rinni egallamoqda. Axborot texnologiyalari industriyasi majmuini kompyuter, aloqa tizimi, ma'lumotlar ombori, bilimlar ombori va u bilan boglik faoliyat soxalari tashkil qiladi.

Bugungi kunda axborot texnologiyasini shartli ravishda "saqlovchi, ratsionallashtiruvchi, yaratuvchi" turlarga ajratish mumkin. Birinchi turdagi texnologiyalar mehnatni, moddiy

resurslarni, vaqtni tejaydi. Ratsionallashtiruvchi axborot texnologiyalariga chiptalar buyurtma qilish, mexmonxona xisob-kitoblari tizimlari misol bo'ladi.

Yaratuvchi (ijodiy) axborot texnologiyalari axborotni ishlab chiqaradigan, undan foydalanadigan va insonni tarkibiy qism sifatida o'z ichiga oladigan tizimlardan iborat. Axborot texnologiyalarining hozirgi zamon taraqqiyoti hamda yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha soxalarini axborotlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish deganda, axborotdan iqtisodni rivojlantirish, mamlakat fan-taxnika taraqqiyotini, jamiyatni demokratlashtirish va intellektuallashtirish jarayonlarini jadallashtirishni ta'minlaydigan jamiyat boyligi sifatida foydalanish tushuniladi. Darxaqiqat, jamiyatni axborotlashtirish—inson xayotining barcha jabxalarida intellektual faoliyatning rolini oshirish bilan bog'liq ob'ektiv jarayon xisoblanadi.

Jamiyatni axborotlashtirish respublikamiz xalqi turmush darajasining yaxshilanishiga, ijtimoiy yextiyolarning kondirilishiga, iqtisodning usishi hamda fan-texnika tarakkiyotining jadallashishiga xizmat kiladi.

Jamiyatni axborotlashtirish jaraenini 5 asosiy yunalishga ajratish mumkin:

- Mexnat, texnologik va ishlab chiqarish jaraeni vositalarini kompleks avtomatlashtirish.
- Ilmiy tadbikotlar, loyixalash va ishlab chiqarish axborotlashtirish.
- Tashkiliy- iktisodiy boshkarishni avtomatlashtirish.
- Axoliga xizmat ko'rsatish soxasini axborotlashtirish.
- Talim va kadrlar tayerlash jaraenini axborotlashtirish.

Axborot texnologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishini belgilovchi **ichki** va **tashqi** omillar mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

- Ichki omillar.
- Tashqi omillar.

Ichki omillar- bu axborotni poydo bo'lish turlari, xosalari, axborotlar bilan turli amallarni bajarish, uni jamlash uzatish, saqlash va h.k.

Tashqi omillar – bu axborot texnologiyasining texnika – uskunaviy vositalari orqali axborot bilan turli vazifalarni amalga oshirishni bildiradi.

Axborot texnologiyalari jamiyat axborot resurslaridan oqilona foydalanishning eng muhim omillaridan biri bo'lib, hozirgi vaqtga qadar bir necha bosqichlarni bosib o'tdi.

1-bosqich. XIX asirning 2-yarmigacha davom etgan. Bu bosqichda «qo'llik» axborot texnologiyalari taraqqiy etgan. Uning vositasi pero, siyoxdon, kitob. Kommunikatsiya ya'ni aloqa odamdan-odamga yoki pochta orqali xat vositasida amalga oshirilgan.

2-bosqich. XIX asirning oxiri, unda «mexanik» texnologiya rivoj topgan. Uning asosiy vositasi yozuv mashinkasi, arifmometr kabilardan iborat.

3-bosqich. XX asirning boshlariga mansub bo'lib, «elektromexanik» texnologiyalar bilan farq qiladi. Uning asosiy vositasi sifatida telegraf va telefonlardan foydalanilgan. Bu bosqichda axborot texnologiyasining maqsadi ham o'zgardi. Unda asosiy urg'u axborotni tasvirlash shaklidan uning mazmunini shakllantirishga ko'chiriladi.

4-bosqich. XX asir o'rtalariga to'g'ri kelib, «elektron» texnologiyalar qo'llanilishi bilan belgilanadi. Bu texnologiyaning asosiy vositasi YEXM lar va ularning asosida tashkil etiladigan avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari va axborot izlash tizimlaridir.

5-bosqich. XX asirning oxiriga to'g'ri keladi. Bu bosqichda kompyuter texnologiyalari taraqqiy etdi. Ularning asosiy vositasi turli maqsadlarga mo'ljallangan turli dasturiy vositalarga ega bo'lgan shaxsiy kompyuterlardir. Bu bosqichda kundalik turmush, madaniyat va boshqa sohalarga mo'ljallangan texnik vositalarning o'zgarishi ro'y berdi. Lokal va global kompyuter tarmoqlari ishlatila boshlandi.

Kompyuter tarmoqlarini ko'pgina belgilar, xususan hududiy taqsimlanishi jihatidan tasniflash mumkin. Bunga ko'ra **global, mintaqaviy** va **lokal (mahalliy) tarmoqlar** farqlanadi.

Global tarmoqlar butun dunyo bo'yicha tarmoqdan foydalanuvchilarni qamrab oladi va ko'pincha bir-biridan 10-15 ming kilometr uzoqlikdagi SHK va aloqa tarmoqlari uzellarini birlashtiruvchi yo'ldosh orqali aloqa kanallaridan foydalanadi.

Mintaqaviy tarmoqlar uncha katta bo'lmagan mamlakat shaharlari, viloyatlaridagi foydalanuvchilarni birlashtiradi. Aloqa kanali sifatida ko'pincha telefon tarmoqlaridan foydalaniladi. Tarmoq uzellari orasidagi masofa 10-1000 kilometrni tashkil etadi.

SHKning lokal tarmoqlari bir korxonaga, muassasaning bir yoki bir qancha yaqin binolaridagi abonentlarni bog'laydi. Lokal tarmoqlar juda keng tarqalgan, chunki 80-90% axborot o'sha tarmoq atrofida aylanib yuradi. Lokal tarmoqlari har qanday tizilmaga ega bo'lishi mumkin. Lekin lokal tarmoqlardagi SHKlar yuqori tezlikka ega yagona axborot uzatish kanali bilan bog'langan bo'ladi. Barcha SHKlar uchun yagona tezkor axborot uzatish kanalining bo'lishi – lokal tarmoqning ajralib turuvchi xususiyatidir. Optik kanalda yorug'lik o'tkazgich inson sochi tolasi qalinligida yasalgan. Bu o'ta tezkor, ishonchli va qimmat turadigan kabel.

Lokal tarmoqda ishlashning asosiy afzalligiga quyidagicha: ko'p marta foydalaniladigan rejimda dasturli modem, printerlar tarmog'idagi disklarning umumiy resurslaridan va hamma kirish mumkin bo'lgan diskda saqlanuvchi ma'lumotlardan foydalanish, shuningdek, bir SHKdan boshqasiga axborot uzatish imkoniyati.

Internet orqali ma'lumot jo'natganingizda, u ko'zlangan manzilga osongina etib borgandek tuyuladi. Aslida bu juda murakkab jarayon. Internet orqali ma'lumot uzatganingizda kompyuterlar internet bo'ylab ma'lumot uzatishda foydalanadigan TCP (Transmission Control Protocol – uzatishni boshqarish protokoli) protokoli ma'lumotni avval kichikroq bo'laklar – paketlarga bo'lib chiqadi. Bu paketlarda boshqa foydali ma'lumotlar ham bo'ladi, ular paketlarni internet bo'ylab to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi. Sizning kompyuteringiz bu paketlarni sizning mahalliy kompyuter tarmog'ingizga, Internet xizmatlari provayderiga yoki on layn xizmatini ko'rsatuvchi boshqa tashkilot kompyuteriga jo'natadi. Paketlar oxirgi manzilga etib borguncha, turli tarmoqlardan, kompyuterlardan va aloqa liniyalaridan o'tadi. Bir qator apparat qurilmalari paketlarni qayta ishlaydi va to'g'ri yo'nalishda yo'naltirib turadi. Bu qurilmalar tarmoqlar orasida ma'lumot uzatishga xizmat qiladi va internetning yagona tarmoq sifatida faoliyat ko'rsatishiga olib keladi. Beshta eng asosiy qurilma: hub (tugun), bridge (ko'pri), gateway (darboza yoki shlyuz), repeater (tiklagich), router (marshrutizator - yo'naltirgich) lardir.

Hub (hab deb o'qiladi) juda muhim ahamiyatga ega. Ular bir guruh kompyuterlarni bir-biri bilan bog'lab, kompyuterlarning mahalliy tarmog'ini (local area network yoki qisqacha LAN) yaratishga va kompyuterlarni bir-biriga ulana olishiga xizmat qiladi. Ko'priklar mahalliy tarmoqlarni bir-biri bilan bog'laydi. Ular mahalliy tarmoqqa jo'natiladigan ma'lumotlarni tarmoq ichida olib qoladi va boshqa mahalliy tarmoqdagi kompyuterga jo'natilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni tarmoqdan tashqariga chiqarib yuboradi. **Shlyuzlar** ko'priklarning o'zi, lekin ular zarurat paydo bo'lganda, ma'lumotlarni bir turdan ikkinchi tarmoq uchun tushunarli boshqa turga aylantiradi. Internet bo'ylab ma'lumotlar uzatilganda ular uzoq masofaga jo'natilishi mumkin. Bunda esa ma'lumotlarni tashuvchi signallar so'na boshlaydi. **Repeaterlar** signallar so'nib qolmasligi uchun ma'lum masofadan keyin ularni kuchaytiradilar.

Marshrutizatorlar. Internetdagi ma'lumotlar oqimini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Ularning vazifasi ma'lumotlar joylangan paketlarni har doim kerakli yo'nalishda borishini ta'minlashdir. Agar ma'lumotlar bitta mahalliy tarmoqqa tegishli kompyuterlar orasida uzatilsa, marshrutizatorlarning keragi yo'q, chunki Hubning o'zi mahalliy oqimni boshqara oladi. Marshrutizatorlar ikkita tarmoq orasida ma'lumot uzatilayotganda ishlay boshlaydilar. Marshrutizatorlar paketlarni tekshirib, ularning oxirgi manzillarini aniqlaydi va paketlarni bu manzilga yaqinroq boshqa marshrutizatorga uzatadi. Marshrutizatorlarning ishlashi bilan quyida batafsilroq tanishib chiqamiz.

Yuqoridagi barcha qurilmalar ko'plab tarmoqlarni birlashtiradi va bularning hammasi Internetni tashkil etadi. Korporativ mahalliy tarmoqlar eng kichik tarmoqlardir. Ular birlashib, o'rtacha darajadagi tarmoqlarni tashkil qiladi. Bir geografik xududda joylashgan tarmoqlar birlashib, mintaqaviy tarmoqlarni tashkil etadi. O'z navbatida bu tarmoqlar ham birlashib, keng hududli tarmoqlar (wide area network yoki qisqacha WAN)ni tashkil etadi. Bir mintaqaviy tarmoq ichida ma'lumotlar marshrutizatorlar yordamida uzatilishi mumkin. Lekin

ma'lumotni bir mintaqaviy tarmoqdan ikkinchisiga uzatish kerak bo'lsa, bu ma'lumot tarmoqning kirish nuqtasi (network access point yoki qisqacha NAP)ga jo'natiladi. Bu nuqtadan ma'lumot magistrallar orqali katta tezlikda ikkinchi mintaqaviy tarmoqning kirish nuqtasiga uzatiladi. Bu magistrallarda ma'lumotlar 155 Mb/s va undan katta tezlikda uzatiladi. Hozirgi kunda tezligi 10-20 Gigabit/s bo'lgan va multimedia koridorlari deb ataluvchi magistrallar mavjud.

Xabarlar, ma'lumotlar, fayllar kompyuter tarmog'i bo'ylab uzatilaetganda bir necha bosqichlarni bosib o'tadi. Bu bosqichlar soni 7 ta bo'lib, ularning har biri berilmalar aniq va o'z vaqtida uzatilishini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

1. **Ilovalar** bosqichi foydalanuvchi kuzata oladigan yagona bosqich bo'lsa-da, bu bosqichda bajariladigan amallarning ko'pchiligidan foydalanuvchi bexabar qoladi. Bu bosqichda ma'lumotlar bitlar ketma-ketligiga aylantiriladi va unga sarlavha qo'yiladi. Bu sarlavhada, xususan, uni jo'natayotgan va oladigan kompyuterlar manzillari ko'rsatiladi.

2. **Taqdimot** bosqichida ma'lumotlarni kodlash uchun alifbo turi (masalan, ANSII, Unicod) tanlanadi, hajmi kamaytirish uchun siqiladi, boshqalarning qo'lga tushganda oshkor bo'lmasligi uchun kriptografiya yordamida shifrlanadi.

3. **Sessiya** bosqichida aloqa o'rnatish boshlanadi. Bu bosqichda ma'lumotning chegaralari (boshi va oxiri) belgilanadi. Bu amalni yana ma'lumotni qavsga olish deb ham atashadi. Bundan tashqari, aloqa turi tanlanadi. Aloqa yarim dupleks tarzida bo'lsa, kompyuter har bir vaqt momentida ma'lumotlarni qabul qilish yoki uzatish tartibidan birida ishlaydi, hamda bu tartiblarning biridan ikkinchisiga o'tib turadi. Aloqaning to'liq dupleks turida kompyuter bir vaqtda ma'lumotni uzatishi va qabul qilib olishi mumkin. Aloqa turi ham sessiya sarlavhasiga yoziladi.

4. **Transport** bosqichida jo'natiladigan ma'lumotlar tasodifiy o'zgarishlardan himoyalanaadi. Buning uchun ma'lumot bo'laklarga, ya'ni segmentlarga ajratiladi, har bir segment uchun nazorat yig'indisi hisoblanadi. Nazorat yig'indisi – bu segmentdagi barcha bitlarning matematik yig'indisi bo'lib, ma'lumot uzatilgach, uning nazorat yig'indisi qayta hisoblanadi va bu qiymat nazorat yig'indisining qabul qilingan qiymatiga teng bo'lsa, demak ma'lumot bexato jo'natilgan bo'ladi. Bu bosqichda ma'lumotlardan nusxa olinadi va u ma'lumot uzatilguncha saqlab turiladi. Har bir segment uchun sarlavha yaratiladi va unga segmentning tartib raqami, nazorat yig'indisi kiritiladi.

5. **Tarmoq** bosqichida ma'lumotlarni uzatish yo'li (marshruti) aniqlanadi. Segmentlardan paketlar yaratiladi, paketlar soni, ketma-ketligi, ma'lumotlarni jo'natayotgan va qabul qilib oladigan kompyuter manzillari paketlarning sarlavhalari (konvert)ga kiritiladi.

6. **Ma'lumotlarni uzatish** bosqichida ma'lumotlarni uzatish boshqariladi. Unda har bir paketdan nusxa olinadi, uning nazorat yig'indisi hisoblanadi. Bu bosqichda har bir paket nusxasi ular marshrutining keyingi nuqtasiga bexato etib borguncha saqlab turiladi.

7. **Fizik** bosqichda paketlar fizik aloqa kanallarining muhitida uzatiladigan signallarga aylantiriladi va ularni uzatish boshlanadi. Masalan, telefon liniyalari uchun paketlar analogli signallarga, radiokanallar uchun modulyatsiya qilingan radiosignallarga aylantiriladi. Ma'lumotlar to'liq qabul qilib olingandan keyin, bu bosqichlar teskari tartibda bajariladi. Fizik bosqichda signallar bitlarga aylantiriladi. Ma'lumotlarni uzatish bosqichida nazorat yig'indisi qayta hisoblanadi, paketning etib kelgani tasdiqlanadi va bu narsa paket sarlavhasiga qayd qilinadi. Tarmoq bosqichida paketlar qayta sanab chiqiladi. Transport bosqichida nazorat yig'indisi qayta hisoblanadi va paketlar segmentlarga o'tkaziladi. Sessiya bosqichida segmentlar to'planib, yig'iladi. Taqdimot bosqichida siqilgan va shifrlangan ma'lumot qayta tiklanadi. Ilova bosqichida hosil bo'lgan ma'lumot belgilar ketma-ketligiga o'tkaziladi va kerakli ilovaga beriladi.

1. Internetga chiqishning turli usullari mavjud. Ulardan asosiylari quyidagilar:

1) Internetga ulangan **mahalliy tarmoqqa** ulanish.

2) **ISP** (Internet Service Provider – Internet xizmatlari provayderi) larga oddiy telefon liniyasi orqali **dial up** modemi orqali ulanish.

3) **DSL** (Digital Subscript Line – obunachining raqamli liniyasi) modemi orqali.

4) **Keng polosali kabel** orqali.

5) **Optik tolali kabel** orqali.

6) **Sun'iy yo'ldosh** orqali.

2. Mahalliy tarmoqdagi kompyuterlar biri-biri bilan asosan ikki usulda: **yulduzsimon** va **halqasimon** usulda ulanadi. Oxirgi paytda yulduzsimon ulanish juda keng tarqaldi. Bu usulda ulanish uchun har bir kompyuter **tarmoq kartasiga** ega bo'lishi kerak. Hozirgi paytda kompyuterlarning asosiy platasiga tarmoq kartasi joylanmoqda va bu yulduzsimon tarmoq turining keng tarqalishiga sabab bo'ldi. Yulduzsimon ulanishda kompyuterlar tarmog'i Ethernet tarmog'i deb ham ataladi. **Ethernet** – bu ulanish standartini taklif qilgan va tarmoq kartalarini ishlab chiqaruvchi kompaniya nomi.

3. Ethernet tarmog'ida tarmoqdagi barcha kompyuterlar bir-biri bilan bevosita ma'lumot almashishi mumkin. Ma'lumot almashish tezligi esa sekundiga 10/100/1000/ Megabit bo'lishi mumkin. Bu usulda tarmoq yaratish uchun har bir kompyuterdagi tarmoq kartasidan tashqari, **Hub (tarmoq tuguni)** deb ataluvchi qurilma ham kerak bo'ladi. Hozirgi kunda 4, 8, 12, 16, 16, 24, 48 tagacha kompyuterlarni ulash uchun Hub lar ishlab chiqarilmoqda. Ularda ma'lumot almashish tezligi sekundiga 10/100 yoki 10/100/1000 Megabitgacha bo'lishi mumkin. 10 Mb tezlik uchun **eshilgan juflik** deb ataluvchi sodda kabeldan foydalaniladi. Odatda bunday kabel orqali Hubdan ancha olis bo'lgan qurilmalar masalan, xonadan yoki binodan tashqaridagi kuzatuv yoki veb kameralar tarmoqqa ulanadi. 100 Mb tezlik uchun 8 ta simdan iborat **RJ-45** rusumli kabeldan foydalaniladi. 1000 Mb tezlik uchun tarmoq kartalari ko'plab asosiy platalarga o'rnatilmoqda va yaqin vaqtda bu standartning ham ommaviylashishi kutilmoqda.

4. Ajratilgan telefon liniyalarda ma'lumotlarni uzatish tezligi 56 Kb/s gacha etadi. Keng polosali telefon kabellari orqali ulanganda T1 rusumli kabellar uchun tezlik 1,544 Mb/s, T3 rusumli kabellar uchun tezlik 44,746 Mb/s gacha etadi. DSL usulida tezlik 64, 128, 256, 512, 1024 Kb/s bo'lishi mumkin va bu usuldan yakka tartibda ulangan foydalanuvchilar ham foydalanishlari mumkin.

5. Ma'lum xududda joylashgan tarmoqlar mintaqaviy tarmoqqa birlashishi mumkin. Mintaqaviy tarmoqlarda ma'lumot almashish marshrutizatorlar yordamida amalga oshiriladi.

6. Mintaqaviy tarmoqlar bir-biri bilan magistrallar orqali birlashtiriladi. Magistralda tezlik 155 Mb/s va undan yuqori bo'lishi mumkin.

Nazorat savollari.

1. Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari fani haqida nimalarni bilasiz?
2. Axborot texnologiyalari deganda nimalarni tushunasiz?
3. Global tarmoq infratuzilmasi va internet texnologiyalari deganda nimalarni tushunasiz?
4. Axborot kutubxona tizimlari va tarmoqlari haqida nimalarni bilasiz?

2-mavzu: Axborot sohasini rivojlantirish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash.

Reja:

1. Axborotga bo'lgan hayotiy ehtiyoj, uni qondirishga xizmat qiluvchi omillarni shakllantirish.
2. Insoniyat tarixida axborot to'plash va tarqatishning dastlabki og'zaki (voizlar, jarchilar, choparlar va boshqalar) va yozma (popiruslardagi, e'lon taxtalari va hakoazolardagi) namunalari.
3. Zardushtiylik tarixining manbalari, Zardusht xudoning payg'omi (xabari)ni odamlarga yetkazish orqali bosqinchilik va vayronliklar oldini olish, halol mehnat qilib, tinch-totuv yashash, adolat va haqiqatga sajda qilish kerakligini o'rgatgan.
4. Avestodan har qanday xabar, yangilik o'zining takomilligi, haqiqiyliqi, to'liqligi bilan baholanishi, uning yordamida insoniyat yaxshilik va ezgulikka qarab intilishi to'g'risida.

Tayanch so'z va iboralar

Axborotga bo'lgan hayotiy ehtiyoj, uni qondirishga xizmat qiluvchi omillarni shakllantirish. Insoniyat tarixida axborot to'plash va tarqatishning dastlabki og'zaki (voizlar, jarchilar, choparlar va boshqalar) va yozma (popiruslardagi, e'lon taxtalari va hakoazolardagi) namunalari. Zardushtiylik tarixining manbalari, Zardusht xudoning payg'omi (xabari)ni odamlarga yetkazish orqali bosqinchilik va vayronliklar oldini olish, halol mehnat qilib, tinch-totuv yashash, adolat va haqiqatga sajda qilish kerakligini o'rgatgan. Avestodan har qanday xabar, yangilik o'zining takomilligi, haqiqiyliigi, to'liqligi bilan baholanishi, uning yordamida insoniyat yaxshilik va ezgulikka qarab intilishi to'g'risida.

Axborot (lotincha «informatio»-tushuntirmoq, bayon etmoq) zamonaviy fan va siyosatning asosiy tushunchalaridan biri; dastlab kishilar tomonidan og'zaki, keyinroq yozma yoki boshqa shakllar uzatilgan ma'lumot; XX asrning o'rtalaridan boshlab insonlararo, inson-avtomat, avtomat-avtomat o'rtasidagi ma'lumot hamda hayvonlar va o'simliklardagi signal almashinuvi, hujayrada hujayraga muayyan belgilarning uzatilishi va shu kabilarni anglata boshlagan.

Axborot:

1) biron voqea haqidagi batafsil xabar, ma'lumot. Davlatlar o'rtasidagi muzokaralar na-tijasida tuzilgan bitim yoki shartnoma to'g'risida hukumatning rasmiy xabari. Xalqaro huquqda ikki va undan ortiq davlatlar o'rtasida olib boriladigan diplomatik muzokaralar natijasida tuzilgan bitimlar, shartnomalar yoki qabul qilingan boshqa qarorlar haqidagi xabar ikki yoki undan ortiq davlatlar tomonidan rasmiy e'lon qilinadi. Ikki davlat o'rtasida olib borilgan muzokaralar haqidagi Axborot. odatda qo'shma Axborot. deb atala-di;

2) ba'zi vaqtli nashrlarning nomi (mas, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining axboroti

Ijtimoiy hayotga tatbiqan axborot-kishilar, predmetlar, faktlar, hodisalar, jarayonlar va shu kabilar haqidagi ma'lumot (ma'lumotlar majmui)ni anglatadi.

Axborotlashtirish-axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish hisobiga fuqarolar, davlat hokimiyati va o'z-o'zini boshqarish organlari, tashkilotlar va jamoat birlashmalarining axborot sohasidagi ehtiyojlarini qondirish, huquqlarini ro'yobga chiqarish maqsadida optimal sharoitlarni yaratish uchun tashkil etiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik jarayonlar majmui.

Informatsion jarayonlar-axborotni qidirish, yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash va tarqatish jarayoni.

Axborot tizimi (informatsion sistema)-informatsion jarayonlarni amalga oshiruvchi tartibga solingan hujjatlar hamda axborot texnologiyalari majmui.

Axborot resurslari-muayyan (kutubxona, arxiv, fond, ma'lumotlar banki kabi) axborot tizimlaridagi alohida hujjatlar va hujjatlar majmui.

Ijtimoiy-siyosiy axborot- ijtimoiy va siyosiy hayot borasida jamiyat a'zolari, ijtimoiy guruhlar, siyosiy tashkilotlar o'rtasida almashinuv predmeti hisoblangan va ular o'z faoliyatida foydalanadigan bilimlar, ma'lumotlar va xabarlar majmui.

Ijtimoiy-siyosiy axborotlar insonlar o'rtasidagi aloqalar, siyosiy jarayonlar, jamiyatni boshqarish, ilmiy, o'quv va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, targ'ibot va tashviqotni amalga oshirishda tobora muhim va ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. To'laligi, asoslanganligi va ishonchliligi muhim ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy-siyosiy axborotlarni ishlab chiqishda fan, ularni tarqatishda OAV muhim rol' o'ynaydi.

Axborot madaniyati texnik-texnologik va ijtimoiy-madaniy jihatlariga ega. Texnik-texnologik jihatdan axborot madaniyati axborotni olish, qayta ishlash, saqlash va etkazib berishga xizmat qiladigan texnik-axborot vositalari va ulardan oqilona foydalanish usullari haqidagi bilimlar tizimini anglatadi.

Ijtimoiy-madaniy ma'noda axborot madaniyati insonning muayyan ma'naviy-axloqiy, siyosiy, huquqiy va estetik qadriyatlarini o'zlashtirgan holda axborot maydonida hayotiy faoliyat ko'rsatishini anglatadi.

Axborot resurslari. Axborot resurslari va axborot tizimlari. O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda 560-II son "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuniga binoan quyidagicha ta'rif berish mumkin. Axborot resurslari — alohida hujjatlar, hujjatlarning alohida to'plamlari, axborot tizimlaridagi (kutubxonalaridagi, arxivlardagi, fondlardagi, ma'lumotlar banklaridagi va boshqa axborot tizimlaridagi) hujjatlar va hujjatlarning to'plamlari.

Ommaviy axborot – bunga cheklanmagan doiradagi shaxslar uchun mo'ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, bosma, audio, audiovizual hamda boshqa xabarlar va materiallar kiradi.

Axborot tizimi — axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari.

Axborotning salbiy va ijobiy ta'siri. Axborotning ijobiy tomoni shundan iboratki, o'z vaqtida olingan to'g'ri va sifatli axborot turli sohalarida aniq qaror qabul qilish imkonini beradi. To'g'ri sifatli axborot insonlar, ayniqsa yoshlarning dunyoqarashini boyitishi, bilim olishi, zamonaviy bilimlar egasi bo'lishi imkonini beradi, zero Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur.

Axborotning salbiy tomoni shundan iboratki, hozirgi kunda ayrim g'arb davlatlaridan kirib kelayotgan bizning milliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan axborotlar va qarashlar hamda insonlar ongini zaharlovchi ma'lumotlar ham mavjud. Ayniqsa bunday ma'lumotlar Internet tarmog'i orqali keng tarqalmoqda. Internet va SMS xabarlar orqali tarqalayotgan jamiyatimizga, qadriyatlarimiz va an'analarimizga, davlatchiligimizga zid bo'lgan nojo'ya axborotlar yoshlarning ongini zaharlashi va ularni noto'g'ri yo'llarga boshlashi mumkin. Bunday holatlarning oldini olish bizning vazifamizdir. Har doim axborotdan o'rinli va to'g'ri foydalanish zarur.

Zamonaviy jamiyatda insonning ishlab chiqarish faoliyati umumlashgan ishlab chiqarish (UICH) doirasida kechmokda. UICH bir-biri bilan uzviy bog'liq fizik(moddiy) xamda axboriy-mantikiy qismlardan iborat. Ishlab chiqarishning axboriy-mantikiy qismiga kuch bergan mamlakatlar yukori ish unumdorligi va zamonaviy, xaridorgir maxsulotlar ishlab chiqarishga erishganliklari ma'lum. Axboriy-mantikiy ishlab chiqarish (AMICH)ning resurslari asosini axborot, mexnat vositalarini esa xisoblash texnikasi, uning dasturiy ta'minoti, axborot texnologiyalari va boshqalar tashkil qiladi. Mexnat vositalari xamda aqliy mexnatni sarf qiluvchi, tajriba va bilimga ega insonlar AMICHning ishlab chiqarish kuchlarini tashkil qiladi. AMICHning maxsuloti abstrag't ob'ekt (axborot, model) iste'mol predmeti sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ishlab chiqarish doirasidagi XX asrda yuz bergan o'zgarishlar AMICHning paydo bo'lishi va uning axamiyatining oshib borishi bilan bog'liqdir. Binobarin, UICHning umuman unumdorligining oshishi avtomatlashtirish, shu jumladan, AMICHni avtomatlashtirish bilan bog'liq deb karalishi zarur. Shu bois mexnat unumdorligi ko'p jixatdan informatikaga bogliqdir. Hisoblash texnikasi va aloqa vositalarining keng rivojlanishi axborotni ilgari hayolga xam keltirib bo'lmaydigan xajm va tezkorlikda yig'ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish, ya'ni avtomatlashtirilgan xolda ishlov berish imkoniyatini yaratib berdi. Axborot texnologiyalari tufayli insonning faoliyati, uning kundalik mulokot soxasi dunyo sivilizatsiyasi ishlab chiqqan tajriba, bilimlar va ma'naviy kadriyatlarni jalb etish xisobiga chindan xam bexad kengaymokda. Bu esa uz navbatida jamiyatning yukori darajada axborotlashgan bo'lishini talab etadi.

Axborotlashgan jamiyat haqida olimlar turlicha fikr yuritadilar. Masalan, yapon olimlarining xisoblashicha, axborotlashgan jamiyatda kompyuterlashtirish jarayoni odamlarga ishonchli axborot manбайдan foydalanish, ishlab chiqarish va ijtimoiy soxalarda axborotni qayta ishlashni avtomatlashtirishning yukori darajasini ta'minlashga imkon beradi. Jamiyatni rivojlantirishda esa xarag'atlantiruvchi kuch moddiy maxsulot emas, balki axborot ishlab chiqarish bo'lmog'i lozim.

Axborotlashgan jamiyatda nafaqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzi, qadriyatlar tizimi xam o'zgaradi. Barcha xarag'atlar tovarlarni ishlab chiqarish va iste'mol etishga

yunaltirilgan sanoat jamiyatiga nisbatan axborotlashgan jamiyatda intellekt, bilimlar ishlab chiqariladi va iste'mol etiladiki, bu xol aqliy mehnat ulushining oshishiga olib keladi. Insondan ijodiyotga qobiliyat talab etiladi, bilimlarga ehtiyoj oshadi.

Axborotlashgan jamiyatning moddiy va texnologik negizini kompyuter texnikasi va kompyuter tarmoqlari, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya aloqalari asosidagi turli xil tizimlar tashkil etadi.

Axborotlashgan jamiyat — jamiyatning ko'pchilik a'zolari axborot, ayniqsa, uning oliy shakli bulmish bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va amalga oshirish bilan band bo'lgan jamiyatdir.

Axborotlashgan jamiyatga o'tishda kompyuter va telekommunikatsiya axborot texnologiyalari negizida yangi axborotni qayta ishlash sanoati yuzaga keladi.

Axborotlashuv jarayoni jamiyatdagi iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. G'arb sotsiologlari fikriga ko'ra, axborotlashgan jamiyat texnika sohasida-ishlab chiqarish, iqtisodiyot, ta'lim va maishiy hayotga axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi; iqtisodiy hayotda-axborotning tovarga aylanishi; ijtimoiy hayotda-axborot turmush, hayot darajasi o'zgarishining asosiy omiliga aylanishi; siyosiy sohada-keng miqyosda fikr almashishga zamin yaratuvchi xilma-xil axborotlarni erkin olishga yo'l ochilishi; madaniyat sohasida-axborot almashinuvi davr ehtiyojlariga javob beradigan normalar va qadriyatlarning shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Ayni paytda axborotlashgan jamiyat:

-uyda ishlashning kengayishiga, transport harakatining kamayishiga va buning oqibatida tabiatga tushadigan «yuk»ning keskin qisqarishiga olib keladi;

-ish kunining qisqarishi odamlarning uyda ko'proq bo'lishiga va oilaviy muhitning barqaror bo'lishiga zamin yaratadi;

-keyingi yuz yilliklarda kishilar shahar yashash va ishlash uchun eng qulay makon, degan xulosaga keldilar. Axborotlashuv jarayoni esa, qishloqdan turib ham butun olam bilan muloqot qilish, eng obro'li tashkilotlarda ishlash, shahar aholisi bahramand bo'layotgan madaniyat yutuqlarini istifoda etish imkoniyatini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida nisbatan osuda va tinch bo'lgan, tabiatga yaqin qishloqlarga qaytish yoki u erda doimiy qolish uchun zamin yaratadi.

Insoniyat tarixida axborot ehtiyoji. Har qanday jamiyatda axborot hamisha mamlakat taraqqiyotining ko'zgusi, kishilarning ongi, dunyoqarashi, siyosiy saviyasi shakllanishining asosiy vositalaridan biridir. Shuning uchun ham, axborotga bo'lgan hayotiy ehtiyoj, uni qondirishga xizmat qiluvchi omillarni shakllantirish kishilik taraqqiyotining har bir bosqichida yetakchi o'rinlardan birini egallab kelgan. Insoniyat tarixida axborot to'plash va tarqatishning dastlabki og'zaki (voizlar, jarchilar, choparlar va boshqalar) va yozma (popiruslardagi, e'lon taxtalari va hakoazolardagi) namunalari nomuntazam bo'lsada, qadim zamonlardan yaxshi ma'lum. O'sha davrlardayoq to'laqonli axborot va xabarga talab hamda ehtiyoj turli manbalarda o'z aksini topgan. Zardushtiylik tarixining manbalarida aytilishicha, Zardusht xudoning payg'omi (xabari)ni odamlarga etkazish orqali bosqinchilik va vayronliklar oldin o'lish, halol mehnat qilib, tinch-totuv yashash, adolat va haqiqatga sajda qilish kerakligini o'rgatgan. 30 asrlar oldin bitilib, bizlarga etib kelgan "Avesto"dan har qanday xabar, yangilik o'zining takomilligi, haqiqiyliigi, to'liqligi bilan baholanishi, uning yordamida insoniyat yaxshilik va ezgulikka qarab intilishi to'g'risida xulosa qilish mumkin. Ommaviy axborotning asosiy ma'nosini anglatuvchi ma'lumot yig'ish, qayta ishlash va tarqatish hamda tezkor xabarlar yozib jamiyatni ogoh etish bilan mashg'ul kishilar Amir Temur davrida ham bo'lganligi ma'lum. Bu haqda Sohibqironning «Qissai Temur»da: «Amr etdimkim, har sarh ad va viloyat, lashkar va mamlakatg'a bir axbornavis (xabarlar yozuvchi, ya'ni muxbir) tayin etg aylarkim, sipoh va hokim va ra'iyat va begona lashkar va mol va manolning mudoxil va max orij va begona odamlar va karvonning kirmak va chiqmog'i va hamsoya podshohlar mamlakati tining axbori va alarning a'moli va af'oli va uzoq baladalarin dargohimg'a yuz qo'yg'on ulamo va fozil odamlarning ishlar va so'zlarin rostlig' va durustlig' bila yozib dargohg'a yiborgaylar», degan fikri buning dalilidir. Demak, bo'layotgan hodisa voqealar haqida xabar to'plash va

davlatni boshqarishda ulardan foydalanish Sohibqiron uchun ham muhim omil bo'lgan. Alloma Alisher Navoiy ham o'z ijodi va faoliyati davomida xolis va rost axborot masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Uning "Hayratul abror" dostonidagi yolg'on xabar beruvchining ahvoli:

Har kishi yolg'onni desa, lek kam

Bo'lg'ay edi kosh bu davronda ham

YOki "Farhod va SHirin" dostonida xabarning ijtimoiy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratgan mutafakkir ajdodimizning:

Erursen shoh - agar ogohsen-sen,

Agar ogohsen - sen, shohsen sen,

degan misrlari har qanday yangilik, xabar haqiqiyliги, xolisligi, to'liqligi va tezkorligi bilan baholanganligi, uning yordamida halq irodasi yo'naltirilib turilganidan dalolat beradi. U mazkur misrasida agar kishi axborotni birinchi bo'lib egallasa, jamiyat tizginini egallashi, aynan xabar sabab barcha halokat va falokatlarning oldini olishi haqidagi pandlari bugungi xabar, axborot boshqarayotgan dunyomiz haqidagi bashoratdek ko'rinadi.

Asrlar oshsada axborotga bo'lgan talablar deyarli o'zgargan emas. Aksincha, jamiyat hayotida uning ahamiyati borgan sari oshib borgan va bugungi kunga kelib mamlakatimiz rivojlanishi strategiyasini shakllantirish va un bevosita amalga oshirishda tobora katta rol o'ynamoqda. Bu esa ularning fuqarolik jamiyatiga xos asosiy omillardan biriga aylanib borayotganidan dalolat beradi.

Nazorat savollari.

1. Axborotga bo'lgan hayotiy ehtiyoj, uni qondirishga xizmat qiluvchi omillarni shakllantirish haqida nimalarni bilasiz?
2. Axborot deganda nimalarni tushunasiz?
3. Insoniyat tarixida axborot to'plash va tarqatishning dastlabki og'zaki usullari haqida nimalarni bilasiz?
4. Axborot kutubxona tizimlari va tarmoqlari haqida nimalarni bilasiz?

3-mavzu: Kutubxona-axborot faoliyatini normativ-huquqiy tartibga solishning nazariy asoslari.

Reja:

1. Fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo'yicha konstitusiyaviy huquqlarini, ta'minlaydigan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishning sifat jihatdan yangi tizimini yaratish.
2. Kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish.
3. Axborot-kutubxona faoliyatida, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, fondlarni to'ldirish va saqlash, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish.
4. Axborot-kutubxona faoliyatida ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va rag'batlantirish.

Tayanch so'z va iboralar

Axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat boshqaruvi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi vakolatlari Fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo'yicha konstitusiyaviy huquqlarini, shu jumladan milliy qadriyatlar va jahon madaniyati, amaliy va fundamental bilimlardan bahramand bo'lishini ta'minlaydigan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishning sifat jihatdan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifalari. Axborot-kutubxona faoliyatiga, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, fondlarni to'ldirish va saqlash, kutubxona

jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va rag'batlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirishga jiddiy ta'sir ko'rsatish.

Axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat boshqaruvi

Axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va u axborot-kutubxona faoliyati sohasida maxsus vakolat bergan davlat organi (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi;

axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi;

axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi;

axborot-kutubxona muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Maxsus vakolatli davlat organi

Maxsus vakolatli davlat organi:

axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishida ishtirok etadi;

axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar va normativ hujjatlarni ishlab chiqadi hamda qabul qiladi;

axborot-kutubxona resurslarini noyob va alohida qimmatli axborot-kutubxona resurslari sirasiga kiritish tartibini, shuningdek ularni saqlash va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi;

axborot-kutubxona faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;

axborot-kutubxona muassasalarining hisobini yuritadi;

yig'ma elektron katalogni shakllantirish va yuritish tartibini tasdiqlaydi.

Maxsus vakolatli davlat organi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Axborot-kutubxona muassasalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash

Axborot-kutubxona muassasalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash:

ularning moliyaviy va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishga investitsiyalar jalb etish;

axborot-kutubxona faoliyatini amalga oshirishda soliq imtiyozlari va boshqa imtiyozlarni belgilash orqali amalga oshiriladi.

Axborot-kutubxona tizimi hamda axborot-kutubxona muassasalarining turlari

Axborot-kutubxona tizimi yagona tashkiliy va uslubiy ta'minot asosida faoliyat ko'rsatuvchi axborot-kutubxona muassasalari majmuidir.

Axborot-kutubxona muassasasi mustaqil muassasa bo'lishi yoxud korxonaga, muassasa yoki tashkilotning tarkibiy bo'linmasi bo'lishi mumkin.

Axborot-kutubxona muassasalariga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Milliy kutubxonasi;

axborot-kutubxona markazlari;

axborot-resurs markazlari;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalari;

boshqa kutubxonalar (fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, tijorat tashkilotlarining kutubxonalari).

Axborot-kutubxona muassasalari axborot-kutubxona fondlarining mazmuni va belgilangan maqsadiga ko'ra universal hamda maxsus axborot-kutubxona muassasalariga bo'linadi.

Universal axborot-kutubxona muassasalari axborot-kutubxona fondlarini bilimning turli sohalari bo'yicha shakllantiradi va turli toifadagi foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantiradi.

Maxsus axborot-kutubxona muassasalari axborot-kutubxona fondlarini bilimning bir yoki bir necha turdosh sohalari bo'yicha shakllantiradi va ayrim toifadagi foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantiradi.

O'zbekiston Milliy kutubxonasi

O'zbekiston Milliy kutubxonasi milliy va jahon madaniyatini, fani va ta'limini rivojlantirish manfaatlarini ko'zlagan holda O'zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etuvchi hamda amalga oshiruvchi umumdavlat universal axborot-kutubxona muassasasidir.

O'zbekiston Milliy kutubxonasi:

axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

axborot-kutubxona fondini shakllantiradi, uning but saqlanishini ta'minlaydi hamda foydalanuvchilarga milliy va xorijiy nashrlarning eng to'liq to'plamini taqdim etadi;

O'zbekiston Respublikasida chiqariladigan nashrlarning majburiy nusxasini, shuningdek dissertatsiyalarning ko'chirma nusxasini oladi;

O'zbekiston Respublikasida chiqariladigan nashrlarning davlat bibliografik hisobini yuritadi;

elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;

kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik sohasida ilmiy-tadqiqot hamda ilmiy-uslubiy faoliyatni amalga oshiradi va muvofiqlashtiradi;

noyob va alohida qimmatli axborot-kutubxona resurslarini but saqlash, konservatsiyalash va restavratsiya qilish bo'yicha ishlarni amalga oshiradi;

yig'ma elektron katalogni shakllantiradi va yuritadi;

axborot-kutubxona resurslaridan o'zaro foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratadi;

boshqa axborot-kutubxona muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

O'zbekiston Milliy kutubxonasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O'zbekiston Milliy kutubxonasining axborot-kutubxona fondi davlat mulkidir.

O'zbekiston Milliy kutubxonasi to'g'risidagi nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

Axborot-kutubxona markazlari

Axborot-kutubxona markazlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etuvchi hamda amalga oshiruvchi universal axborot-kutubxona muassasalaridir.

Axborot-kutubxona markazlari:

axborot-kutubxona fondini shakllantiradi va uning but saqlanishini ta'minlaydi;

elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;

tegishli hududda chiqariladigan nashrlarning majburiy nusxasini oladi;

bibliografik, ilmiy-uslubiy va madaniy-ma'rifiy ishlarni bajaradi;

tegishli hududda axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularni tashkiliy-uslubiy jihatdan ta'minlashni amalga oshiradi;

yig'ma elektron katalogni shakllantirishda ishtirok etadi;

axborot-kutubxona resurslaridan o'zaro foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratadi;

boshqa axborot-kutubxona muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi; tegishli hududda axborot-kutubxona muassasalarining depozitar saqlanadigan axborot-kutubxona resurslarini to'plashni amalga oshiradi va ularning hisobini yuritadi.

Axborot-kutubxona markazlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Axborot-kutubxona markazlarining axborot-kutubxona fondi davlat mulkidir.

Axborot-kutubxona markazi to'g'risidagi namunaviy nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

Axborot-resurs markazlari

Axborot-resurs markazlari davlat ta'lim muassasalari huzurida tashkil etilgan, o'quvchi yoshlarning, shuningdek aholining axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan axborot-kutubxona faoliyatini amalga oshiruvchi universal axborot-kutubxona muassasalaridir.

Axborot-resurs markazlari:

ta'lim muassasasining ixtisoslashuviga muvofiq asosan ilmiy-ta'limga oid mazmundagi axborot-kutubxona fondini shakllantiradi va uning but saqlanishini ta'minlaydi;

elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;

o'zidagi va o'zidan uzoqdagi axborot resurslaridan foydalanish asosida ma'naviy boy va barkamol shaxsni ijodiy rivojlantirish uchun imkoniyat yaratgan holda, foydalanuvchilarni madaniy meros obyektlaridan bahramand etadi;

axborot-kutubxona resurslaridan o'zaro foydalanishni ta'minlaydi;

boshqa axborot-kutubxona muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

yig'ma elektron katalogni shakllantirishda ishtirok etadi;

madaniy, ta'lim, axborot dasturlari va loyihalarini hamda boshqa dasturlar va loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ta'lim, ilmiy muassasalar va arxivlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, milliy madaniyat markazlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantiradi.

Axborot-resurs markazlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Axborot-resurs markazlarining axborot-kutubxona fondi davlat mulkidir.

Axborot-resurs markazi to'g'risidagi namunaviy nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilishning hozirgi sharoitida axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishning maqsad va vazifalari mamlakatda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga va xalqaro amaliyotga mos bo'lishi zarur. Shu munosabat bilan fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini, shu jumladan milliy qadriyatlar va jahon madaniyati, amaliy va fundamental bilimlardan bahramand bo'lishini ta'minlaydigan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishning sifat jihatidan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Bu esa, axborot-kutubxona faoliyatiga, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, fondlarni to'ldirish va saqlash, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va rag'batlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirishga jiddiy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

Aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish, axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini rivojlantirish maqsadida:

Quyidagilar aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni sifat jihatidan yanada rivojlantirish sohasidagi asosiy vazifalar etib belgilansin:

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va zamonaviy umumjahon tendensiyalarini hisobga olgan holda axborot-kutubxona faoliyatini isloh qilish;

aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatish bo'yicha ijtimoiy kafolatlarni sifatli ta'minlash hamda zamonaviy talablarni hisobga olgan holda, axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish maqsadida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

hududlarda aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishni barqaror rivojlantirishga ko'maklashish;

axborot-kutubxona muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shu jumladan yangi bino va inshootlarni qurish, mavjud binolarni rekonstruksiya qilish, ularni zamonaviy uskunalar bilan ta'minlash;

kutubxona sohasida davlat-xususiy sheriklikni, xususiy va elektron (virtual) kutubxonalar tarmog'ini rivojlantirish;

kutubxonalar faoliyatining samaradorligini va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish (shu jumladan, pulli xizmat ko'rsatish) tezkorligini oshirish uchun elektron kitoblar tarqatishga ixtisoslashgan internet-resurslar bilan hamkorlikni kengaytirish;

axborot-kutubxona muassasalari xavfsizligini hamda milliy va jahon madaniy merosining bir qismi sifatida axborot-kutubxona fondlarining yaxshi saqlanishini ta'minlash;

jamiyatning axborot madaniyatini, tariximizga va milliy madaniyatga qiziqishini shakllantirish va kuchaytirish, mutolaa madaniyatini oshirish va targ'ib qilish;

axborot-kutubxona muassasalarini malakali mutaxassislar bilan ta'minlash.

Quyidagilar:

a) 2019 — 2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish konsepsiyasi;

b) 2019 — 2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi;

v) Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi — axborot-resurs markazining tashkiliy tuzilmasi;

g) Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi — axborot-resurs markazining (keyingi o'rinlarda — Milliy kutubxona) xodimlar umumiy cheklangan soni 227 nafardan iborat boshqaruv apparati tuzilmasi tasdiqlandi.

Milliy kutubxona direktoriga, zarur hollarda, Milliy kutubxona boshqaruv apparati tuzilmasiga xodimlarning belgilangan umumiy soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi beridi.

axborot-kutubxona resursi — moddiy obyektida matn, ovozli yozuv yoki tasvir tarzida qayd etilgan hamda identifikatsiyalash, saqlash va foydalanishni ta'minlash uchun rekvizitlarga ega bo'lgan axborot;

axborot-kutubxona faoliyati — axborot-kutubxona muassasalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona fondlarini shakllantirish va axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni tashkil etish bo'yicha faoliyati;

axborot-kutubxona fondi — tizimlashtirilgan axborot-kutubxona resurslarining majmui;

axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish — foydalanuvchilarning axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishini ta'minlash;

yig'ma elektron katalog — axborot-kutubxona muassasalarining elektron kataloglari majmui;

foydalanuvchi — axborot-kutubxona xizmati ko'rsatilishi uchun axborot-kutubxona muassasasida ro'yxatga olingan shaxs;

elektron katalog — tizimlashtirilgan axborot-kutubxona resurslari ro'yxatining elektron shakli;

elektron kutubxona — axborot-kutubxona fondining elektron shakli.

Axborot-kutubxona faoliyatining asosiy vazifalari

Axborot-kutubxona faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

foydalanuvchilarning axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishini ta'minlash;

foydalanuvchilarning intellektual, ma'naviy-axloqiy, madaniy va ta'lim olish ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

milliy madaniyatni tiklashga va yanada rivojlantirishga ko'maklashish, madaniy meros obyektlarini saqlash;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona resurslaridan o'zaro foydalanishni ta'minlash.

Axborot-kutubxona fondini shakllantirish axborot-kutubxona muassasasining maqsadlari va vazifalariga muvofiq uni jamlash, hisobga olish, ishlovdan o'tkazish, joylashtirish va saqlash orqali amalga oshiriladi.

Axborot-kutubxona fondini jamlash

Axborot-kutubxona fondi nashrlarni va boshqa axborot-kutubxona resurslarini sotib olish, ularga obuna bo'lish, ularni ayirboshlash, tekinga olish, shu jumladan hadyaga olish hisobiga jamlanadi.

Axborot-kutubxona fondini hisobga olish, ishlovdan o'tkazish, joylashtirish, saqlash va undan foydalanish

Axborot-kutubxona fondini hisobga olish, ishlovdan o'tkazish, joylashtirish, saqlash va undan foydalanish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Axborot-kutubxona fondining nashrlar majburiy nusxasini olish hisobiga jamlanadigan, shuningdek noyob va alohida qimmatli axborot-kutubxona resurslarini o'z ichiga olgan qismi milliy madaniy bo'ylik bo'lib, moddiy madaniy meros obyekti sifatida saqlanadi.

Axborot-kutubxona muassasalarining moddiy-texnika ta'minoti yomonlashuviga, ularni mehnatni muhofaza qilish talablariga, axborot-kutubxona fondlarini saqlash normalari va shart-sharoitlariga mos kelmaydigan binolarga ko'chirishga yo'l qo'yilmaydi.

Foydalanuvchilar quyidagi huquqlarga ega:

axborot-kutubxona muassasalariga kirish va axborot-kutubxona resurslaridan foydalanish;

o'z ehtiyojlariga mos tarzda axborotni erkin tanlab olish;

ko'rsatiladigan xizmatlarning, shu jumladan pulli xizmatlarning ro'yxati hamda ularni ko'rsatish shartlari haqida axborot olish;

so'ralayotgan axborot-kutubxona resurslarining mavjudligi haqida axborot olish.

Nazorat savollari

1. Axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat boshqaruvi xaqida nimalarni bilasiz?
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi vakolatlari xaqida nimalarni bilasiz?
3. Fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo'yicha konstitusiyaviy huquqlari xaqida nimalarni bilasiz?
4. Aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishning sifat jihatdan yangi tizimini yaratish xaqida nimalarni bilasiz?
5. Kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish xaqida nimalarni bilasiz?

4-mavzu: Axborot-resurs markazi (kutubxona) faoliyatini takomillashtirishga tegishli amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar.

Reja:

1. Axborot-resurs markazi (kutubxona) faoliyatini takomillashtirishga tegishli amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari, hukumat qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi buyruqlarining ijro etilishi va joriy qilinishi, bajarilishi qanday borayotganligining uzluksiz monitoringini ta'minlash uchun axborot-resurs markazi ish amaliyoti.
3. Axborot-resurs markazi ish amaliyoti:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat qarorlari, Xalq ta'limi vazirligi buyruqlarini o'rganishni ta'minlovchi tadbirlar;
- Axborot-resurs markazi(kutubxona) ish rejasi tarkibida O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari, hukumat qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi buyruqlari bajarilishining borishini o'rganishga doir bo'limni shakllantirish.

Tayanch so'z va iboralar.

Axborot-resurs markazi (kutubxona) faoliyatini takomillashtirishga tegishli amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari, hukumat qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi buyruqlarining ijro etilishi va joriy qilinishi, bajarilishi qanday borayotganligining uzluksiz monitoringini ta'minlash uchun axborot-resurs markazi ish amaliyoti.

Zamonaviy talablarni hisobga olgan holda kutubxona tarmog'ini tashkil qilishni takomillashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual ehtiyojlarini qondirishga, madaniy, ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarni saqlab qolishga yo'naltirilgan prinsiplar yangi axborot markazlarini barpo etish, shuningdek aholini yanada kengroq va tizimli axborot bilan ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining:

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi kutubxonalarini Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, OO'MTVning O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi, Xalq ta'limi vazirligi ixtiyoriga o'tkazish yo'li bilan oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari huzurida axborot-resurs markazlarini tuzish;

Qoraqalpog'iston Respublikasining Respublika kutubxonasi, viloyatlar ilmiy-universal kutubxonalari, shuningdek Toshkent shahar markaziy kutubxonasi negizida idoraviy jihatdan O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasiga bo'ysunuvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar axborot-kutubxona markazlarini tashkil etish to'g'risidagi takliflari qabul qilinsin.

Quyidagilar axborot-resurs markazlarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

ta'lim muassasalari o'quvchilari hamda aholining zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda muntazam ta'lim olishi va mustaqil ravishda ta'lim olishiga ko'maklashish;

milliy ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarni keng ko'lamda targ'ib qilish, xalqning madaniy-tarixiy merosidan bahramand bo'lishni ta'minlash, ma'naviy boy va uyg'un kamol topgan shaxsning ijodiy o'sishi uchun imkoniyat yaratib berish;

yangi axborot texnologiyalari (ma'lumotlar elektron bazalari, internet resurslari) asosida aholiga axborot xizmati ko'rsatish;

madaniy, ta'lim, axborot hamda boshqa dastur va loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ta'lim muassasalari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, milliy madaniyat markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Axborot-kutubxona markazlari zimmasiga:

aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, uning ilmiy, ta'lim, axborot va madaniyat sohasidagi qiziqishlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tezkorlik bilan qondirish;

kitobxonlarga an'anaviy kutubxona xizmati ko'rsatishdan o'z axborot resurslarini yaratish va jahon ilmiy-ta'lim axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini berish yo'li bilan axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishga o'tishni ta'minlash;

universal axborot resurslari, milliy va xorijiy nashrlar (bosma, audiovizual, elektron va boshqa) fondlarni shakllantirish, saqlash va foydalanish uchun berish;

yig'ma elektron katalog yordamida axborot resurslarini birlashtiruvchi elektron kutubxonalar va ma'lumot bazalarini yaratish;

joylarda axborotlashtirish va kutubxonachilik ishi sohasidagi axborot-resurs markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda tashkiliy-metodik jihatdan ta'minlash vazifasi yuklansin.

Belgilansinki, axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari faoliyatini moliyalashtirish davlat budjeti mablag'lari va homiylarning mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi bilan birgalikda 2007-yilning yanvaridan boshlab axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlarida elektron kutubxonalarni tashkil qilgan hamda ilg'or axborot texnologiyalarini tadbiq etgan holda ushbu markazlarni kompyuterlashtirish uchun zarur mablag'lar ajratilishini nazarda tutsin.

Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari axborot-resurs markazlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga ko'maklashishni ta'minlasin.

Axborot –resurs markazidan foydalanish qoidalari

Axborot- resurs markazi (ARM) faoliyati demokratiya insonparvarlik, umumiy foydalanishga qulaylik, umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi, fuqarolik shaxsining erkin kamol topishi prinsiplariga asoslanadi.

ARMdan foydalanish bepul, ARM tomonidan ko'rsatiladigan pullik xizmatlarning ayrim turlari ro'yxati, ular uchun to'lanadigan haq miqdori qonun hujjatlarida belgilanadi.

ARM ning asosiy vazifalari

Universal axborot resurslarini, milliy va chet el nashrlari (bosma, audiovizual, elektron nashrlar va boshqalar) fondini shakllantirish, saqlash va berish.

Foydalanuvchilarga ARMda hamda mintaqaning axborot-kutubxona markazi (AKM) dagi hujjatlar va boshqa materiallarni olish imkoniyatini yaratish.

Foydalanuvchilarning huquq va

majburiyatlari

ARMdan foydalanish huquqi mazkur ARM xizmat ko'rsatadigan hududda yashaydigan, fuqaroligi yoshi, ijtimoiy va boshqa jihatdan mansubligidan qat'iy nazar, barcha aholiga, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga beriladi. Ushbu huquq axborot resurslari bilan to'ldirishning, axborot resurslari bilan to'ldirishning, axborotlarni, shu jumladan kutubxonalararo aboniment tizimi orqali berish, shuningdek kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishning boshqa shakllari bilan ta'minlanadi.

Foydalanuvchilar quyidagi huquqlarga ega

ARM fondidan istalgan hujjatlarni vaqtincha foydalanish uchun olish, shuningdek mintaqaning AKM dan va boshqa kutubxonalardan hujjatlarning bosma yoki elektron nusxalarini hujjatlarni elektron vositasida etkazib berish tizimi orqali buyurtma qilish va olish;

Bibliografik, ma'lumotnoma-axborot xizmatidan hamda ARM tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning boshqa turlaridan foydalanish;

ARM tomonidan o'tkaziladigan axborot-ommaviy tadbirlarda qatnashish;

ARM ning jamoat kengashiga saylash va saylanish.

Foydalanuvchilar ARMga a'zo bo'lish uchun tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomani, pasportini yoki uning o'rnini bosadigan xujjatni, zarur miqdordagi fotosuratlarini taqdim etadilar hamda kitobxon biletini va ro'yxatdan o'tkazish varaqasini rasmiylashtirish uchun ma'lumotlar beradilar.

Boshqa shaharlik fuqarolar vaqtinchalik kitobxon biletini pasportini yoki uning o'rnini bosadigan hujjatni ko'rsatgan holda oladilar. Boshqa mamlakat fuqarolari biletini o'z mamlakati pasporti yoki belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjat asosida oladilar.

3.4 Foydalanuvchilarga bir yula foydalanish uchun beriladigan hujjatlar soni ARM tomonidan yakka xolda tartibga solinadi.

Noyob va qimmatli nashrlar hamda hujjatlar, shuningdek e'lon qilinmagan materiallar foydalanuvchilarga belgilangan tartibda beriladi.

3.5. ARM fondlarida zarur hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda foydalanuvchilar ularga nusxalarini mintaqaning AKM dan olishi mumkin.

3.6. Foydalanuvchilar ARM dan olingan hujjatlarni va boshqa materiallarni ehtiyot qilishi shart.

Foydalanuvchi hujjatlar va materiallarni olishda ularni ko'zdan kechirishi va ularda biron-bir nuqson borligi aniqlanganda bu to'g'rida ARM xodimiga ma'lum qilishi kerak.

3.7. ARM fondiga zarar etkazgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq moddiy, jinoiy yoki boshqacha tarzda javob beradilar.

3.8. ARM fondidan olingan hujjatlar va materiallarni yo'qotgan yoxud ularga tiklab bo'lmaydigan darajada ziyon etkazgan foydalanuvchilar ularni tegishli ravishda huddi shunday yoki ARM xodimlari tomonidan teng qimmatli deb e'tirof etilgan (shu jumladan nushalari bilan) hujjatlar va materiallar bilan almashtirishi, almashtirish mumkin bo'lmagan taqdirda ularning qiymatini bir necha baravar miqdorda to'lashi shart. Qiymatining necha baravar miqdorda to'lanishi ARM mutaxassislari yoki jalb etilgan mutaxassislar tomonidan, yo'qotilgan yoki yaroqsizlantirilgan hujjatning qiymatidan kelib chiqqan holda hamda amaldagi tartibga soluvchi hujjatlarga muvofiq belgilanadi.

3.9. ARM dan foydalanish qoidalarini buzganligi uchun foydalanuvchilar ARM dan foydalanish huquqidan ARM ma'muriyati tomonidan belgilangan muddatga mahrum qilinishi mumkin.

ARM ning foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha majburiyatlari.

ARM fondlaridagi hujjatlar va materiallarni ularning saqlanishini ta'minlovchi belgilangan qoidalarga muvofiq hisobga olish, saqlash va foydalanishni amalga oshirish; ma'lumotnoma-bibliografik apparatni, shu jumladan elektron katalogni yuritish; tavsiyanoma tusidagi bibliografik qo'llanmalarni ishlab chiqish.

ARM quyidagilarga majbur:

-foydalanuvchilarni ARM dagi va undan tashqaridagi barcha axborot resurslaridan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlash;

-foydalanuvchilarning ehtiyojlarini o'rganish va eng to'liq qondirish;

-kutubxona, bibliografik, ma'lumotnoma-axborot xizmati ko'rsatishni takomillashtirish, ushbu maqsadlarga foydalanuvchilar bilan yakka tartibda va guruhlar bo'yicha ish olib borishning turli shakllaridan foydalanish;

-foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishda yuksak madaniyat va malakalilikni ta'minlash, zarur hujjatlar va materiallarni qidirib topish va olishda zarur yordam ko'rsatish;

-foydalanuvchilarning qiziqishlarga va axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish asosida turli manbalardagi axborot resurslarini bergan holda tabaqalashtirilgan kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish va mustaqil ravishda ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashish;

-fondlarda zarur hujjatlar va materiallar mavjud bo'lgan taqdirda ularni qidirib topish ishlariniamalga oshirish hamda ularni kutubxonalararo abonement, shu jumladan halqaro abonement tizimi orqali taqdim etish;

-ommaviy tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazish; -ARM ning ijobiy nufuzini yaratishga ko'maklashish, ARM fondlarini va uning tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni reklama qilish, foydalanuvchilarning ehtiyojlarini o'rganish hamda ularning talablariga muvofiq yangi xizmatlarni tashkil etish.

Nazorat savollari

1. Axborot-resurs markazi (kutubxona) faoliyatini takomillashtirishga tegishli amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar xaqida nimalarni bilasiz?
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi vakolatlari xaqida nimalarni bilasiz?
3. Axborot-resurs markazi ish amaliyoti xaqida nimalarni bilasiz?

4. Aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishning sifat jihatdan yangi tizimini yaratish xaqida nimalarni bilasiz?

5-mavzu: Kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishning xalqaro miqyosdagi va mamlakatimizdagi huquqiy meyoriy asoslari.

Reja:

1. Kutubxona jamiyatning tarkibiy qismi va uning faoliyati.
2. Kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishning xalqaro miqyosdagi va mamlakatimizdagi huquqiy meyoriy asoslari.
3. Axborot almashuvining kuchayishi, internet vositalarining kuchayishi oqibatida axborot makoni kengayib bir butun jahon axborot makoni shakllanishi.

Tayanch so'z va iboralar.

Kutubxona jamiyatning tarkibiy qismi va uning faoliyati. Kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishning xalqaro miqyosdagi va mamlakatimizdagi huquqiy meyoriy asoslari. Axborot almashuvining kuchayishi, internet vositalarining kuchayishi oqibatida axborot makoni kengayib bir butun jahon axborot makoni shakllanishi.

Insoniyat tarixi kurashlardan, aql va ma'rifatning rivojidan, uning nodonlik ustidan g'alabasidan, yaxshilik va yomonlikning kurashidan iborat. Insoniyat doimo muntazam taraqqiyot yo'lidan borgan. Inson tafakkurini o'zida aks ettirib, saqlab kelayotgan ijtimoiy xotira shu taraqqiyot negizini tashkil etadi. Ijtimoiy xotira insoniyat taraqqiyotining hamma davrlarida biron-bir axborotni yoki ma'lumotni qayerdadir qayd etish, ro'yxatga olish, saqlash, qayta ishlov berish, kimgadir, avloddan avlodga yetkazishning o'sha davrga xos shakllaridan iborat bo'lgan. Bu shakllar ma'lum bir sifatga, qiyofaga yoki vositalarga ega bo'lgan. Jamiyatlar taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida tilning paydo bo'lishi dastlabki tajribalarni o'zlashtirib, tahlil qilib, mehnat qurollarini takomillashtirish, ulardan foydalanish jarayonlarida ko'zga tashlangan. Eng muhim belgilar tuzilmasidan iborat yozuvning paydo bo'lishi esa fikrlarni uzoq vaqt davomida saqlab qolish, bir kishidan ikkinchi kishiga yetkazish, avloddan avlodga yetkazish imkonini kengaytirdi. Avval xalq og'zaki ijodi ko'rinishida, keyinchalik yozma shaklda paydo bo'lgan ma'lumotlar almashinuvi og'zaki va yozma adabiyotning paydo bo'lishiga olib keldi. Natijada, avval og'zaki ko'rinishdagi matnlar yozma shaklga aylandi.

Insoniyat tomonidan yaratilgan ikkinchi kashfiyot – kitob yuzaga keldi va hamma bilim sohasida adabiyotning mavjudlik shakllariga aylandi. Davrlar davomida kitobning shakl-shamoyili, sifati, bezatilishi, tashqi ko'rinishi, ishlab chiqarilishi takomillashib bordi. Antik davrda o'rama kitoblar shakllangan bo'lsa, keyinchalik eramizning IV asriga kelib, muqovaga ega qo'lyozma kitoblar paydo bo'ldi. XV asrga kelib esa qo'lyozmalarni qo'lda ko'chirib yozishdan kitob chop etishga o'tildi. XX asr oxiriga kelib esa ilg'or mamlakatlarda elektron shakldagi kitoblar yuzaga keldi. Ammo har qanday shaklda bo'lmasin, kitobning mohiyati o'zgarmaydi. Qo'lyozma hoida ham, matbaa hoida va elektron shaklda ham kitob o'zining tub mohiyatini, ahamiyatini yo'qotmaydi, uning o'rnini boshqa narsa egallay olmaydi.

Kitob insoniyat va jamiyat madaniyatining ajralmas bir qismi bo'lib, insoniyat taraqqiyotining hamma davrlarida kishilarni tarbiyalash, ularning aqliy rivojlanish vositasi bo'lib keldi. Kitob barcha sohaga oid bilimlarni to'plash, saqlash usuli sifatida ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishda, barcha formatsiyalarning almashinuvida va taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Inson tafakkurining rivojlanishida kitob va yozuv doimo hamroh bo'lgan. Ba'zi madaniyat va ma'rifat shakllari og'zaki aloqa munosabatlariga asoslangan bo'lsa-da, yozuv paydo bo'lgandan so'nggina hozirgi kungacha yetib keldi va voqelikka aylandi.

Insoniyat yaratgan muomala vositalari ichida eng ishonchlisi, eng qulayi kitobdir. Barkamol inson tarbiyasi, odamlar ma'naviyati, madaniyati, odob-axloqi, bilim saviyasi, jamiyatda o'ziga xos o'rinni egallashi faqat kitobdan olgan bilimiga bog'liq, chunki u inson aql-zakovati va bilimlarini saqlash hamda keng yoyishning eng mukammal qurolidir. Kitob

kishilarga insoniyat erishgan yutuqlarni bilish imkonini beradi, xalqlar o'rtasidagi munosabatni, hamjihatlikni, o'zaro mehr-oqibatni tiklaydi. Dunyoda tinchlikni o'rnatishga, mustahkamlashga xizmat qiladi.

Insoniyat yaratgan yozuvlar, kitoblar bo'lmaganda odamzod o'zining o'tmishini, bilim, donolik va hikmatlarini ham bilmagan, ilm-fanni ham taraqqiy ettira olmagan bo'lardi. Jami ixtirolar, kashfiyotlar, taraqqiyot darajasi ham kitoblar tufaylidir. "Kitob har qanday bilimning joni va yuragi, har qanday fanning ibtidosidir", degan edi nemis yozuvchisi S. Sveyg. Kitoblar barcha zamonlar uchun eng zarur narsa, qalblar malhami, bilimlar xazinasi, donishmandlik chashmasi bo'lgan va bo'lib qolaveradi.

Kitoblar tufayli qadim davrlardagi kutubxonalar, ulardagi fondning mazmuni, katalog va kartotekalar tizimi, kutubxona xizmati ko'rsatishning sifati haqidagi ma'lumotlarni bilish bilan o'sha davr kishilarining qiziqishlari, intilishlari, hayot darajasi haqida ma'lumotga ega bo'lamiz. Eramizdan avvalgi asrlarda kutubxonalarning sopol taxtachalarda bitilgan qo'lyozma boyliklari Ossuriya-Bobil madaniyatini tushunishga yo'l ochib berdi. Boshqa topilmalar kabi Mesopotamiyaning qadimgi madaniyati tarixini, uning yozuvi, saroy, cherkov va boshqa kutubxonalari sirlarini ochishga yordam qildi. Ular sababli bizgacha yetib kelgan juda ko'p turk, fors, arab tillaridagi qo'lyozma kitoblar, tarixiy shaxslar haqidagi adabiy manbalar jonli guvohligida O'rta Osiyoning qadimgi sulolaviy kitob fondlari, masjid va madrasalarning kutubxonalari, shaxsiy kitob to'plamlari bo'lganligidan xabardor bo'lamiz.

Somoniylar, xorazmshohlar, qoraxoniylar va mo'g'ullarning O'rta Osiyoga bostirib kirgan davrida saljuqiylar davlatidagi juda boy kitob xazinalari, Shahrisabz, Samarqand va Hirotdagi Temur va temuriylar kutubxonasi, Buxoroda shayboniylar va ashtarxoniylar kutubxonasi, Qo'qon, Xiva va Buxoro xonliklari kutubxonalari musulmon olamiga mashhur bo'lganligini bilib olamiz.

Yozma axborot manbalari bo'lgan kitob, gazeta, jurnal va boshqalar jamiyat taraqqiyotini, ma'naviy, ijtimoiy-maishiy talabehtiyotlarini to'la qondirishga qaratilgan va butun insoniyat taraqqiyoti davomida shu vazifani ham bajarib kelgan. Yozma hujjatlar kishilarning o'zaro fikr almashuv imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa, kutubxonalar yozma asarlar umrini uzaytirish vositasi hisoblangan. Boshqa ijtimoiy muassasalar kabi kutubxonalar ham jamiyatning eng zaruriy ehtiyojlari asosida vujudga keldi va turli davrlarda turlicha shaklda rivojlanib keldi. Buning sababi, ma'lumotlarni qayd qilish, uzatish vositasi sifatida ijtimoiy talabga javob beradigan yozuvning paydo bo'lishi bilan o'z-o'zidan tabiiy holda ana shu yozuvlarni saqlay oladigan muassasalarni vujudga keltirishga ehtiyoj paydo bo'lgan edi. Shu tufayli ham kutubxonalar avval-boshdanoq jamiyatning mo'tadil mavjudligini ta'minlaydigan ajralmas qismi hisoblangan.

Kutubxona – kitoblar va kishilik jamiyati tarixi yig'indisi bo'lgani uchun insonparvar muassasadir. Bunda insoniyat erishgan barcha ilmlar, turli fan sohalari bo'yicha shaklidan, xilidan, turidan, tilidan qat'i nazar, adabiyotlar to'plangan. Kutubxonalar zulmatga, nodonlikka, jaholatga qarshi kurashda faol bo'lgan, kishilar qalbiga ezgulik, yaxshilik, sahovat, sadoqat, mehr-muhabbat, oqibat urug'larini singdirgan. U insoniyat butun borlig'ining buyuk hujjatlashgan guvohi sifatida yashab kelmoqda. Unga zarurat sezgan har bir kishi bimalol foydalana olishi va, o'z navbatida, kutubxonalar shu maqsadda hammabop bo'lishi kerak. Bora-bora madaniyatning takomillashuvi ijtimoiy va moddiy madaniyat taraqqiyotining tarixan rivojlanishiga asos bo'lib, kutubxonalar, kitob fondi, ularni tashkil etish va boshqarishning, kitobxonlarga xizmat ko'rsatishning muhim omiliga aylanib qoldi.

Qadimgi davrlardagi Shumer va Nineviya sopol taxtachalaridagi yozuvlardan Misrdagi papirus o'rama kitoblarigacha, o'rta asrdagi masjid va madrasalardagi taqchil qo'lyozmalardan to dastlabki maktablar uchun yaratilgan darsliklargacha bo'lgan hamma davrda kutubxonalar ko'plab tarixiy o'zgarishlarni boshidan kechirdi va o'sha davr jamiyat talablariga, taraqqiyotiga javob berib keldi. Har bir jamiyatning g'oyalari, yangiliklari, oliy maqsadlari kutubxonalarning rivojlanishiga, mazmun-mohiyatiga ta'sir etdi. Shu tufayli, kutubxonalarning jamiyatda tutgan o'rni, maqsad va vazifalari shunga qarab o'zgarib, rivojlanib bordi. Hamon kutubxonalar jamiyat

ma'naviy kamolotining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. Zero, ma'naviyat kitoblar, axborot resurslarining boshqa turlari orqali shakllanadi. Buni jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida ko'rish mumkin. Shuning uchun kutubxonalarining ijtimoiy roli aniq tarixiy sharoitda namoyon bo'ladi. Kutubxonachilik ishi hech qachon makondan va zamondan tashqarida mustaqil rivojlana olmaydi, jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlariga bo'ysunadi. Kutubxonalar ijtimoiy hodisa sifatida o'zi ishlab turgan ijtimoiy muhit doirasiga bog'liq ravishda shakllanishi buyuk haqiqatdir. Jamiyat kutubxonaning vasiysi bo'lgani uchun ham kutubxonalar jamiyat oldida o'z faoliyatiga javobgardir va uning ehtiyojiga javob berishi shart, ya'ni jamiyat a'zolarining axborotga bo'lgan talabini to'la va sifatli qondirishi axloqiy, ma'naviy, ijtimoiy qoidalar darajasiga ko'tarildi.

1892–1972-yillarda yashab ijod etgan hindistonlik kutubxonashunos olim Sh. R. Ranganatanning kutubxonachilik ishining besh qoidasi hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bular:

kitoblar o'qish uchun xizmat qiladi;
har bir kitobning o'z kitobxoni bo'lsin;
har bir kitobxonning o'z kitobi bo'lsin;
kitobxonlar vaqtini asra;
kutubxona o'sayotgan organizmdir.

Bunday fikrlar juda ko'p va ulardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kitob ma'naviy kamolotning mahsuli, ma'lum bir bosqich yakunidir. Kitob o'qish esa, o'sib borayotgan ma'naviy ehtiyojni qondirish yo'li, ma'naviyatni boyitish vositasi, ma'naviy kamolot kalitidir. Professor O. G. Qosimova va T. B. Yesimovning 1994-yil nashr qilingan “Umumiy kutubxonashunoslik” darsligida O'zbekistonda “Kutubxonashunoslik” fanining rivojlanish bosqichlari 4 davrga bo'lib ko'rsatilgan. Agar shunga amal qiladigan bo'lsak, hozirgi kunda bu davrlar to'rtta bo'ladi:

1918–1945-yillar;
1946–1974-yillar;
1975–1990-yillar;
1991-yildan keyingi davr.

Bunday bo'linishlar kutubxonachilik ishidagi rivojlanish xususiyatlari va sohaga oid amalga oshirilgan ilmiy-amaliy ishlar ko'lamiga bog'liq. Birinchi bosqichda kutubxonashunoslik masalalariga oid atigi 14 ta material e'lon qilingan bo'lsa, 1976–1987-yillarda birgina Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan chiqarilgan “O'zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixi” to'plamida kutubxonachilik ishining turli yo'nalishlari bo'yicha 131 ta maqola e'lon qilingan. 4-bosqichda esa kutubxonashunoslik masalalariga oid o'quv qo'llanmalari, darsliklar, har ikki yilda an'anaviy tarzda O'zbekiston hududida o'tkazilib kelinayotgan “Central Asia” Xalqaro anjumani, boshqa xalqaro anjumanlar to'plamlarida, xalqaro seminarlar, an'anaviy tarzda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida o'tkazilayotgan Betgerxonlik kunlari to'plamlarida, Respublika bolalar kutubxonasi tomonidan yilda bir marta nashr etiladigan “XXI asrda bolalar kitobxonligi” Respublika seminari to'plamida, “KUTUBXONA-UZ” oylik jurnali va “Kitob dunyosi” gazetasi sahifalarida muntazam maqolalar berib borilmoqda. Shu davrda sohaga oid birinchi marta qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida”gi Qonuni, 2006-yil 20-iyunda qabul qilingan Prezidentimizning “Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida”gi, 2011-yil 23-fevraldagi “2011–2015-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari negizida axborot-kutubxona va axborot-resurs xizmatini yanada sifatli takomillashtirishning chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarorlari, 2012-yil 20-martda qabul qilgan “Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi axborot-resurs markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarorning o'ziyoq bu davrning o'ziga xos xususiyatlarini va ahamiyatini ko'rsatadi.

O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanining birinchi bosqichi asosan fanning shakllanish davri deb hisoblanadi. Bu bosqichda Turkiston Respublikasida kutubxonalar tarmog'ini barpo

qilish, kutubxonachilik ishining tashkiliy va funksional jihatlarini asoslash, uning nazariy va amaliy asoslarini yaratish, turli xil kutubxonachilik ishiga oid konferensiyalar, kengashlar, qurultoylarni chaqirish, kutubxonachilik ishiga rahbarlik qilish organlarini tashkil etish bilan bog‘liq ishlar bajarildi. Bu ishlarni amalga oshirish o‘sha paytdagi Turkiston xalq kutubxonasi (hozirgi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi) faoliyati bilan bog‘liq. Chunki aynan shu kutubxonada o‘sha davrning eng yetuk kutubxonachi-bibliograflari, dastlabki kutubxonashunos, sharqshunos olimlar, madaniyat arboblari to‘plangan edi.

O‘zbekistonda “Kutubxonashunoslik” fanining shakllanishi va rivojlanishi Yevgeniy Karlovich Betger nomi bilan bog‘liq. Y. K. Betger 1887-yil 30-iyunda Toshkent shahrida tug‘ilib, 1905-yili Toshkent erkaklar gimnaziyasini, keyin Moskva, Gendelberg, Kiyev universitetlarini tugatgan. 1920–1924-yillari O‘rta Osiyo davlat universitetining sharq fakultetini tugatadi va sharq tillari bo‘yicha yetuk mutaxassis bo‘lib yetishadi.

1914-yilda juda keng bilimga, ayniqsa, rus tilshunosligi bo‘yicha yetuk bilimga ega bo‘lgan Y. K. Betger Toshkent erkaklar gimnaziyasida rus tili va adabiyotidan o‘qituvchilik faoliyatini boshlaydi. 1915-yildan uning kutubxonachilik ishi bilan bog‘liq hayoti boshlanadi. Avval u Rus geografik jamiyatining Turkiston bo‘limida ham uning a‘zosi, ham kutubxonachi lavozimida ishlaydi. 1915-yil u bir ovozdan kutubxona mudiri lavozimiga saylanadi. A. V. Penkov bilan kitoblarni joylashtirish ishini tugatib, kartochnali va predmet katalogini tuzishga kirishadi. Olimlar yordamida fondni kengaytirishga harakat qiladi. Fond, ayniqsa, o‘lkashunoslik xarakteridagi adabiyotlar bilan boyiydi. Y. K. Betger kutubxona fondini targ‘ib qilish ishini jonlantirdi, shu yo‘nalishda bibliografiya ishini tashkil qiladi. A. V. Penkov bilan birgalikda “1912-yil 1-oktabrdan to 1914-yil 1-yanvargacha bo‘lgan davrda turkistonshunoslikka oid kitoblar va maqolalarning bibliografik ko‘rsatkichi”ni va 1914–1915-yillar uchun ko‘rsatkichini tuzadi.

1917-yili u Turkiston ommaviy kutubxonasining Kuzatish qo‘mitasi tarkibiga ishga olinadi. Bu yerda u asosan kitob fondini saqlash va uni targ‘ib qilish masalalari bilan shug‘ullanadi. Rahbarlik qobiliyatiga ega bo‘lganligi sababli, 1918-yil Turkiston xalq kutubxonasini qayta tashkil etish komissiyasi ishiga jalb etiladi, bir vaqtning o‘zida Xalq komissariati qoshidagi kutubxonachilik bo‘limini boshqara boshlaydi. Uning tashabbusi bilan Toshkentda kutubxona xodimlarini tayyorlash kurslari tashkil etiladi. Bolalar, maxsus va milliy kutubxonalar tashkil etila boshlaydi. Boshqa mutaxassislar bilan birgalikda ilmiy va akademik kutubxonalarning Markaziy O‘rta Osiyo birlashmasini boshqaradi. Markaziy bibliografik komissiya ishiga rahbarlik qilib, kataloglashtirish bo‘yicha mas‘ul xodim, o‘nli tizim bo‘yicha yirik mutaxassis va indeksator sifatida o‘lka bo‘yicha kutubxonalar rahbarligiga tayinlanadi. 1922–1931-yillar ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, ilmiy kotib, 1947-yilgacha bo‘lim mudiri lavozimlarida faoliyat yuritadi. 1943-yil “A. I. Butakov kundaliklari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

1920-yillardayoq Y. K. Betger kutubxonalar ishini tashkil etishdagi asosiy jihatlarga e‘tiborini qaratadi. Bular: hisobotlarni tuzishda bir xillikka erishish, kutubxona fondi va kutubxona ma‘lumot apparatini tashkil etish, katalog va kartotekalarni tuzish, kitob fondini saqlash, klassifikatsiya qilish va o‘nli klassifikatsiya asosida tavsiflash. 1918-yili L. K. Davidov, A. A. Metelnikov bilan birga 1-marta “O‘nli bibliografik klassifikatsiya”ni nashr ettiradi. Y. K. Betger bu ishni 1922-yili takomillashtirib qayta nashr ettirdi, unga so‘zboshi, uslubiy ko‘rsatma, foydalanish qoidalarini qo‘shadi. Betger kutubxonalar hisobotini va uning tarkibiy qismlarini belgilab beradi, unda kutubxonaning tuzilishi va kutubxona bo‘limlarida ishni tashkil etish haqidagi masalalami yoritishni talab qiladi. Bo‘limlar ishini qulay va to‘g‘ri tashkil etish kitobxonlarga ilmiy xizmat ko‘rsatishning mezoni ekanligini ta‘kidlaydi. Uni takomillashtirishda kutubxona xodimining o‘rni beqiyosligini, buning uchun undan professional bilim, aql-zakovat, mahorat talab etilishini, kutubxonaning moliyaviy ahvoli, uning smetasini tuzish hamda tahlil qilib turish kutubxona faoliyatini rivojlantirishda, takomillashtirishda muhim ekanligini, kutubxonaning moddiytexnik bazasini mustahkamlashning kutubxona oldida turgan vazifalarni hamda aholiga kutubxona xizmati ko‘rsatishni yaxshilashning asosiy omili ekanligini ko‘rsatadi.

O'rta Osiyo davlat kutubxonasi (hozirgi Milliy kutubxona)ning Y. K. Betger tomonidan tuzilgan yillik hisobotlarida qiyosiy tahlil usuli qo'llanilgan bo'lib, bu bilan kutubxonaning ijtimoiy roli yildan yilga oshib borganligi, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rish mumkin. Y. K. Betger bibliografik faoliyatga, ayniqsa, o'lkashunoslik bibliografiyasiga katta e'tibor beradi. Nashr etilmay qolib ketgan bo'lsa ham, u juda ko'plab o'lkashunoslik xarakteridagi bibliografik ko'rsatkichlarni tuzadi. Arab, fors va boshqa sharq tillarini mukammal bilgan mutaxassis sifatida hozirgi Sharqshunoslik instituti faoliyatida ham ishtirok etadi.

1947–49-yillarda sharq qo'lyozmalarini tavsiflash ishida, 1952-yil tuzilgan "O'zFA sharq qo'lyozmalari katalogi"ning 1-jildini tuzishda qatnashadi. Nizomiy, Sa'diy, Navoiy, Ogahiy asarlarini tarjima qiladi. 1953-yili uzoq yillik samarali mehnatlari uchun "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan kutubxonachi" unvoni bilan taqdirlanadi.

A. P. Arxangelskiy va Stenmaxiar esa kutubxona budjeti, kitob fondining o'sib borishi kutubxonachilik ishining taraqqiyotini belgilab beradigan omil bo'libgina qolmay, balki kutubxonaning ijtimoiy rolini ham ko'rsatib beradi deb ta'kidlashgan. Buni yana kitobning ommaga yetkazib berilishiga, kutubxona ishi mazmunining o'zgarishiga bog'liq bo'lib, yangi tipdagi kutubxonalar avvalgi kutubxonalardan siyosiy va madaniy masalalarni ilgari surishi bilan ajralib turishi zarur degan g'oyani ilgari surishgan. Ushbu g'oyani rivojlantirib, kutubxonalarining muhim vazifalaridan biri kutubxonaga zarurati, ehtiyoji katta bo'lgan uy bekalari, uy xizmatkorlari, kosiblami va boshqalami jalb qilish zarurligini aytganlar. Kutubxonaning tarbiyaviy rolini oshirish uchun kutubxonachilik ishi sifatini yaxshilash, kitobxonlarga tabaqalashtirilgan (differensial) xizmat ko'rsatish zarurligini ko'rsatdilar.

O. V. Maslova va M. N. Latipovalarning 1931-yil nashr etilgan "Alifbo katalogi" amaliy qo'llanmasida asarlarni tavsiflashda qo'llaniladigan ruscha-o'zbekcha qisqartirilgan so'zlar lug'ati va boshqalar o'zbek tilida nashr qilingan kitoblar asosida ishlab chiqiladi.

Olga Vasilevna Maslova yirik kutubxonashunos-bibliograf, Respublikada xizmat ko'rsatgan kutubxonachi, tarix fanlari nomzodi, xalqimiz ma'naviy merosining faol targ'ibotchisi 1893-yil 11-sentabrda Toshkentda harbiy xizmatchi oilasida tug'ilgan. Faoliyati davomida ma'lumot-bibliografiya apparatini, tarix, geografiya, geologiya, gidrologiya, biologiya, O'rta Osiyo xalqlari madaniyatiga oid bibliografik ishlarni tuzadi. Bibliografik tavsif, annotatsiya va sharhlarni tuzish metodikasiga alohida e'tibor qaratadi.

Kutubxonashunoslik fani taraqqiyotining birinchi bosqichi kutubxonachilik nazariyasining tashkiliy masalalari bilan bog'liq bo'lib, ular 1921-yil noyabr oyida Markaziy idoralararo kutubxonachilik komissiyasining barpo qilinishi, 1923-yil Toshkent shahrida kutubxona birlashmalarining tashkil etilishi, turli kutubxonachilik kengashlari, konferensiyalar, seminarlar, qurultoylarning chaqirilishi, respublikadagi ayrim kutubxonalar faoliyatini tekshirish, kutubxona shoxobchalarini rivojlantirish rejalarining tuzilishi, yetakchi kutubxonalarining ilg'or ish tajribalarini o'rganish, targ'ib qilish, ommalashtirish va boshqa ishlar amalga oshirildi.

O'sha davrda kutubxonashunoslar tomonidan ba'zi bir muammolar o'rganilgan va rivojlantirilgan. Bular:

kutubxonachilik ishi tarixi va nazariy asoslarining umumlashtirilishi (O'zbekiston davlat kutubxonasi asarlarining nashr qilinishi va ilmiy sessiyalarning o'tkazilishi);

O'zbekiston davlat kutubxonasining ilmiy hisobotlarini tuzish va faoliyatini tahlil qilish;

kutubxonachilik xizmati ko'rsatishning ahvoli va kutubxona fondini to'ldirish muammolarini o'rganish;

kutubxona shoxobchalari va tarmoqlarini tashkil qilish;

tavsiflash metodlari va alifbo katalogini tashkil qilishning nazariy asoslarini ishlab chiqish hamda o'zbek tilidagi kutubxonachilik atamalari muammolarini tadqiq etish;

turli xil nazariy qarashlar (tanqidiy, munozarali), aniq namoyon bo'lgan o'nli bibliografik klassifikatsiya jadvali nazariy va amaliy asoslarining ishlab chiqilishi.

O'zbekistonda kutubxonachilik fani rivojlanishining ikkinchi bosqichi birinchi bosqichdan farqli ravishda sohada mahalliy millat vakillarining ko'payishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda kutubxonachilik ishining umumiy masalalaridan tortib, alohida kutubxonalar faoliyati,

kutubxona tarmoqlari, kutubxonalar ishining ayrim yo'nalishlari, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, kutubxona fondiga oid muammolar, kutubxonalar ishini tashkil qilish, kutubxonalarda ilg'or tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va targ'ib qilish, boshqa kutubxonalar amaliyotiga joriy etish, kutubxonalar ish tajribalarini ommalashtirish va targ'ib qilish maqsadida to'plamlar nashr qilish, lug'atlar, ma'lumotnomalar tuzish, ma'lum mavzularda dissertatsiyalar yaratish masalalari asosiy o'rinda turdi.

1940-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab matbuotda O'zbekistonda kutubxonachilik ishi, uning tashkil etilishi, tarmoqlarning rivojlanishi, A. Navoiy nomidagi davlat kutubxonasining faoliyati, tashkiliy-metodik ishlariga oid materiallar paydo bo'la boshlaydi.

1950-yillar o'rtalariga kelib, jamoa xo'jaliklari kutubxonalari ishi keng o'rganiladi va ular matbuotda yoritila boshlanadi. O'tgan asrning 60-yillariga kelib, qishloq va sho'ro xo'jaligi kutubxonalarining faoliyati, taraqqiyoti bo'yicha materiallar paydo bo'ldi. Markaziy ilmiy qishloq xo'jaligi kutubxonasi faoliyati, qishloq va sho'ro xo'jaligi kutubxonalari faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari yoritila boshlandi.

1950-yillardan bolalar kutubxonalari xodimlarining bolalarga kutubxona xizmati ko'rsatish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish, bolalar o'qishiga rahbarlik qilish, bolalar bilan ishlash masalalarini yoritadilar. O'tgan asrning 60-yillari boshlariga kelib, ochiq kitob fondlarini tashkil etish masalasi oldingi o'ringa chiqdi. 1960-yilda Farg'ona va Buxoro viloyatida tuman kutubxonalarining ochiq kitob fondi sharoitida kitobxonlarga xizmat ko'rsatish tajribasi o'rganilib, respublika miqyosida bu ilg'or tajribani yoyishga o'tildi.

Dastlab bu masalada Moskva va Sankt-Peterburgda nashr qilingan uslubiy qo'llanmalardan foydalanildi. Shuning uchun milliy tildagi adabiyotlar fondini shakllantirish, kitoblarni joylashtirish usullarini ishlab chiqish, tavsiya bibliografik qo'llanmalarining yetishmasligi, katalog va kartotekalar tizimining takomillashmagani tufayli kutubxona fondi mazmuni to'la ochib berilmasligi, ochiq kitob fondi sharoitida "kutubxonachining bo'lishi shart emas" degan tushunchalarning paydo bo'lishi kutubxonachilik ishini takomillashtirishdagi asosiy to'siqlar bo'lib qoldi.

Shu sababli, O'zbekiston davlat kutubxonasi metodik markaz sifatida ochiq kitob fondi sharoitida kitobxonlar o'qishiga rahbarlik qilish, kutubxona fondini o'rganish va to'ldirish, katalog va bibliografik qo'llanmalardan foydalanish hamda boshqa dolzarb masalalar bo'yicha tajribalarni o'rganish, ommalashtirish, umumlashtirish masalalari bilan shug'ullandi.

Kutubxonachilar uchun viloyat, shahar, tuman kutubxonalarida ochiq kitob fondini tashkil etish, fondni joylashtirish, kutubxonachilarga yordam beradigan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga olgan tavsiya uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish boshlandi. Shu sharoitda o'qishga rahbarlik qilish, kitobxonlar qiziqishini o'rganish, ommaviy, bolalar, kasaba uyushmalari, texnika kutubxonalarida ochiq fondni tashkil etish kabi dolzarb masalalar paydo bo'ldi.

1962–1966-yillarda O'zbekiston davlat kutubxonasi "Har bir kishining mehnati – hammaning baxt-saodati uchun" umumiy sarlavhasi bilan uchta to'plamni nashrdan chiqardi. Birinchi to'plam 1962-yildan nashr etilgan bo'lib, respublika kutubxonalari fondini o'rganish natijasida o'zbek tilidagi adabiyotlar fondining o'zagi (yadro)ni yaratish muammolari, texnika, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarni targ'ib qilish masalalari ana shu qismda ochib berildi. Ikkinchi to'plam esa Farg'ona viloyati kutubxonasida ishchi yoshlarning o'qishiga rahbarlik qilish va o'lkashunoslik ishlari tajribalari asosida to'plangan materiallar asosida 1966-yili nashrdan chiqdi. Uchinchi to'plam ham 1966-yil nashr etilgan bo'lib, unda adabiyotlar targ'iboti, mehnatkash-kitobxonlar orasida ilmiy bUimlami targ'ib qilish, qishloq joylarda va shaharlarda har bir oilaga kitobni yetkazish, ayrim jamoa xo'jaligi kutubxonalarining ishlari to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan. Bu to'plamlar tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, kutubxonachilik ishi tarixini o'rganishda manba bo'lib qoladi.

1972-yili oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari kutubxonalari xodimlarining ish tajribalarini umumlashtirgan dastlabki to'plam nashrdan chiqdi. Bu to'plam uslubiy xarakterda bo'lib, yoshlarga kutubxona-bibliografik xizmati ko'rsatish tajribalarini umumlashtirish maqsadida Toshkent davlat universiteti (hozirgi Milliy universitet) tomonidan nashr etilgan edi. O'sha davr

mutaxassislari to'plamga yuqori baho berishgan va to'plam ko'plab kutubxonalar uchun tajriba almashish, boshqa kutubxonalar tajribasini o'rganib, o'z faoliyatlariga singdirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Bunga o'xshagan to'plam 1974-yilda boshqa nomda nashr etilgan edi.

1958-yilda Qo'qon pedagogika instituti tarkibida kutubxonachilik fakulteti tashkil etiladi va 1960-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika instituti tarkibiga kiritildi. Shundan so'ng mamlakatimizda kadrlar tayyorlash sifati, ko'lami ancha oshdi. Kutubxonashunoslik va bibliografiya fani rivojlana boshladi. Bu esa kutubxonalar tizimining amaliyotiga ham ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, O'zbekistonda tarix fanining taraqqiyotida o'zgarishlar yuz berdi. Alohida kutubxonachilik ishi tarixi hali mustaqil o'rganilmagan bo'lsa-da, ikki yo'nalishda: xalq maorifi tarixi, nashriyotchilik ishi, madaniy-ma'rifiy ishlar tarixi o'rganilganda ma'lum bir ma'noda kutubxonachilik ishi tarixiga ham o'rin berilgan edi.

1959-yil hukumatning "Mamlakatda kutubxonachilik ishining ahvoli va uni yaxshilash choralari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan edi.

1960-70-yillarga kelib, Nizomiy nomidagi TDPI qoshidagi kutubxonashunoslik kafedrasida jamoasi tomonidan kutubxonachilik ishi tarixi o'rganila boshlandi. Ilk feodallar jamiyati davridan 1924-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston kutubxonachiligi tarixi masalasi birinchi marta Osiyo G'afurovna Qosimova tomonidan tadqiq etildi. Natijada, 1965-yilda Toshkent davlat universitetida respublikada birinchi bo'lib kutubxonachilik ishi tarixi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilindi. Bu O. Qosimovanning "O'zbekistonda ommaviy kutubxonalar tarmog'ining rivojlanishi" mavzusidagi ishi edi. Tarixiy materiallar asosida ilk bora Turkiston o'lkasi kutubxonalar tarixi, turli xil ilmiy jamiyatlar kutubxonalar faoliyati, nolegal kutubxonalar, Turkiston ommaviy kutubxonasi, unda tashkil topgan Kutubxonachilik komissiyasining tashkil topishidan to 1924-yilgacha bo'lgan faoliyat yoritildi.

Inqilobdan keyingi davrni o'rganishda davrlashtirish prinsipini qo'llagan holda ommaviy kutubxonalar rivojlanishi, har bir davrda aholiga kutubxonachilik xizmati ko'rsatishning xususiyatlarini ochib bergan.

Ilmiy ishi natijasidan unumli foydalangan O. Qosimova 1968-yilda "O'zbekistonda kutubxonachilik ishi" nomli asarini nashr ettirdi. Bu asarda 1924-yildan 1967-yilgacha bo'lgan davrdagi O'zbekiston kutubxonalar tarixi, istiqboli tanqidiy va tahliliy ravishda ochib beriladi. Kutubxonachilik ishi tarixi muammolari bilan amaliyotchilar ham shug'ullanishgan. A. Navoiy nomidagi O'DK xodimi Y. B. Abramov Leningrad davlat madaniyat instituti bazasida 1967-yili "O'zbekistonda kataloglashtirish nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi" mavzusida dissertatsiyasini himoya qiladi. Ishning birinchi qismida muallif IX asrdan to Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olgunigacha bo'lgan davrda O'zbekiston hududida kataloglashtirish tarixini yoritgan. Asosiy e'tiborini Turkiston Ommaviy kutubxonasi (TOK)ning rus bo'limi katalogi, Turkiston o'lkasidagi shahar, ilmiy, o'quv yurtlari va boshqa kutubxonalar kataloglariga qaratgan. TOKning kataloglashtirish faoliyati va uning rivojida N. V. Dmitrovskiy hamda kutubxonachilik komissiyasining o'rni tarixan o'rganib chiqilib, tadqiq qilingan. Tadqiqotning keyingi qismlarida 1917–1924-yillar Turkiston muxtor respublikasida, 1925–1967-yillarda O'zbekistonda kataloglashtirish jarayonlari va amaliyoti O'zbekiston davlat kutubxonasi misolida yoritilgan. O'DK negizida 1918-yili tashkil topgan kutubxona fondini kataloglashtirish muammolari bilan shug'ullanuvchi maxsus komissiya faoliyati birinchi bor ilmiy jamoatchilikka yetkazildi.

1968-yili ToshDU asosiy kutubxonasi xodimi Aleksandr Ivanovich Kormilitsin "Inqilobdan oldingi Turkistonda kutubxonachilik ishi tarixi" mavzusida ilmiy ishini himoya qiladi. Ishda Turkistonning mahalliy aholi soni ko'p bo'lgan Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlari bo'yicha tadqiqot ishlari yoritilgan.

1969-yillarning birinchi yarmida ilmiy kutubxonalar faoliyati ham tadqiq qilina boshlandi. 1973-yili M. Rahimova ToshDUda "O'zbekiston SSR ilmiy kutubxonalar taraqqiyoti tarixi" (1917–1941-yillar) mavzusida ilmiy ishini himoya qiladi va O'zbekiston davlat kutubxonasi, ToshDUning ilmiy kutubxonasi, A. S. Pushkin nomidagi Samarqand viloyat kutubxonasi, A. Navoiy nomli Samarqand davlat universitetining asosiy kutubxonasi, Abu Ali

ibn Sino nomli Buxoro viloyat kutubxonasi, FA asosiy kutubxonasi, Toshkent davlat tibbiyot instituti kutubxonalari tarixi, respublikada ilmiy kutubxonalar tarmog'ining shakllanishi, oliy o'quv yurtlari kutubxonalari faoliyati va muammolari atroflicha tadqiq qilingan. 1941–1970-yillarda ilmiy kutubxonalar faoliyati tarixini Boqibillo Karimov tadqiq qiladi va “O‘zbekiston SSRda ilmiy kutubxonalar taraqqiyoti” nomi bilan ilmiy ishini himoya qiladi. Unda Respublika ilmiy-texnika kutubxonasi, Respublika hududiy patent fondi kutubxonasi, O‘zbekiston davlat rejani ilmiy-texnika va texnik-iqtisodiy tadqiqotlar ilmiy tekshirish institutining xalq xo‘jaligi mutaxassislariga xizmat ko‘rsatish faoliyati yoritib berilgan.

Mamlakatimiz kutubxonashunoslik fanining rivojlanishini o‘rganishda, tadqiq qilishda yana ma’lumotnoma nashrlar ham alohida ahamiyatga ega. 1964-yili A. Navoiy nomidagi O‘DK tomonidan o‘zbek tilida “O‘zbekistonning yirik kutubxonalari” nomli ma’lumotnoma e’lon qilindi. Unda respublika ahamiyatiga ega bo‘lgan ilmiy kutubxonalar, viloyat, oliy o‘quv yurtlari va kasaba uyushmalari kutubxonalari faoliyati yoritilgan, makoni, joyi, tarixi, qaysi tarmoqqa qarashliligi va vazifalari, tuzilishi, kitob fondi va kitobxonlar miqdori ko‘rsatilgan.

Yana bir ma’lumotnoma “O‘zbekistonning texnika kutubxonalari”dir. Bu O‘rta Osiyo respublikalari bo‘yicha shunday tipdagi birinchi nashr hisoblanadi. Maqsadi O‘zbekiston kutubxonalarining kitob fondini to‘ldirish, kutubxonachilik va axborot ishlarini muvofiqlashtirish. U respublika ilmiy-texnika kutubxonasi, boshqa ilmiy-texnika va texnika kutubxonalari, O‘zbekiston Madaniyat ishlari vazirligining viloyat kutubxonalari, FAning asosiy kutubxonasi, universitetlar va texnika oliy o‘quv yurtlari kutubxonalari haqida ma’lumotlar beradi.

Xulosa o‘rvida 1946–1974-yillarda e’lon qilingan materiallar asosida shuni aytish mumkinki, respublika kutubxonalari faoliyati chuqur ilmiy va tanqidiy jihatdan o‘rganildi va sharhli-axborotli materiallar ko‘paydi, ilg‘or tajribalar o‘rganilib, umumlashtirildi va amaliyotga joriy etildi, kutubxonachilik ishi haqida ilmiy tadqiqotlar ko‘paydi, ma’lumotnoma va lug‘at nashrlari paydo bo‘ldi. A. Navoiy nomli O‘DK mamlakatda kutubxonachilik ishining tashkilotchisi, jonkuyari, ilmiy tadqiqot ishlarini muvofiqlashtiruvchi markazga aylana boshladi. Kutubxonachilik sohasida kadrlar tayyorlashning oliy va maxsus tizimi tarkib topdi. 1974-yilda sobiq Ittifoqda 14-chi bo‘lib Toshkent davlat madaniyat instituti tashkil topdi va uning tarkibida “Kutubxonachilik” fakulteti ish boshladi. Respublikada yagona oliy ma’lumotli kutubxonachibibliograflar tayyorlaydigan oliy o‘quv yurti 2012-yilgacha faoliyat yuritdi, ko‘p yillar mobaynida mamlakatimiz, qo‘shni va xorijiy davlatlar kutubxonalari uchun malakali kadrlar tayyorlab keldi, mamlakatimiz kutubxonachiligi tizimini rivojlantirishga muhim hissa qo‘shdi. 1974-yil kutubxonachilik ishi sohasida markazlashtirilgan tizimni boshlab bergan “Mehnatkashlarni kommunistik ruhda tarbiyalashda va fan-texnika taraqqiyotida kutubxonalarining rolini oshirish to‘g‘risida”gi hukumat qarori qabul qilindi. Bu esa 1975-yildan boshlangan kutubxonashunoslik fanining uchinchi bosqichi rivojida muhim asos bo‘lib qoldi. Bu davrda kutubxonashunoslik fani yangi pog‘onaga ko‘tarildi. Kitob ishi tarixi, kutubxonalar tarmoqlari, kutubxonashunoslik fani va uning umumiy muammolarini hal etish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. O. Qosimovanning o‘zbek va rus tilidagi “O‘zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixi” darsligi kutubxonachilik fakultetida o‘qitila boshlandi.

Bu davrda kutubxonachilik ishi muammolariga oid bitta doktorlik va 7 ta nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. “O‘zbek tilining kutubxonachilik-bibliografik terminshunosligi” (E. Yo‘ldoshev) mavzusida ish boshlanib, u “O‘zbek kitobatchiligi terminologiyasi” nomi bilan doktorlik ishi darajasiga yetdi. Professor Ergash Yo‘ldoshev “O‘zbekistonda bolalarga kutubxonachilik xizmati ko‘rsatilishi: shakllanishi, rivojlanishi va istiqbollari”, M. Rasulov “MKSda ommaviy qishloq xo‘jaligi kasbi mehnatkashlariga xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish”, M. A. Zufarova “Ikki tillilik sharoitida sistematik katalog: tashkil qilish muammolari va takomillashtirish yo‘llari”, V. V. Sadurskaya “Yuqori sinf o‘quvchilarining bilishga oid faolligini shakllantirishda yoshlar kutubxonasi, maktab ishlab chiqarish jamoasining o‘zaro hamkorligi”, M. Mahmudov “Maktab o‘qituvchilariga kutubxona xizmatini ko‘rsatish: hozirgi ahvoli va taraqqiy ettirish yo‘llari” mavzularida tadqiqot ishlarini yakunladilar.

Bu bosqichda O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanini rivojlantirishning asosiy masalalaridan biri ilg'or tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va ommalashtirishdan iborat edi. Shu yo'nalishda 1960-yillardan Alisher Navoiy nomidagi Respublika davlat kutubxonasi (hozirgi O'zbekiston Milliy kutubxonasi) 34 ta maxsus to'plam nashr qiladi, 1976-yildan "O'zbekiston kutubxonalari" nomi bilan davomli nashr chiqadi. Ilmiy to'plam sifatida respublika kutubxonalaridagi amaliy ish tajribalari yoritadigan, tahlil va targ'ib qiladigan nashrga aylanadi. Keyinchalik bu to'plam "O'zbekiston kutubxonashunosligi: kutubxonachilik ishi nazariyasi va amaliyoti bo'yicha maqolalar to'plami" nomi bilan chiqarila boshlandi va kutubxonachilik ishining nazariy va amaliy muammolari bo'yicha umumiy materiallar, uning ayrim yo'nalishlariga bag'ishlangan risolalar o'z aksini topdi.

Bu nashr respublikada kutubxonachilik ishi tarixi, nazariyasi, amaliyoti va istiqboli masalalarini yoritadigan, ishlab chiqadigan, barcha kutubxona tarmoqlari o'rtasida ilg'or tajribalarni ommalashtiradigan, mamlakatimizda va hududlarda kutubxonachilik ishi qurilishi xususiyatlarini o'rganadigan, kutubxona xodimlari malakasini oshiradigan, kitobxonlarda o'qish madaniyatini tarbiyalaydigan, kutubxonachilik kasbining nufuzini, obro'-e'tiborini ko'taradigan nashrga aylandi.

1974-yilda sobiq Ittifoq hukumatining kutubxonachilik ishiga oid qabul qilgan qarori asosida mamlakatda markazlashtirilgan kutubxonalar tizimi tashkil topdi. Bu tizimning xususiyati shundan iborat ediki, hududlar xususiyatidan kelib chiqqan holda alohida tizimlar shakllandi, ulaming tarkibida markaziy kutubxona va uning atrofida filiallar birlashib, tizimni boshqarish, mablag' bilan ta'minlash, rejalashtirish va hisobot ishlari, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, hisob-kitob ishlari, fondni to'ldirish, unga qayta ishlov berish, texnik va ilmiy ishlov berish Markaziy kutubxona zimmasiga, aholiga kutubxona xizmati ko'rsatish filiallarga birlashtirildi. Kutubxonalarda ilg'or ish usullarini o'rganish, o'zaro hamkorlik qilish, ichki va tashqi kitob ayirboshlash, kutubxonalararo abonement, sirtqi abonement, Xalqaro abonement ishlari shu davrda rivojlantirildi. Markaziy kutubxona butun bir tizim uchun ilmiy-uslubiy, bibliografik ish markaziga aylandi.

1975–1990-yillarda "Kutubxonashunoslik" fanining rivojlanishida asosiy e'tibor respublikada maktab o'quvchilari va bolalarga kutubxona xizmati ko'rsatish sifatini oshirish masalalariga qaratildi. Kitobxonlar o'qish madaniyatini tarbiyalash, o'qishiga rahbarlik qilish masalalari har tomonlama ishlab chiqila boshlandi. Shu davrda Toshkent davlat madaniyat institutining "Bolalar adabiyoti va kutubxonalarda bolalar o'qishiga rahbarlik qilish" kafedrasini tashkil topib, uning faoliyati ko'lami va sifati jihatidan ko'zga tashlandi. Bu kafedraga avval filologiya fanlari doktori, folklorist olim Malik Murodov, keyinchalik pedagogika fanlari nomzodi, professor E. Yo'ldoshev rahbarlik qildi. 1982–1990-yillarda M. Murodovning bolalar kitobxonligi, ularning o'qishiga rahbarlik qilish, kitobxonlikning ildizlari, oilada kitobxonlik, uning ildizlari, an'analari, shaxsiy kutubxonalar va ularda aholiga xizmat ko'rsatish, bolalar ma'naviy dunyosini shakllantirishda kitobning o'rni, E. Yo'ldoshevning "Bolalar o'qishiga rahbarlik qilish", "O'qish madaniyatini tarbiyalash" kabi risolalari nashr etildi. Maktab va litsey kutubxonalarini ishini tashkil etish, kutubxonalarda kataloglarni tashkil etish, kitob fondini tashkil etish va u bilan ishlash, turli sinf o'quvchilari bilan ishlash, ular o'rtasida kutubxonachilik va bibliografik bilimlarni targ'ib etish bo'yicha kitoblar va risolalar, turli ommaviy tadbirlarni tashkil etish metodikasiga oid qo'llanmalar respublika "Kitobxon" jamiyati bilan hamkorlikda nashr etildi. Ulardan "Badiiy adabiyotlarni targ'ib etishning ommaviy usullari", "Adabiy o'qishlarni tayyorlash va o'tkazish metodikasi", "Adabiy viktorinalar" kabi yangi ish usullarining metodikasini o'rgatuvchi, ommalashtiruvchi metodik risolalar nashr etildi. Chunki, bu davrga kelib, ommaviy ishlarni tayyorlash va o'tkazishda yagona metodikaga ehtiyoj paydo bo'ldi. Turli kutubxonalarda ommaviy ishlarning o'zibolarchilik bilan, har kim o'zi istagancha o'tkazishi ommaviy tadbirlarning ta'sirini, sifatini, nufuzini tushirib yubordi.

1975–1990-yillarda kutubxonachilik ishi sohasidagi tadqiqotlar kutubxonalarining ijtimoiy rolini oshirishga qaratildi. Bu sohaga adabiyotshunoslarning kirib kelishi ko'zga tashlandi. Ammo,

kutubxonachilik ishi masalalarining hal etilishida jamiyatshunoslar, faylasuflar, pedagoglar, psixologlar yetarli darajada ishtirok etishmadi.

Bu davrda asosiy e'tibor sohaga oid ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, bolalar va o'smirlar bilan ishlash, o'qish madaniyatini tarbiyalash, o'qishiga rahbarlik qilish, yetakchi kutubxonashunos-bibliograf olimlarning faoliyatini o'rganish, tadqiq qilish, targ'ib qilish, kutubxonashunoslik fanining boshqa sohalar bilan hamkorligini yo'lga qo'yish, ular yordamida ilg'or tajribalarni ommalashtirish, aholiga kutubxonachilik xizmati ko'rsatishni takomillashtirish, kutubxona tarmoqlarini markazlashtirish, madaniy-ma'rifiy muassasalar tizimida kutubxonalarning o'rni masalasini o'rganish, tadqiq qilish, kutubxonachilik hududiy birlashmalari faoliyatini o'rganish masalalari uchinchi bosqichga xos edi.

1991-yil O'zbekiston mustaqilligi qo'lga kiritilganidan so'ng jamiyatning barcha qatlamlarida o'zgarishlar yuz berdi. Bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tish davri boshlandi. Hamma sohada iqtisodiyotni, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda bo'lgani kabi madaniyat va san'at sohasida ham milliylikka e'tibor oshdi. Milliy urf-odatlarimizni takomillashtirish, milliy qadriyatlarimizni qaytadan o'rganish, tahlil qilish, ayniqsa, o'zbek millati tarixini yangi nuqtayi nazardan o'rganish masalasi, ma'naviyatni shakllantirish, rivojlantirish oldingi o'ringa chiqdi. Diniy qadriyatlar qaytadan tiklandi. Xorijiy mamlakatlar bilan barcha sohada hamkorlik kuchaydi. Xorijiy sarmoyalar mamlakatimiz rivojiga ta'sir eta boshladi. Kutubxonachilik ishi sohasida ham xorijiy grantlar, hamkorlik yordamlari paydo bo'ldi. Ularning ta'sirida va ko'magida kutubxonachilik ishi sohasida avtomatlashtirish tushunchalari shakllanib, amaliyotga joriy etila boshlandi. Shulardan eng asosiysi elektron kataloglarning tashkil etilishi bo'ldi. Mamlakatimizda dastlab Toshkent viloyati "Turon" ilmiy-universal kutubxonasi, O'zbekiston FA asosiy kutubxonasining faoliyatida yangi texnologiya paydo bo'ldi, Rossiyaning "IRBIS" dasturi asosida elektron kataloglar yaratila boshlandi. "Turon" kutubxonasi tomonidan bir necha xorijiy grantlar yordamida respublika kutubxonalari uchun o'quv seminarlari tashkil etilib, elektron katalog tuzish qoidalari, nusxa ko'chirish apparatlari yordamida adabiyotlardan nusxa olish, bibliografik yozuvlarni dasturga kiritish, kompyuter savodxonligini oshirish masalalari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazildi.

XX asning so'nggi yillariga kelib, mamlakatimiz kutubxonalari faoliyatiga kompyuterlar kirib keldi. Ular yordamida kutubxonachilik ish jarayonlarini avtomatlashtirish bilan kutubxonachilar mehnatini yengillashtirish, ularning ish samarasini va sifatini oshirish masalalari kun tartibiga chiqdi. Shu sababli, 1994-yildan boshlab AK respublikada birinchilardan bo'lib, Rossiyaning "IRBIS" dasturi asosida elektron katalog yaratishga kirishdi.

1998-yili kutubxona ish jarayonlari shu dastur asosida avtomatlashtirishga o'tkazila boshlandi, kutubxonlarda Internet tarmog'ida ishlash imkoniyati yaratildi hamda elektron pochta aloqasi ishga tushdi.

2001-yili FAAK Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchi bo'lib "Avtomatlashtirilgan kutubxona modeli" loyihasi doirasida respublika kutubxona xodimlarini axborot texnologiyalari savodxonligiga o'qitishga mo'ljallangan o'quv markazi ish boshladi va 150 dan ortiq kutubxona xodimi o'qitildi. 1994-yildan boshlab, AK fondiga olingan hujjatlarning elektron katalogi, 9 mingga yaqin dissertatsiyalarning bibliografik yozuvlari kiritildi. Ammo bu ishlar dastlabki davrda bajarilgani va hali kutubxona xodimlarida elektron katalog tuzish madaniyati yetarli bo'lmaganligi sababli bibliografik yozuvlarni kiritishda ko'pgina xatolar mavjud edi.

2000–2004-yillarda Toshkent viloyati "Turon" ilmiy-universal kutubxonasi (2006-yildan axborot-kutubxona markazi) nafaqat Toshkent viloyati kutubxonalari, balki respublika kutubxonalari faoliyatini rivojlantirish maqsadida xorijiy grantlardan foydalanib, 5 ta viloyat kutubxonasida "Huquqiy axborot markazi"ni tashkil etdi, ularni kompyuter, printer, skaner bilan ta'minladi va elektron katalog tashkil etish ishlarida yordam berdi, kutubxonalar faoliyatiga fandrizing usulini olib kirish bo'yicha bir yil davomida o'quv seminarlari tashkil etdi.

1999-yildan boshlab mutaxassislar sa'y-harakati bilan xorijiy tashkilotlar ko'magida "Fan, texnika, ta'lim va biznes sohalarida kutubxona, Internet resurslaridan foydalanish – "Central

Asia” nomi bilan ikki yilda bir marta O‘zbekistonning yirik shaharlari va kutubxonalari bazasida Xalqaro anjuman o‘tkazila boshlandi. Bu anjumanda dunyo mamlakatlarining ilg‘or kutubxonashunos va bibliograf olimlari, kutubxonalar ish jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha mutaxassislar ishtirok etadilar. Anjumanda kutubxonachilik ishini takomillashtirish, sifatli va samarali axborot xizmati ko‘rsatish, kutubxonalar ish jarayonlarini avtomatlashtirish, xodimlar malakasini oshirish, qayta tayyorlash, elektron kataloglar yaratish, mamlakatlarning yig‘ma elektron kataloglari, ilg‘or ish tajribalari, virtual kutubxonalar, elektron kutubxonalar, ularning ishini tashkil etish, Internet xizmati, Internet resurslarini yaratish, xususiy elektron resurslar va ularni yaratish, masofadan turib xizmat ko‘rsatish, elektron resurslar tashkil etish, o‘zaro almashish, hamkorlik ishlari, elektron bibliografik resurslar yaratish va fondini tashkil etish kabi ko‘plab masalalar muhokama qilindi.

Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilishning hozirgi sharoitida axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishning maqsad va vazifalari mamlakatda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarga va xalqaro amaliyotga mos bo‘lishi zarur. Shu munosabat bilan fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo‘yicha konstitutsiyaviy huquqlarini, shu jumladan, milliy qadriyatlar va jahon madaniyati, amaliy va fundamental bilimlardan bahramand bo‘lishini ta‘minlaydigan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko‘rsatishning sifat jihatidan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Bu esa axborot-kutubxona faoliyatiga, kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish, fondlarni to‘ldirish va saqlash, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va rag‘batlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirishga jiddiy ta‘sir ko‘rsatish imkonini beradi.

Aholiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish, axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini rivojlantirish maqsadida:

1. Quyidagilar aholiga axborot-kutubxona xizmatiko‘rsatishni sifat jihatidan yanada rivojlantirish sohasidagi asosiy vazifalar etib belgilansin:

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va zamonaviy umumjahon tendensiyalarini hisobga olgan holda axborot-kutubxona faoliyatini isloh qilish;

aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha ijtimoiy kafolatlarni sifatli ta‘minlash hamda zamonaviy talablarni hisobga olgan holda axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish maqsadida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

hududlarda aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko‘rsatishni barqaror rivojlantirishga ko‘maklashish;

axborot-kutubxona muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shu jumladan, yangi bino va inshootlarni qurish, mavjud binolarni rekonstruksiya qilish, ularni zamonaviy uskunalarni ta‘minlash;

kutubxona sohasida davlat-xususiy sheriklikni, xususiy va elektron (virtual) kutubxonalar tarmog‘ini rivojlantirish;

kutubxonalar faoliyatining samaradorligini va foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish (shu jumladan, pullik xizmat ko‘rsatish) tezkorligini oshirish uchun elektron kitoblar tarqatishga ixtisoslashgan internet-resurslar bilan hamkorlikni kengaytirish;

axborot-kutubxona muassasalari xavfsizligini hamda milliy va jahon madaniy merosining bir qismi sifatida axborot-kutubxona fondlarining yaxshi saqlanishini ta‘minlash;

jamiyatning axborot madaniyatini, tariximizga va milliy madaniyatga qiziqishini shakllantirish vakuchaytirish, mutolaa madaniyatini oshirish va targ‘ib qilish;

axborot-kutubxona muassasalarini malakali mutaxassislar bilan ta‘minlash.

Nazorat savollari.

1. Kutubxona jamiyatning tarkibiy qismi va uning faoliyati xaqida nimalarni bilasiz?
2. Kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishning xalqaro miqyosdagi va mamlakatimizdagi huquqiy meyoriy asoslari xaqida nimalarni bilasiz?

3. Axborot almashuvining kuchayishi deganda nimani tushunasiz?
4. Internet vositalarining kuchayishi oqibatida axborot makoni kengayib bir butun jahon axborot makoni shakllanishi xaqida nimalarni bilasiz?

6-mavzu: Axborot-resurs markazi (kutubxona) xodimlariga qo'yiladigan talablar.

Reja:

1. ARMning xodimlari, ARMning ishlashini hamda texnikaviy, axborot, dasturiy va boshqa xizmatlar bo'yicha kadrlar tarkibining zamonaviy darajada tayyorgarligini ta'minlash tadbirlarini amalga oshirish.
2. Kutubxonachilarni tayyorlash, Qayta tayyorlash xizmatlari, malakasini oshirish kurslari; ARMni boshqarishning zamonaviy metodlarini o'rgatish dasturlari.
3. ARMning tashkiliy tuzilmasi va uning normal ishlashi bo'yicha vazifalarni bajarish uchun lavozim yuriqnomalari, buyruqlar majmui. Uzluksiz kutubxona xizmati tizimida malaka oshirish va qayta tayyorlash.

Tayanch so'z va iboralar.

ARMning xodimlari, ARMning ishlashini hamda texnikaviy, axborot, dasturiy va boshqa xizmatlar bo'yicha kadrlar tarkibining zamonaviy darajada tayyorgarligini ta'minlash tadbirlarini amalga oshirish. Kutubxonachilarni tayyorlash, Qayta tayyorlash xizmatlari, malakasini oshirish kurslari; ARMni boshqarishning zamonaviy metodlarini o'rgatish dasturlari.

ARMning tashkiliy tuzilmasi va uning normal ishlashi bo'yicha vazifalarni bajarish uchun lavozim yuriqnomalari, buyruqlar majmui. Uzluksiz kutubxona xizmati tizimida malaka oshirish va qayta tayyorlash.

Axborot-kutubxona muassasalari xodimlari samarali faoliyat ko'rsatishi va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun munosib sharoitlar yaratish:

axborot-kutubxona xodimlarining ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ularning huquq va imtiyozlarini kengaytirish (uy-joy sotib olish uchun foizsiz kreditlar ajratish), axborot-kutubxona muassasalarining barcha toifalarida tarif razryadini oshirish evaziga yagona tarif setkasini modernizatsiyalash;

Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilarning kasblari klassifikatori asosida sohaning bugungi ehtiyojlariga muvofiq ravishda axborot-kutubxona muassasalarining lavozimlari nomenklaturasini kengaytirishni ko'zda tutib, axborot-kutubxona muassasalari xodimlarining tarif-malakaviy tavsiflarini qayta ko'rib chiqish;

axborot-kutubxona muassasalarining normal rivojlanishini kafolatlaydigan mehnatga haq to'lash darajasini ta'minlash;

axborot-kutubxona muassasalari xodimlariga ko'p yillik ish staji uchun qo'shimcha haq to'lashni joriy etish;

kasbiy unvonlar va davlat mukofotlarini ta'xis etish;

"Kutubxona a'lochisi" ko'krak nishonini ta'xis etish.

Kutubxonalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash:

respublikaning barcha axborot-kutubxona muassasalarini to'liq xatlovdan o'tkazish;

axborot-kutubxona muassasalarining avariya holatidagi, ta'mirtalab bino va imoratlarini ta'mirlash hamda rekonstruksiya qilish;

axborot-kutubxona muassasalari uchun maxsus binolar qurish;

nogironiligi bo'lgan shaxslarga sifatli xizmat ko'rsatish uchun axborot-kutubxona muassasalarini zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash;

tuman (shahar) axborot-kutubxona muassasalarini tashkil qilish, ularni zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash uchun axborot-kutubxona muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, shu jumladan yangi binolar qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish.

Ilmiy-tadqiqot va uslubiy faoliyat:

axborot-kutubxona faoliyatining zamonaviy yo‘nalishlari bo‘yicha korporativ amaliy ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;

axborot-kutubxona xizmatlarining yangi turlarini joriy qilish, axborot-kutubxona xizmatlari ko‘rsatish tarmog‘ini kengaytirish va boshqalar;

idoralararo asosda axborot-kutubxona muassasalari faoliyatining turli yo‘nalishlari, shuningdek, MDH va xorijiy davlatlarning yirik axborot-kutubxona muassasalari bilan hamkorlikda zamonaviy raqobatbardosh axborot-kutubxona texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy ishlarni olib borish;

ilmiy tadqiqot va ta‘lim jarayonini axborot bilan qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;

hujjatlarni elektron tarzda yetkazib berish tizimini modernizatsiya qilish;

uslubiy qo‘llanmalar, tavsiyalar, maslahat yordami ko‘rsatish tizimini yaratish va takomillashtirish;

axborot-kutubxona muassasalarining innovatsion faoliyati va ularning innovatsion infratuzilmasini rivojlantirish, aholi bilan samarali innovatsion munosabatlar va muloqotni yo‘lga qo‘yish, yangiliklarni ishlab chiqish va innovatsiyalarni amalga oshirish uchun investitsiyalar, shu jumladan, xususiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi qoshida Axborot-kutubxona faoliyati bo‘yicha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilish kengashini tashkil qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish:

ikki tomonlama kelishuvlar tuzish asosida xalqaro kutubxona hamjamiyati bilan hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro forumlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish;

xalqaro kitob almashish, axborot resurslarini elektron tarzda almashish bo‘yicha hamkorlikning turli shakllarini rivojlantirish va joriy qilish;

yig‘ma elektron kataloglarni shakllantirish, ma‘lumotlar banklarini tashkil qilish;

xalqaro loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etish, kutubxonalararo abonementni (hujjatlarni elektron yetkazib berish) yo‘lga qo‘yish; respublika, xalqaro konferensiyalar va seminarlar o‘tkazish hamda shu kabi xalqaro tadbirlarda ishtirok etish.

ARMning vazifalari :

ARMning maqsadi–kutubxona xizmatidan va axborot texnologiyalardan foydalangan holda foydalanuvchilarning mustaqil ravishda ta‘lim olishiga ko‘maklashish, kitobxonlarning ma‘rifiy, ma‘naviy, madaniy dunyoqarashini shakllantirish, ularga milliy istiqlol g‘oyasi mazmunini singdirish, siyosiy, me‘yoriy-huquqiy madaniyat asoslarini tushuntirish va huquqiy ongini o‘stirish, ularning kasbiy va xizmat malakasini oshirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona resurslaridan o‘zaro foydalanishni ta‘minlash hisoblanadi.

ARM o‘z faoliyati bilan foydalanuvchilarning axborot resurslari va kutubxona fondidan erkin foydalanish huquqini ta‘minlaydi.

Quyidagilar:

foydalanuvchilarni axborot olishga, o‘quv, maxsus va badiiy adabiyotlarga bo‘lgan qiziqish va ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash maqsadida ularning kitobxonlik qiziqishlarini o‘rganish va turli tashuvchilardagi axborot-kutubxona resurslarini takdim etish;

o‘quv xonasida yakka tartibda va guruhlar bo‘yicha xizmat ko‘rsatish metodlarini qo‘llagan holda, foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatishni tashkil etish;

o‘quv va badiiy adabiyotlar seksiyalari faoliyatini elektron katalog “ARMAT” (Axborot-resurs markazining avtomatlashtirilgan tizimi) dasturidan foydalangan holda yuritishni tashkillashtirish; elektron axborot resurslarini to‘plash, tizimlash, kataloglashtirishni amalga oshirish;

ARM fondini yangi nashrlar bilan to‘ldirish, ARM fondini yangi nashr etilgan ixtisoslikka, qonunchilikka oid va badiiy adabiyotlar bilan to‘ldirib borilishini amalga oshirish;

Markazning ARMni “Elektron ta’lim” milliy tarmog’iga bog’lanishini ta’minlash;
Markazning ARM elektron katalogini yaratish.
foydalanuvchilarning sohasiga va axborotlarga bo’lgan ehtiyojlariga muvofiq ARM fondini shakllantirish;
ma’lumotlar bazalarini, kataloglar va kartotekalarni tashkil etish va yuritish;
foydalanuvchilarning ilmiy va o’quv ishlariga yordam sifatida bibliografik ko’rsatkichlar, adabiyotlar ro’yxatlarini tuzish; tematik, adresli va boshqa bibliografik ma’lumotlar berish;
bibliografik sharhlar o’tkazish;
kitobxonlarga masofadan turib xizmat ko’rsatish, kerakli adabiyotlarni (maqolalarni, turli axborot jamlamalarini, elektron kataloglarni) elektron pochta orqali foydalanuvchilarga yetkazib berish;
foydalanuvchilar, rahbariyat, tarkibiy bo’linmalar, ilmiy xodimlarning axborotlarga bo’lgan ehtiyojini aniqlash, o’rganish va muntazam ravishda aniqlashtirib borish;
kitobxonlarga elektron pochtdan foydalangan holda xizmat ko’rsatish;
o’quv, ilmiy, davriy, ma’lumotnoma, badiiy adabiyotlar va boshqa turdagi nashrlarga, gazeta va jurnallarni sotib olish, obuna bo’lishni tashkil etish; fondlarni hisobga olish va joylashtirishni amalga oshiradi, ularning saqlanganligini, saqlash rejimini, hujjatlar nusxasini olishni ularni elektron formatga ko’chirishni ta’minlash;
boshqa tashkilot ARMLari, Respublika axborot resurs markazlari bilan ijodiy va axborot aloqalarini rivojlantirish;
yangi adabiyotlarning ARM fondiga kirim qilinishini tashkil qilish, ro’yxatga olish, taqsimlash va saqlashni ta’minlash;
lozim bo’lganda adabiyotlarni muqovalash va ta’minlash choralari ko’rish;
adabiyotlarning mavzular bo’yicha yoki alifbo asosida qo’yilishini tashkil etish ARMning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Nazorat savollari.

1. ARMning xodimlari faoliyati xaqida nimalarni bilasiz?
2. ARMning ishlashini hamda texnikaviy, axborot, dasturiy va boshqa xizmatlar xaqida nimalarni bilasiz?
3. Kutubxonachilarni tayyorlash, Qayta tayyorlash xizmatlari, malakasini oshirish xaqida nimalarni bilasiz?
4. ARMni boshqarishning zamonaviy metodlarini o’rgatish dasturlari xaqida nimalarni bilasiz?
5. ARMning tashkiliy tuzilmasi va uning normal ishlashi bo’yicha vazifalarni bajarish uchun lavozim yuriqnomalari, buyruqlar majmui xaqida nimalarni bilasiz?
6. Uzlüksiz kutubxona xizmati tizimida malaka oshirish va qayta tayyorlash xaqida nimalarni bilasiz?

7-mavzu: 2019-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi.

Reja:

1. 2019-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi respublika axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, ustuvor yo’nalishlari va mexanizmlarini belgilovchi qarashlarning yagona va bir butun tizimi.
2. Axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsad va vazifalari ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni isloh qilish sharoitlarida mamlakatda kechayotgan o’zgarishlar va xalqaro amaliyot.
3. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi asosida axborot-kutubxona faoliyatini axborot va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish asosida tashkil qilishga yo’naltirilgan tizimli chora-tadbirlar.

4. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish axborot-kutubxona faoliyatiga har tomonlama: foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish, fondlarni jamlash va saqlash jarayonlari, axborot-kutubxona ish jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, axborot-kutubxona xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, ularni ijtimoiy himoya qilish, xalqaro hamkorlikka ta'siri.

Tayanch so'z va iboralar.

2019-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi respublika axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, ustuvor yo'nalishlari va mexanizmlarini belgilovchi qarashlarning yagona va bir butun tizimi. Axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsad va vazifalari ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni isloh qilish sharoitlarida mamlakatda kechayotgan o'zgarishlar va xalqaro amaliyot. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida axborot-kutubxona faoliyatini axborot va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish asosida tashkil qilishga yo'naltirilgan tizimli chora-tadbirlar. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish axborot-kutubxona faoliyatiga har tomonlama: foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish, fondlarni jamlash va saqlash jarayonlari, axborot-kutubxona ish jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, axborot-kutubxona xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, ularni ijtimoiy himoya qilish, xalqaro hamkorlikka ta'siri.

2019 — 2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) respublika axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, ustuvor yo'nalishlari va mexanizmlarini belgilovchi qarashlarning yagona va bir butun tizimini o'zida aks ettiradi. Axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsad va vazifalari ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni isloh qilish sharoitlarida mamlakatda kechayotgan o'zgarishlar va xalqaro amaliyotga muvofiq bo'lmog'i lozim.

2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida axborot-kutubxona faoliyatini axborot va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish asosida tashkil qilishga yo'naltirilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish axborot-kutubxona faoliyatiga har tomonlama: foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish, fondlarni jamlash va saqlash jarayonlari, axborot-kutubxona ish jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, axborot-kutubxona xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, ularni ijtimoiy himoya qilish, xalqaro hamkorlikka ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyatda yuksak ma'naviy qadriyatlarning qaror topishi axborot-kutubxona muassasalari oldiga shaxsga e'tiborni kuchaytirish, uning umummadaniy darajasini oshirish, ma'naviyatini yuksaltirish, odob-axloq jihatdan tarbiyalash kabi vazifalarni qo'yadi. Hozirgi jamiyatda axborot-kutubxona muassasalari axborot olish, madaniy-ma'rifiy va ta'lim muassasasi sifatida namoyon bo'ladi.

Milliy madaniyatni chuqur anglash, uning rivoji va evolyutsiyasini tahlil qilishda respublikaning universal fondga ega bo'lgan axborot-kutubxona muassasalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasalari maqomini oshirish, tarmoq ilmiy axborot-kutubxona muassasalarining ilmiy va axborot salohiyatini, shuningdek, axborot-kutubxona sohasida davlat-xususiy sheriklikni, mamlakatdagi xususiy va raqamli (virtual) axborot-kutubxona muassasalari tarmog'ini rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Bolalar va ijtimoiy yordamga muhtoj fuqarolar guruhi (imkoniyati cheklangan insonlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, ko'p bolali oilalar va boshqalar) axborot-kutubxona muassasalarining alohida e'tiborini talab etadi.

Mamlakatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, jahon hamjamiyatiga kirish, O'zbekistonning xalqaro obro'-e'tiborining ortishi axborot-kutubxona muassasalari zimmasiga

mamlakatda bo'layotgan islohotlarga ko'maklashish, aholiga tezkor axborot taqdim etish bo'yicha qator majburiyatlarni yuklaydi.

Yangi texnologiyalarning tatbiq etilishi, axborot-kutubxona muassasalari tomonidan axborot tarqatish funksiyalarining amalga oshirilishi hamda axborot olish imkoniyatini ta'minlash avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish ko'lami va sur'atlariga bog'liqdir.

Axborot-kutubxona sohasini isloh qilish axborot-kutubxona muassasalari me'yoriy-huquqiy bazasining zaifligi, axborot-kutubxona fondlarining jamlanishi va texnik jihozlanishi yetarli darajasida emasligi, axborot-kutubxona xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash hamda ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasining pastligi tufayli yuzaga keldi.

Konsepsiya fuqarolarning ijtimoiy holati va yashash joyidan qat'i nazar, axborotni erkin olish huquqini o'rnatuvchi, axborot-kutubxona faoliyatini hamda madaniyat sohasidagi siyosatni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq, respublikada axborot-kutubxona faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

Hozirgi kunda O'zbekistonning professional axborot-kutubxona hamjamiyati axborot-kutubxona muassasalariga demokratik ijtimoiy-madaniy institut, bugungi axborot jamiyati madaniyatining rivoji hamda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining axborot bazasi sifatida qaraydi, shuningdek, axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish holatini jamiyat madaniyati darajasining ko'rsatkichi deb hisoblaydi.

Respublikada axborot-kutubxona faoliyatining holatini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tahlillar zamonaviy talablarni hisobga olgan holda axborot-kutubxona muassasalarining rivojlanishi, aholining axborot-kutubxona xizmatlaridan foydalanishining ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash maqsadida me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining axborot-kutubxona faoliyatining qonunchilik va me'yoriy bazasi quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida", "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-avgustdagi "Matbuot va axborot sohasida boshqaruvni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5148-son, 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-son farmonlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 23-fevraldagi "2011 — 2015-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari negizida axborot-kutubxona va axborot-resurs xizmatlari ko'rsatishni sifat jihatidan yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1487-son, 2012-yil 20-martdagi "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi — axborot resurs markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1729-son, 2012-yil 21-martdagi "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1730-son, 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ-3271-son, 2019-yil 2-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4151-son qarorlari.

Aholining elektron axborot resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, axborot-kutubxona muassasalarini birlashtirish va ularni yagona umumta'lim elektron kutubxona tizimiga ulash, idoralararo elektron hamkorlik tizimini takomillashtirish maqsadida "Milliy umumta'lim elektron kutubxona" loyihasi amalga oshirilmoqda.

Respublika axborot-kutubxona muassasalarida bosqichma-bosqich zamonaviy axborot va elektron texnologiyalar tatbiq etilmoqda:

foydalanuvchilar uchun avtomatlashtirilgan ishchi o'rinlari soni ko'paytirilmoqda;
xususiy elektron ma'lumotlar bazalari yaratilmoqda;

foydalanuvchilarga axborot-kutubxona xizmatlarining yanada sifatli yangi turlari taqdim etilmoqda.

Aholining axborotga bo'lgan talabini qondirish uchun mamlakatning yirik axborot-kutubxona muassasalari virtual ma'lumotlar xizmatidan faol foydalanmoqda, madaniy hordiq va ma'rifiy faoliyatni rivojlantirmoqda.

Biroq axborot-kutubxona muassasalarini jahon kutubxona hamjamiyatiga integratsiyalash, foydalanuvchilar va aholi bilan ishlash, shu jumladan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning innovatsion usullarini tatbiq etish masalalariga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapti, shuningdek, uyali aloqa, ko'plab gadjetlar va Wi-Fining faol rivojlanishi, elektron kitoblar va "kitob o'qish ilovalari" (book reader) oqimining ortib borishi sharoitlarida foydalanuvchilar bilan tizimli ishlar olib borilmayapti.

Axborot-kutubxona muassasalarining katta qismi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuterlar, nusxa ko'chirish-ko'paytirish texnikasi, yong'indan saqlash signalizatsiyasi va o't o'chirish, iqlimni nazorat qilish vositalari, telefon aloqasi bilan ta'minlanmagan, aholiga, ayniqsa nogironligi bo'lgan shaxslarga va olis, aholisi kam bo'lgan punktlarda xizmat ko'rsatish uchun zamonaviy uskunalar mavjud emas.

Axborot-kutubxona muassasalarini texnik jihatdan qayta jihozlash, yangi axborot texnologiyalarini joriy etish axborot-kutubxona muassasalariga yuqori malakali mutaxassislarni jalb etishni taqozo etadi, ularning mehnat bozoridagi bahosi esa axborot-kutubxona muassasalarining bugungi imkoniyatlaridan ancha baland.

Axborot-kutubxona muassasalarida mehnatga haq to'lash darajasining pastligi, nomuvofiq og'ir mehnat sharoitlari va ularga ishonib topshirilgan fondlarni saqlash mas'uliyati malakali kadrlarning ishdan ketishi, mamlakat madaniy mulkini va intellektual salohiyatini saqlash uchun xavfli hisoblangan kadrlar qo'nimsizligini vujudga keltirmoqda.

Bo'sh o'rinlarning ko'pligi va xodimlar yetishmasligi ishga olinayotgan xodimlarga qo'yilayotgan talablar darajasini pasaytirayapti, bu esa malakasiz (ko'p hollarda mutaxassis bo'lmagan) xodimlarga kutubxonachi lavozimiga ishga joylashish imkonini bermoqda. Bu masalalarni maqbul tarzda hal etish uchun axborot-kutubxona muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni ijtimoiy himoya qilish darajasini qayta ko'rib chiqish zarur.

Axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning ustuvor maqsadlari — fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlovchi aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish tizimini rivojlantirish, milliy va jahon madaniy boyliklari, amaliy va fundamental bilimlar bilan tanishtirish, shuningdek, mamlakatimizning axborot-kutubxona muassasalarida mavjud milliy-madaniy merosni saqlashdan iborat.

Axborot-kutubxona sohasini samarali rivojlantirishning strategik maqsadlariga erishish uchun quyidagi masalalarni hal etish zarur:

axborot va raqamli texnologiyalar rivojlanishi hamda zamonaviy umumjahon tendensiyalarni e'tiborga olgan holda axborot-kutubxona sohasini isloh qilishni jadallashtirish;

bugungi kun talablarini hisobga olgan holda axborot-kutubxona muassasalarining rivojlanishi, aholining axborot-kutubxona xizmatlaridan foydalanishining ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash maqsadida me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish;

axborot-kutubxona muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, xususan yangi bino va inshootlar qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish, ularni zamonaviy uskunalar bilan ta'minlash;

eng yangi, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, korporativ tizimlarni rivojlantirish;

axborot-kutubxona sohasida davlat-xususiy sheriklikni, mamlakatdagi xususiy va raqamli (virtual) axborot-kutubxona muassasalari tarmog'ini rivojlantirish;

milliy va jahon madaniy merosining bir qismi sifatida axborot-kutubxona muassasalari xavfsizligini va axborot-kutubxona fondining saqlanishini ta'minlash;

jamiyatning axborot madaniyatini, milliy tarix va madaniyatga qiziqishini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va targ'ib qilish;

axborot-kutubxona muassasalarini malakali xodimlar bilan ta'minlash.

Belgilangan maqsad va vazifalarni hisobga olgan holda axborot-kutubxona sohasining quyidagi ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish zarur:

qonunchilik bazasini aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni rivojlantirish vazifalariga mos ravishda muvofiqlashtirish;

axborot-kutubxona muassasalarini jamlash mexanizmini yaratish, shu jumladan elektron va boshqa tashuvchilarda nashrlar haqidagi ma'lumotlar tizimini shakllantirish;

axborot-kutubxona fondlari saqlanishini ta'minlash;

yangi axborot texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, milliy axborot-kutubxona tarmog'ini yaratish;

zamonaviy axborot-kutubxona texnologiyalari asosida axborot-kutubxona kadrlarini tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

axborot-kutubxona xizmatlarining yangi, shu jumladan, pulli turlarini joriy etish va rivojlantirish;

axborot-kutubxona muassasalarini xodimlari samarali mehnat qilishi va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun munosib sharoitlar yaratish;

axborot-kutubxona muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

ilmiy-tadqiqot va uslubiy faoliyatni rivojlantirish;

barcha tizimlar va idoralar axborot-kutubxona muassasalarini boshqarishni muvofiqlashtirish;

xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va jahon axborot-kutubxona hamjamiyatiga kirish.

Axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini hal qilish bo'yicha asosiy vazifalar

1. Axborot-kutubxona muassasalarini jamlash mexanizmlarini yaratish, axborot-kutubxona fondlari saqlanishini ta'minlash:

sohani uslubiy ta'minlash va eng yangi texnologiyalarni joriy etish, axborot-kutubxona fondlarini saqlovchi kadrlar, restavratlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, axborot-kutubxona fondlarini saqlash muammolari bo'yicha jamoatchilik fikrini shakllantirish;

foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda axborot-kutubxona fondlarini shakllantirishga yondashuvlarni takomillashtirish, fondlarni to'ldirish, ularni jamlash va keyinchalik ulardan erkin foydalanish imkoniyatini ta'minlagan holda majburiy nusxaga egalik huquqini belgilash;

axborot-kutubxona muassasalarini jamoat, tijorat va xususiy nashriyotlar nashrlari, chet elda yashayotgan vatandoshlarimizning asarlari, shuningdek, O'zbekiston haqidagi chet el nashrlari bilan ta'minlash uchun sharoitlar yaratish, respublika hududida yashovchi xalqlar tillaridagi adabiyotlar fondlarini shakllantirish;

majburiy nusxa olish, obuna, sovg'a qilish, sotib olish, kutubxonalararo va xalqaro kitob almashish tizimini joriy etish, milliy va xorijiy onlayn va oflayn elektron hujjatlari bilan jamlash, "egalik qilish" va "erkin foydalanish" o'rtasida maqbul muvozanatni yaratish va boshqalar hisobiga axborot-kutubxona muassasalarining axborot-kutubxona fondlarini yangilash;

viloyat, tuman va shahar darajasidagi hududiy axborot-kutubxona muassasalarining axborot-kutubxona fondlarini jamlash, kengaytirish, to'ldirish uchun ajratiladigan mablag'larni o'rtacha ikki barobarga oshirgan holda axborot-kutubxona muassasalarini fondiga turli xildagi tashuvchilar orqali yangi adabiyotlar kelishini ta'minlash;

nashrlarga ishlov berish va ularni qidirishni avtomatlashtirish tizimini joriy qilish orqali axborot-bibliografiya faoliyatini takomillashtirish;

yig'ma elektron kataloglar, to'liq matnli ma'lumotlar bazasini shakllantirish va axborot-kutubxona muassasalarining Internet tarmog'iga ulanishini ta'minlash;

uyali aloqa vositalari orqali foydalanuvchilarga taqdim etiladigan xizmatlarni kengaytirish bo'yicha kompleks tadbirlar ishlab chiqish, yaratilayotgan elektron resurslarda multimedia kontentlari ulushini oshirish va boshqalar;

axborot-kutubxona muassasalarida axborot-kutubxona fondlarini konservatsiyalash, fondlar holati va ularning saqlanish sharoitlari monitoringi tizimini yaratish, saqlashning me'yoriy tartiblarini ta'minlash;

hujjatlarni ommaviy konservatsiyalash usullarini ishlab chiqish va rivojlantirish, konservatsiya jarayonlariga eng yangi texnologiyalarni joriy etish, favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish holatlari uchun harakatlarni rejalashtirish va ta'minlash;

axborot-kutubxona muassasalari va axborot-kutubxona fondlari xavfsizligini ta'minlash, axborot-kutubxona muassasalari va axborot-kutubxona fondlari xavfsizligi texnologiyasini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy va uslubiy bazani ishlab chiqish;

axborot-kutubxona fondlarini hisobga olish tizimini rivojlantirish, axborot-kutubxona muassasalari fondlaridagi barcha turdagi hujjatlarni hisobga olishni takomillashtirish, axborot-kutubxona muassasalari hujjatlarini hisobga olishning yagona tizimini yaratish, hisobga olish ma'lumotlariga ishlov berish va avtomatlashtirilgan tarzda ishlov berishni o'zaro integratsiyalovchi yangi texnologiyalarni joriy etish, hisob-statistika ko'rsatkichlari tizimini yaratish;

fondlar, kataloglarni saqlash va foydalanish, ularning lozim darajada ishlashi, shuningdek, foydalanuvchilarning xavfsiz va qulay tarzda muassasada bo'lishi uchun axborot-kutubxona muassasalarini zamonaviy uskunalar bilan ta'minlash.

2. Yangi axborot texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, milliy axborot-kutubxona tarmog'ini yaratish:

yangi axborot texnologiyalarini jadal joriy etish, shaxsiy kompyuterlar parkini kengaytirish, litsenziyalangan dasturiy ta'minot xarid qilish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari texnika bazasini mustahkamlash;

foydalanuvchilar uchun avtomatlashtirilgan o'rinlar sonini ko'paytirish;

fondlarni, jumladan o'lkashunoslik va noyob nashrlarni raqamlashtirish;

mamlakatimizning barcha aholisi hududiy, respublika va jahon axborot-resurslaridan masofadan turib foydalanishi uchun imkoniyat yaratish maqsadida axborot-kutubxona muassasalarini Internet tarmog'iga ulashni kengaytirish;

saytlar yaratish va axborot-kutubxona muassasalarining virtual makonda faol ishtirokini, aholiga virtual ma'lumot-kutubxona xizmatlarini ko'rsatishni ta'minlash;

mamlakatning axborot-kutubxona muassasalari axborot resurslaridan masofadan turib foydalanish imkoniyatini beruvchi yagona axborot-kutubxona portalini yaratish;

davlat va qo'shimcha xizmatlarini ko'rsatish doirasida axborot va bilimlardan foydalanishni ta'minlovchi mavjud zamonaviy raqobatbardosh texnologiyalarni takomillashtirish va yangilarini joriy qilish;

ilmiy tadqiqotlar va o'quv jarayonini axborot bilan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, uyali aloqa vositalaridan foydalangan holda hujjatlarni elektron tarzda yetkazib berish va virtual ma'lumot xizmati tizimlarini modernizatsiyalash;

jamoaviy obunani kengaytirish va respublika axborot-kutubxona muassasalariga muntazam ravishda yillik obuna uchun mablag' ajratish;

axborot-kutubxona muassasalarining innovatsion faoliyati va ularning innovatsion infratuzilmasini rivojlantirish, aholi bilan samarali innovatsion munosabatlar va muloqotni yo'lga qo'yish, yangiliklarni ishlab chiqish va innovatsiyalarni amalga oshirish uchun investitsiyalar, shu jumladan, xususiy investitsiyalarni jalb qilish;

O'zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan turli ta'lim, ijtimoiy guruhlar, yosh toifalaridagi foydalanuvchilarga va nogironligi bo'lgan shaxslarga onlayn tarzda (24/7/365) taqdim qilinadigan elektron kataloglar, hujjatli resurslar va ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanishni kengaytirish imkonini beradigan xizmatlar yaratish;

axborot-kutubxona muassasalari foydalanuvchilarining axborot borasidagi bilimlarini oshirish, bolalar, o'smirlar va yoshlarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish orqali aholining media savodxonligini yuksaltirish va boshqalar;

3. Zamonaviy axborot-kutubxona texnologiyalari asosida axborot-kutubxona kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish:

kutubxona xodimlarini axborot-kutubxonachilik ishini modernizatsiya qilishning dolzarb yo'nalishlari bo'yicha muntazam ravishda qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish asosida ularga uzluksiz axborot-kutubxona ta'limini berish tizimini yaratish, axborot-kutubxona kadrlarini masofadan turib o'qitish tizimini joriy qilish va boshqalar;

axborot-kutubxona xodimlari malakasini oshirish bo'yicha doimiy faoliyat olib boruvchi kurslar tashkil qilish, ham talabalar, ham axborot-kutubxona xodimlarini masofadan turib o'qitish kurslarini rivojlantirish, o'qituvchi va assistentlarning xorijiy davlatlardagi yetakchi ilmiy tashkilotlarda (kutubxona fakultetlarida) stajirovka o'tashini tashkil qilish, axborot-kutubxonachilik ishi bo'yicha ilmiy maktablarni rivojlantirish va boshqalar;

kutubxonachilik ishi sohasida mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni o'rganish asosida sohaga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarida "Kutubxona-axborot faoliyati" yo'nalishi bo'yicha qabul kvotalarini oshirish;

axborot-kutubxona hamjamiyatini kasbiy axborot bilan ta'minlash, yangi noshirlik texnologiyalaridan va axborot-kutubxona muassasalari fondidagi noyob hujjatlarning faksimillaridan foydalangan holda fundamental bibliografik qo'llanmalar nashr qilish, kataloglashtirish sohasida bir xil ishlar takrorlanishining oldini olishga va respublika axborot-kutubxona muassasalarida kataloglashtirish sarf-xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiluvchi kooperatsiyani amalga oshirish;

axborot-kutubxona xodimlarining malakasini oshirish, tajriba almashish bo'yicha xalqaro loyihalarda axborot-kutubxona muassasalarining ishtirokini kengaytirish va boshqalar.

4. Axborot-kutubxona xizmatlarining yangi turlarini, jumladan pulli xizmatlarni joriy qilish va rivojlantirish:

fuqarolar elektron axborot-resurslarni almashishi va ulardan erkin foydalanishi uchun yig'ma elektron katalogdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, korporativ axborot-kutubxona tarmoqlarini rivojlantirish;

kutubxonalararo abonementning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va hujjatlarni elektron tarzda yetkazib berish uchun shart-sharoit yaratish, yagona axborot muhitini yaratish, ta'lim va axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, axborot-kutubxona resurslari o'zaro hamkorligining yagona mexanizmini ishlab chiqish, mamlakatimizning yirik axborot-kutubxona resurslarini o'zida birlashtirgan yagona qidiruv tizimini yaratish.

5. Axborot-kutubxona muassasalari xodimlari samarali faoliyat ko'rsatishi va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun munosib sharoitlar yaratish:

axborot-kutubxona xodimlarining ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ularning huquq va imtiyozlarini kengaytirish (uy-joy sotib olish uchun foizsiz kreditlar ajratish), axborot-kutubxona muassasalarining barcha toifalarida tarif razryadini oshirish evaziga yagona tarif setkasini modernizatsiyalash;

Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilarning kasblari klassifikatori asosida sohaning bugungi ehtiyojlariga muvofiq ravishda axborot-kutubxona muassasalarining lavozimlari nomenklaturasini kengaytirishni ko'zda tutib, axborot-kutubxona muassasalari xodimlarining tarif-malakaviy tavsiflarini qayta ko'rib chiqish;

axborot-kutubxona muassasalarining normal rivojlanishini kafolatlaydigan mehnatga haq to'lash darajasini ta'minlash;

axborot-kutubxona muassasalari xodimlariga ko'p yillik ish staji uchun qo'shimcha haq to'lashni joriy etish;

kasbiy unvonlar va davlat mukofotlarini ta'xis etish;

"Kutubxona a'lochisi" ko'krak nishonini ta'xis etish.

6. Kutubxonalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash:

respublikaning barcha axborot-kutubxona muassasalarini to'liq xatlovdan o'tkazish;

axborot-kutubxona muassasalarining avariya holatidagi, ta'mirtalab bino va imoratlarini ta'mirlash hamda rekonstruksiya qilish;

axborot-kutubxona muassasalari uchun maxsus binolar qurish;
nogironiligi bo'lgan shaxslarga sifatli xizmat ko'rsatish uchun axborot-kutubxona muassasalarini zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash;

tuman (shahar) axborot-kutubxona muassasalarini tashkil qilish, ularni zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash uchun axborot-kutubxona muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, shu jumladan yangi binolar qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish.

7. Ilmiy-tadqiqot va uslubiy faoliyat:

axborot-kutubxona faoliyatining zamonaviy yo'nalishlari bo'yicha korporativ amaliy ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;

axborot-kutubxona xizmatlarining yangi turlarini joriy qilish, axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatish tarmog'ini kengaytirish va boshqalar;

idoralararo asosda axborot-kutubxona muassasalari faoliyatining turli yo'nalishlari, shuningdek, MDH va xorijiy davlatlarning yirik axborot-kutubxona muassasalari bilan hamkorlikda zamonaviy raqobatbardosh axborot-kutubxona texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy ishlarni olib borish;

ilmiy tadqiqot va ta'lim jarayonini axborot bilan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;

hujjatlarni elektron tarzda yetkazib berish tizimini modernizatsiya qilish;

uslubiy qo'llanmalar, tavsiyalar, maslahat yordami ko'rsatish tizimini yaratish va takomillashtirish;

axborot-kutubxona muassasalarining innovatsion faoliyati va ularning innovatsion infratuzilmasini rivojlantirish, aholi bilan samarali innovatsion munosabatlar va muloqotni yo'lga qo'yish, yangiliklarni ishlab chiqish va innovatsiyalarni amalga oshirish uchun investitsiyalar, shu jumladan, xususiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi qoshida Axborot-kutubxona faoliyati bo'yicha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilish kengashini tashkil qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

8. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish:

ikki tomonlama kelishuvlar tuzish asosida xalqaro kutubxona hamjamiyati bilan hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro forumlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish;

xalqaro kitob almashish, axborot resurslarini elektron tarzda almashish bo'yicha hamkorlikning turli shakllarini rivojlantirish va joriy qilish;

yig'ma elektron kataloglarni shakllantirish, ma'lumotlar banklarini tashkil qilish;

xalqaro loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etish, kutubxonalararo abonementni (hujjatlarni elektron yetkazib berish) yo'lga qo'yish;

respublika, xalqaro konferensiyalar va seminarlar o'tkazish hamda shu kabi xalqaro tadbirlarda ishtirok etish.

Konsepsiyani amalga oshirishning asosiy vositasi respublikada axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi (keyingi o'rinlarda — Dastur) hisoblanadi.

Ushbu Konsepsiyani tijorat tashkilotlari, hamkorlar, shu jumladan xorijiy investorlarni jalb qilgan holda sohaga aloqador vazirliklar va idoralar, mahalliy ijro hokimiyati organlari bilan hamkorlikda respublika miqyosida amalga oshirish nazarda tutilgan.

Konsepsiyani amalga oshirishni muvofiqlashtirish kitob mahsulotlarini nashr qilish va tarqatish tizimini takomillashtirish, shuningdek, axborot-kutubxona faoliyati sohasi bo'yicha maxsus vakolatli davlat organ — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan olib boriladi.

Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqichda (2019-2020-yillar) quyidagilar nazarda tutiladi:

hududiy axborot-kutubxona muassasalarini kelgusida xalqaro tizimlar bilan integratsiyalash uchun ularni yagona ma'lumotlar bazasiga ulash;

Milliy umumta'lim elektron kutubxona markazi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash;

sohaga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarida "Kutubxona-axborot faoliyati" yo'nalishi bo'yicha qabul kvotalarini oshirish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida taqdim etilayotgan xizmatlar hajmining o'sib borishini hisobga olgan holda, Milliy kutubxonaning tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi xodimlarning namunaviy shtatlari hamda Axborot-kutubxona markazi va kutubxona to'g'risida namunaviy nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash;

2019 — 2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasida, xususiy va raqamli (virtual) kutubxonalar tarmog'ida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash;

ta'mirtalab axborot-kutubxona muassasalarini ta'mirlash va rekonstruksiya qilish hamda ularning bino va imoratlarini qurish;

"Kutubxona a'lochisi" ko'krak nishonini ta'sis qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

xatlov o'tkazish va uning natijalarini aniqlashtirish, tadbirlarni amalda ijro etish bo'yicha chora-tadbirlar tayyorlash va boshqalar.

Ikkinchi bosqichda (2021 — 2024-yillar) quyidagilar nazarda tutiladi:

tarqatish tizimini takomillashtirish uchun "Nashrlarning majburiy nusxasi to'g'risida"gi Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish;

"Xalqaro nashrlar almashinuvi to'g'risida"gi Konvensiyani ratifikatsiya qilish masalasini ko'rib chiqish;

MDH va xorijiy davlatlarning yetakchi tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni faollashtirish;

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi qoshida Kutubxonachilik ishi bo'yicha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilish bo'yicha ixtisoslashgan ilmiy kengash tashkil qilish;

resurslar almashinuvi va korporativ hamkorlik ishini avtomatlashtirish bo'yicha korporativ tarmoqni shakllantirish;

axborot-kutubxona faoliyati bo'yicha tarmoq standartlar, uslubiy qo'llanmalar va tavsiyalarni ishlab chiqish;

tuman (shahar) axborot-kutubxona muassasalarining faoliyatini tashkil qilish borasida davlat organlari va hokimliklar bilan hamkorlikda ishlash;

manfaatdor vazirliklar, idoralar, tashkilotlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar (shaharlar) hokimliklari bilan hamkorlikda Konsepsiyani ro'yobga chiqarish bo'yicha tadbirlarni belgilab olish va amalga oshirish.

Resurs ta'minoti, shu jumladan Konsepsiyada belgilab berilgan tadbirlarni moliyalashtirish masalalari axborot-kutubxona muassasalariga ajratiladigan budjet mablag'lari doirasida, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi huzuridagi Axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi, kutubxonalarning xo'jalik faoliyatidan tushgan daromad qismi, homiylar, xorijiy investorlarning mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Konsepsiyani amalga oshirish mamlakat axborot-kutubxona muassasalarining yanada rivojlanishi hamda axborot, madaniy-ma'rifiy makon doirasida ularning faoliyatini muvofiqlashtirishga xizmat qiluvchi yagona axborot-kutubxona tarmog'ini yaratishga imkon beradi.

Rejalashtirilgan tadbirlar natijasiga ko'ra, Konsepsiyani amalga oshirishning birinchi bosqichida quyidagilar kutilmoqda:

2020-yilga qadar respublikaning tuman va shaharlarida aholining 86,0 foizini qamrab oladigan 186 ta zamonaviy axborot-kutubxona markazini tashkil qilish;

2020-yilga qadar kutubxonalarning 10 foizini (21 ta) yagona ma'lumotlar interaktiv bazasiga ulash orqali O'zbekiston axborot-kutubxona markazlari hamkorligining yaxlit tizimini shakllantirishni boshlash;

elektron kitoblar fondini 1,2 million nusxagacha ko'paytirish;

14 ta xorijiy davlat bilan axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish.

Ikkinchi bosqichda quyidagilar kutilmoqda:

respublikaning 207 ta kutubxonasini yagona ma'lumotlar interaktiv bazasiga ulashni yakunlash orqali O'zbekiston axborot-kutubxona markazlari hamkorligining yaxlit tizimini shakllantirish;

elektron kitoblar fondini 3,3 million nusxagacha ko'paytirish;

21 ta xorijiy davlat bilan axborot-kutubxona faoliyati sohasida hamkorlikni yanada rivojlantirish.

Bundan tashqari Konsepsiya:

madaniy, ta'lim va axborot infratuzilmasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida muhim ijtimoiy va kommunikativ vazifalarni bajaruvchi axborot-kutubxona muassasalariga mamlakatning iqtisodiy rivojiga munosib hissa qo'shish imkoniyatini yaratadi;

milliy manfaatlar va xalqaro tajribani hisobga olib axborot-kutubxona ishi sohasidagi qonunchilikni takomillashtirishga yordam beradi (bu esa axborot-kutubxona sohasi taraqqiyotining bugungi tendensiyalariga moslashish, shuningdek, axborot-kutubxona muassasalarining rivojlanishi va aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishni kengaytirishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishga imkon yaratadi);

axborot-kutubxona fondini jamlash, shu jumladan elektron va boshqa tashuvchi uskunalarga yig'ish tizimini yaratishga, kutubxona fondlarini saqlashni ta'minlaydi, yangi axborot texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, milliy axborot-kutubxona tarmog'ini takomillashtirish va ixtisoslashgan ilmiy tadqiqotlar olib borishga, uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishni faollashtirishga imkon beradi;

axborot-kutubxona sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini hamda axborot-kutubxona muassasalari xodimlarining samarali faoliyati, ularning ijtimoiy himoyasi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga ko'maklashadi;

barcha tizimlar va idoralarning axborot-kutubxona muassasalarini samarali muvofiqlashtirish va boshqarish, xalqaro hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish, axborot-kutubxona muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Nazorat savollari.

1. 2019-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi xaqida nimalarni bilasiz?
2. Respublikada axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, ustuvor yo'nalishlari va mexanizmlarini belgilovchi qarashlarning yagona va bir butun tizimi xaqida nimalarni bilasiz?
3. Axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsad va vazifalari ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni isloh qilish sharoitlarida mamlakatda kechayotgan o'zgarishlar va xalqaro amaliyot xaqida nimalarni bilasiz?
4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida axborot-kutubxona faoliyatini axborot va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish asosida tashkil qilishga yo'naltirilgan tizimli chora-tadbirlar xaqida nimalarni bilasiz?
5. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish axborot-kutubxona faoliyati foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish xaqida nimalarni bilasiz?

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
MADANIYATSHUNOSLIK
KAFEDRASI**

**“KUTUBXONA-AXBOROT FAOLIYATINING
MEYORIY-HUQUQIY ASOSLARI”
FANIDAN**

**SEMINAR MASHG‘ULOTLAR
ISHLANMASI**

NAMANGAN – 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**“Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari” fanidan
seminar mashg‘ulotlar ishlanmasi**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi oliy o‘quv yurtlarining muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan kutubxona axborot-faoliyati ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun “Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari” fanidan seminar mashg‘ulotlar ishlanmasi NamDU Madaniyatshunoslik kafedrasining 2023 yil _____dagi ____-sonli yig‘ilishi qaroriga ko‘ra va NamDU o‘quv uslubiy kengashining 2023 yil _____dagi ____-sonli yig‘ilishi qaroriga ko‘ra bakalavrlarning tayorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar bo‘yicha qo‘llanishga tavsiya etilgan.

Tuzuvchi: **t.f.n., dots. O.Topildiyev**

Taqrizchi: **t.f.n., dots. Z. Xaydarov**

Kirish.

2011 yil 13 aprelda O‘zbekiston Respublikasi “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida axborot-kutubxona faoliyatini axborot va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish asosida tashkil qilishga yo‘naltirilgan tizimli chora-tadbirlar. 2019-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi respublika axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, ustuvor yo‘nalishlari va mexanizmlarini belgilovchi qarashlarning yagona va bir butun tizimi. Axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsad va vazifalari ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni isloh qilish sharoitlarida mamlakatda kechayotgan o‘zgarishlar va xalqaro amaliyot. Respublikamiz axborot-kutubxona muassasalari faoliyatida tub ijobiy o‘zgarishlarga asos bo‘ldi desak, hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy va madaniy sohalaridagi islohotlarning mohiyati inobatga olinib, unda axborot-kutubxona sohasiga oid asosiy munosabatlar, ya‘ni axborot-kutubxona muassasalarni tashkil etish, axborot-kutubxona hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanish hamda axborot-kutubxona fondi bilan bog‘liq masalalar o‘z ifodasini topgan. Ma‘lumki, O‘zbekiston qadimdan o‘zining boy tarixi hamda madaniyatiga ega bo‘lib kelgan davlatlardan biri hisoblanadi. Milliy tariximiz va madaniyatimizning bizgacha yetib kelishida turli xil moddiy va nomoddiy yodgorliklarimiz, madaniy merosimiz va qolaversa, tarixiy hujjatlarimiz muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ushbu tarixiy xotirani saqlash hamda uni kelajak avlodga borligicha yetkazib berishda axborot-kutubxonalar alohida o‘rin egallaydi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ko‘pgina qarorlar, meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, axborot-kutubxona sohasiga oid amaldagi qonun va qonunosti hujjatlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o‘qitishdan maqsad - Kutubxona jamiyatning tarkibiy qismi bo‘lganligi uchun uning faoliyati mamlakatda qabul qilingan qonunlar tomonidan boshqariladi. Lekin, axborot almashuvining kuchayishi, ayniqsa, internet vositalarining kuchayishi oqibatida axborot makoni kengayib bir butun jahon axborot makoni shakllandi.

Shunga ko‘ra undan foydalanishga oid qonunlar, qoidalar ham xalqaro miqyosdagi meyorlarga amal qilishni talab qiladi.

Fanning vazifasi - Bugungi kunda kutubxona-axborot xizmatini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga ijobiy tasir kursatuvchi xalqaro miqyosda va mamlakatimizda qabul qilingan hujjatlar quyidagi uch guruhdan iboratdir:

- 1) Xalqaro tashkilotlarning (BMT, YUNESKO, Yevropa Kengashi va boshqalar) jahon hamjamiyatining, jumladan, kutubxonalar rivojlanishining umumiy asoslariga oid hujjatlari;
- 2) Xalqaro tashkilotlarning bevosita kutubxona-axborot xizmati sohasiga doir hujjatlari;
- 3) Mamlakatimizda kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatish O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga, Konunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari va Farmonlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlariga, O‘zbekiston axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi qarorlari va yo‘riqnomalariga, Respublika axborot-kutubxona tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha idoralararo Kengash Nizomiga, Axborot-kutubxona markazi Namunaviy Nizomiga amal qiladi.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, ijtimoiy hodisa va jarayonlar haqida uslubiy hamda dunyoqarishni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi.

Talaba:

- Axborot va xizmat ko‘rsatishda milliy va hududiy o‘ziga xoslikni hisobga olish;
- Aholini yangi xizmat va kommunikatsiya vositalaridan foydalanishga o‘rgatish;

- Inson huquqlariga zid bo'lgan zo'rvonlik, toqatsizlik, g'oyaviy kurashlarni targ'ib qilishga qarshi kurashish, ular uchun huquqiy asoslarni ishlab chiqish;
- Elektron texnologiyalar evolyusiyasini muntazam o'rgatib borish, mualliflik huquqlarini himoya qilish haqida **tasavvurga ega bo'lishi**;
- Ananaviylikni saqlash va raqamli madaniy merosni yaratish;
- Taraqqiyotda uzilish va tengsizlikni qisqartirish;
- Axborotning erkin oqimining kafolatlanishi, axborotdan foydalanishda adolatlilik;
- Yangi meyor va tamoyillarda xalqaro kelishuvga erishishni **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- talaba co'z erkinligi va axborotni qabul qilish erkinligi, Milliy kitob va axborot siyosatida kutubxonachilikning roli, kutubxonalar va intellektual mulk, Kutubxona merosini himoya qilish bo'yicha yechimlar qabul qilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**.

Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha hajmi

Fanga umumiy 60 soat ajratilgan bo'lib, shundan 7-semestrda auditoriya mashg'ulotlari 30 soat, mustaqil ta'lim 30 soat bo'lib, semester davomida haftasiga 2 soatdan o'tiladi.

Yuklamani auditoriya mashg'ulotlari bo'yicha taqsimlanishi:

Semestr	Yuklama	Yuklamani auditoriya mashg'ulotlari bo'yicha taqsimlanishi				Mustaqil ta'lim
		Jami	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulotlar	Seminar mashg'ulotlar	
7-semestr	60	30	16		14	30
Jami	60	30	16		14	30

Seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar taqsimoti.

1-mavzu: Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari faniga kirish

Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari masalalari. Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari faniga kirish. Axborot texnologiyalari. Global tarmoq infratuzilmasi va internet texnologiyalari yordamida ma'lumotlarni almashish. Axborot kutubxona tizimlari va tarmoqlarida ham axborotlarni saqlash va ularning konfidentiialligini ta'minlash muammosi. Axborot kutubxona sohasida kutubxona resurslarini ta'minlashning huquqiy jihatlari xalqaro va milliy qonunchilik hujjatlari.

2-mavzu: Axborot sohasini rivojlantirish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash

Har qanday jamiyatda axborot hamisha mamlakat taraqqiyotining ko'zgusi, kishilarning ongi, dunyoqarashi, siyosiy saviyasi shakllanishining asosiy vositalaridan biri. Axborotga bo'lgan hayotiy ehtiyoj, uni qondirishga xizmat qiluvchi omillarni shakllantirish. Insoniyat tarixida axborot to'plash va tarqatishning dastlabki og'zaki (voizlar, jarchilar, choparlar va boshqalar) va yozma (papiiruslardagi, e'lon taxtalari va hakozolardagi) namunalari. O'sha davrlardayoq to'laqonli axborot va xabarga talab hamda ehtiyoj. Zardushtiylik tarixining manbalari, Zardusht xudoning payg'omi (xabari)ni odamlarga yetkazish orqali bosqinchilik va vayronliklar oldini olish, halol mehnat qilib, tinch-totuv yashash, adolat va haqiqatga sajda qilish

kerakligini o'rgatgan. Avestodan har qanday xabar, yangilik o'zining takomilligi, haqiqiyliги, to'liqligi bilan baholanishi, uning yordamida insoniyat yaxshilik va ezgulikka qarab intilishi to'g'risida.

3-mavzu: Kutubxona-axborot faoliyatini normativ-huquqiy tartibga solishning nazariy asoslari

Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilishning hozirgi sharoitida axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishning maqsad va vazifalari. Fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo'yicha konstitusiyaviy huquqlarini, shu jumladan milliy qadriyatlar va jahon madaniyati, amaliy va fundamental bilimlardan bahramand bo'lishini ta'minlaydigan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishning sifat jihatdan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifalari.

Axborot-kutubxona faoliyatiga, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, fondlarni to'ldirish va saqlash, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va rag'batlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirishga jiddiy ta'sir ko'rsatish.

4-mavzu: Axborot-resurs markazi (kutubxona) faoliyatini takomillashtirishga tegishli amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar

Axborot-resurs markazi (kutubxona) faoliyatini takomillashtirishga tegishli amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari, hukumat qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi buyruqlarining ijro etilishi va joriy qilinishi, bajarilishi qanday borayotganligining uzluksiz monitoringini ta'minlash uchun axborot-resurs markazi ish amaliyoti.

Axborot-resurs markazi ish amaliyoti:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat qarorlari, Xalq ta'limi vazirligi buyruqlarini o'rganishni ta'minlovchi tadbirlar;
- Axborot-resurs markazi(kutubxona) ish rejasi tarkibida O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari, hukumat qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi buyruqlari bajarilishining borishini o'rganishga doir bo'limni shakllantirish.

5-mavzu: Kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishning xalqaro miqyosdagi va mamlakatimizdagi huquqiy meyoriy asoslari

Kutubxona jamiyatning tarkibiy qismi va uning faoliyati. Kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishning xalqaro miqyosdagi va mamlakatimizdagi huquqiy meyoriy asoslari. Axborot almashuvining kuchayishi, internet vositalarining kuchayishi oqibatida axborot makoni kengayib bir butun jahon axborot makoni shakllanishi. Axborot almashuvining kuchayishi, internet vositalarining kuchayishi oqibatida undan foydalanishga oid qonunlar, qoidalar ham xalqaro miqyosdagi meyorlarga amal qilishi.

6-mavzu: Axborot-resurs markazi (kutubxona) xodimlariga qo'yiladigan talablar

ARMning xodimlari, ARMning ishlashini hamda texnikaviy, axborot, dasturiy va boshqa xizmatlar bo'yicha kadrlar tarkibining zamonaviy darajada tayyorgarligini ta'minlash tadbirlarini amalga oshirish. Kutubxonachilarni tayyorlash, Qayta tayyorlash xizmatlari, malakasini oshirish kurslari; ARMni boshqarishning zamonaviy metodlarini o'rgatish dasturlari. ARMning tashkiliy tuzilmasi va uning normal ishlashi bo'yicha vazifalarni bajarish uchun lavozim yuriqnomalari, buyruqlar majmui. Uzluksiz kutubxona xizmati tizimida malaka oshirish va qayta tayyorlash.

7-mavzu: 2019-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi

2019-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda - Konsepsiya) respublika axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, ustuvor yo‘nalishlari va mexanizmlarini belgilovchi qarashlarning yagona va bir butun tizimi.

Axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsad va vazifalari ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni isloh qilish sharoitlarida mamlakatda kechayotgan o‘zgarishlar va xalqaro amaliyot.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha [Harakatlar strategiyasi](#) asosida axborot-kutubxona faoliyatini axborot va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish asosida tashkil qilishga yo‘naltirilgan tizimli chora-tadbirlar. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish axborot-kutubxona faoliyatiga har tomonlama: foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish, fondlarni jamlash va saqlash jarayonlari, axborot-kutubxona ish jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, axborot-kutubxona xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, ularni ijtimoiy himoya qilish, xalqaro hamkorlikka ta’siri.

Seminar mashg‘ulot mavzularining taqsimlanishi		
№	Seminar mashg‘ulot mavzulari	Soati
7- Semestr		
1	Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari faniga kirish	2
2	Axborot sohasini rivojlantirish, axborot va so‘z erkinligini ta’minlash	2
3	Kutubxona-axborot faoliyatini normativ-huquqiy tartibga solishning nazariy asoslari	2
4	Axborot-resurs markazi (kutubxona) faoliyatini takomillashtirishga tegishli amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar	2
5	Kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishning xalqaro miqyosdagi va mamlakatimizdagi huquqiy meyoriy asoslari	2
6	Axborot-resurs markazi (kutubxona) xodimlariga qo‘yiladigan talablar	2
7	2019-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi	2
Jami		14

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. Boykova O.F. Pravovaya sreda biblioteki [Tekst]: ucheb.posobiye / - M. : Libereya-Bibinform, 2011. - 221 s

2. Kapustin A.Y. Pravovoye obespecheniye professionalnoy deyatelnosti [Elektronniy resurs]: Uchebnoye posobiye dlya bakalavrov / Anatoliy Yakovlevich; Kapustin A.Y. - Otv. red. - 2-ye izd. ; per. i dop. - M. : Izdatelstvo Yurayt, 2015. – 382 s.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qonuni //Xalq so‘zi- 2011.14 aprel.

2. Mirziyoyev SH.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – halqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. (Prezident Mirziyoyev Shavkat

Miromonovichning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasi). – //Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil, 4 avgust.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatishni rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” – //Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil, 13 yanvar.

4. Respublika axolisini axborot-kutubxona bilan ta‘minlashni tashkil etish to‘g‘risida” 2006 yil 20 iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori // Xalq so‘zi-2006.-20 iyun.

5. Axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari ishini tashkil qilish.-T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.-B.3-68.

6. Umarov A. Mamlakat kutubxonachiligi islohatlar yo‘lida: muammo va yechimlar// Sentral Aziya-2006:Fan, ta‘lim, madaniyat va biznes sohalarida internet va kutubxona-axborot resurslaridan foydalanish: Konfirensiya materiallari.-Urganch-Xiva, 2006.-B. B.10-16.

7. Upravleniye sovremennoy bibliotekoy: Nastolnaya kniga menedjera.-M.: OGI, 1999.-128s.

8. 2019-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 iyundagi PQ-4354-sonli Qarori. // Xalq so‘zi 2019 yil 7 iyun.

Internet saytlari

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi.
3. www.natlib.uz
4. www.rsl.ru
5. www.rgu.ac.uk
6. www.e-library.ru
<http://atdt.tuit.uz>)

Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari fanidan
Mustaqil ish shakllari va mavzulari

Mustaqil ish mavzulari talabani mustaqil bilim olishga ongli ravishda yo'naltirishi lozim. Kafedra mutaxsislari tomonidan har bir mavzuni bo'yicha talabanning mustaqil o'qib o'rganishiga doir vazifa va topshiriqlar ishlab chiqiladi va ularni bajarish uchun aniq ko'rsatmalar misollar yordamida beriladi. Fanni o'rganish jarayonida talaba interfaol usullar vositasida mustaqil ta'lim olishga rag'batlantiriladi va mustaqil fikrlash talab qilinadi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzu va faoliyat turlari:

1. Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari faniga kirish.
2. Axborot-kutubxona markazi (kutubxona) faoliyatini takomillashtirishga tegishli amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar.
3. Axborot-kutubxona markazi (kutubxona) faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish tendensiyalari Davlatimiz va xorijiy davlatlar ilm-fanining bibliografiya axborot sohasidagi tajribalari.
4. Axborot-resurs markazi(kutubxona) xodimlarning metodik ishlarini tashkil etish va samaradorligini oshirish usullari monitoringi.
5. Axborot-resurs markazi(kutubxona) ish faoliyatini samarali tashkil etish.
6. Axborot-resurs markazi (kutubxona) muassasalarini moliyalashtirish. Axborot-resurs markazi (kutubxona)ga ajratilgan byudjet mablag'lari va boshqa byudjetdan tashqari tushumlardan to'g'ri foydalanishni ta'minlash. Axborot-resurs markazi (kutubxona) moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va rivojlantirish ishlarini tashkil qilish.
7. Kutubxonaning an'anaviy va elektron tashuvchilardagi ma'lumotlar-bibliografik apparati (kataloglar, kartotekalar, adabiyotlarning tavsiyaviy ruyxati, axborot materiallari)ni yuritish.
8. Axborot-resurs markazi (kutubxona)ning axborot izlash tizimlarini yaratish ishlaridagi innovatsion jarayonlarni bibliografik, axborot, metodik, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga joriy etilishini amalga oshirish. Foydalanuvchilarning axborot-kutubxona, bibliografiya xizmatlariga ehtiyojini aniqlash.
9. Axborot-resurs markazi (kutubxona) xodimlariga qo'yiladigan talablar
10. 2019-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha portfolio tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. Talabaladan fan bo'yicha mustaqil o'rgangan bilimlarini auditoriyada turli xil interaktiv uslublar orqali namoyish qila olishi va boshqalarga o'rgata olishi talab etiladi.

Mustaqil ta'lim mavzularini taqsimlanishi		
Mustaqil ta'lim mavzulari		
№	7-semestr	Soati
1	Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari faniga kirish.	2
2	Axborot-kutubxona markazi (kutubxona) faoliyatini takomillashtirishga tegishli amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar.	4
3	Axborot-kutubxona markazi (kutubxona) faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish tendensiyalari Davlatimiz va xorijiy davlatlar ilm-fanining bibliografiya axborot sohasidagi tajribalari.	2
4	Axborot-resurs markazi(kutubxona) xodimlarning metodik ishlarini tashkil etish va samaradorligini oshirish usullari monitoringi.	2
5	Axborot-resurs markazi(kutubxona) ish faoliyatini samarali tashkil etish.	2
6	Axborot-resurs markazi (kutubxona) muassasalarini moliyalashtirish. Axborot-	4

	resurs markazi (kutubxona)ga ajratilgan byudjet mablag‘lari va boshqa byudjetdan tashqari tushumlardan to‘g‘ri foydalanishni ta‘minlash. Axborot-resurs markazi (kutubxona) moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va rivojlantirish ishlarini tashkil qilish.	
7	Kutubxonaning an‘anaviy va elektron tashuvchilardagi ma‘lumotlar-bibliografik apparati (kataloglar, kartotekalar, adabiyotlarning tavsiyaviy ruyxati, axborot materiallari)ni yuritish.	2
8	Axborot-resurs markazi (kutubxona)ning axborot izlash tizimlarini yaratish ishlaridagi innovatsion jarayonlarni bibliografik, axborot, metodik, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga joriy etilishini amalga oshirish. Foydalanuvchilarning axborot-kutubxona, bibliografiya xizmatlariga ehtiyojini aniqlash.	4
9	Axborot-resurs markazi (kutubxona) xodimlariga qo‘yiladigan talablar	4
10	2019-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi	4
	Jami	30

GLOSSARIY.

Axborot (lotincha «informatio»-tushuntirmoq, bayon etmoq) zamonaviy fan va siyosatning asosiy tushunchalaridan biri; dastlab kishilar tomonidan og`zaki, keyinroq yozma yoki boshqa shakllar uzatilgan ma`lumot; XX asrning o`rtalaridan boshlab insonlararo, inson-avtomat, avtomat-avtomat o`rtasidagi ma`lumot hamda hayvonlar va o`simliklardagi signal almashinuvi, hujayrada hujayraga muayyan belgilarning uzatilishi va shu kabilarni anglata boshlagan.

Axborot-kutubxona resursi — moddiy obyektida matn, ovozli yozuv yoki tasvir tarzida qayd etilgan hamda identifikatsiyalash, saqlash va foydalanishni ta`minlash uchun rekvizitlarga ega bo`lgan axborot;

axborot-kutubxona faoliyati — axborot-kutubxona muassasalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona fondlarini shakllantirish va axborot-kutubxona xizmati ko`rsatishni tashkil etish bo`yicha faoliyati;

axborot-kutubxona fondi — tizimlashtirilgan axborot-kutubxona resurslarining majmui;

axborot-kutubxona xizmati ko`rsatish — foydalanuvchilarning axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishini ta`minlash;

yig`ma elektron katalog — axborot-kutubxona muassasalarining elektron kataloglari majmui;

foydalanuvchi — axborot-kutubxona xizmati ko`rsatilishi uchun axborot-kutubxona muassasasida ro`yxatga olingan shaxs;

elektron katalog — tizimlashtirilgan axborot-kutubxona resurslari ro`yxatining elektron shakli;

elektron kutubxona — axborot-kutubxona fondining elektron shakli.

Kutubxona (arab. kutub - "kitoblar", fors. xona - "uy") axborot yig`iladigan joydir. Bunda axborot kitob, gazeta, jurnal, video- va audiotasma, optik disk va hk shaklda bo`lishi mumkin. Kutubxonalar tashkilot (jamoat) yoki jismoniy shaxs (shaxsiy kutubxona) tomonidan tashkil etilishi mumkin.

Kutubxona — bosma va ayrim qo`lyozma asarlardan ommaviy foydalanishni ta`minlovchi madaniy-ma`rifiy va ilmiy muassasa; muntazam ravishda bosma asarlar to`plash, saqlash, targ`ib qilish va kitobxonlarga yetkazish, shuningdek, axborot-bibliografiya ishlari bilan shug`ullanadi, ommaning madaniy saviyasini oshirishda faollik ko`rsatadi. Kitobxonlarga xizmat ko`rsatish K.ning asosiy faoliyati bo`lib, qolgan barcha faoliyatlar (kitob fondini butlash va uni tashkil etish, fond mazmunini yoritish, uni kitobxonlarga yetkazish qabilar) asosiy faoliyat uchun xizmat kiladi. Kitobxonlarga xizmat ko`rsatishning asosiy maqsadi ularni axborot va adabiyotga bo`lgan talablarini imkon boricha to`liq qondirish va adabiyot tanlashlariga yordam berishdan iborat. Har bir K. o`z turiga ko`ra kitobxonlarni tabaqalarga bo`lib, alohida kitobxonlar

guruhlariga ajratgan holda xizmat ko'rsatishni tashkil qiladi. Adabiyotlar targ'ibotining barcha shakl va usullari kitobxonlar talabini imkon qadar to'liq va tezkorlik bilan qondirishga qaratiladi.

Katalog (yunoncha: katalogos — ro'yxat) — 1) muayyan narsalar (mas, kitob, eksponat, tovarlar)ning ma'lum tartibda tuzilgan ro'yxati; ularni topishni osonlashtiradi. Ko'rgazmalar, ilmiy-texnika yoki madaniy-ma'rifiy ishlar uchun mo'ljallangan ma'lumotnoma nashrlarda mavjud narsalarning (ba'zan bezakli) shu tarzda tartibga solingan ro'yxati bo'ladi. Mac, markalar K.i, badiiy asarlar ko'rgazmalari K. i va b.; 2) kutubxona katalogi; 3) kompyuter dasturlarining mantiqiy qurilmasida — fayl nomlari saqlanadigan joy, fayllar yig'indisi

Kitob — axborotlarni, g'oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi; bilimlar targ'iboti va tarbiya quroli; badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyot. Xalqaro statistikada YUNESKO tavsiyasiga ko'ra, hajmi 48 sahifadan kam bo'lmagan, taboqlab tikilgan nodavriy nashrni, shartli ravishda, K. deyish qabul qilingan.

Kitob ishi kitobni yaratish, tayyorlash, uni tarqatish, saqlash, tavsiflash va o'rganish bilan bog'liq katta jarayonni o'z ichiga oladi. Fan, adabiyot, san'at asarlaridan matbaada ko'paytirish va tarkatish uchun tanlash, ularga ilmiy va badiiy nuqtai nazardan yondoshish, tahrir qilish, badiiy bezash, matbaa ijrosini belgilash va nashrga tayyorlash noshirlikning vazifasi. Kitobni ko'plab chiqarish — kitob bosish ishi poligrafiya sanoatida olib boriladi. Kitoblarni to'plash, saqlash, o'quvchilar o'rtasida tashviqot qilish, ulardan kitobxonlar foydalanishlari uchun qulay sharoit yaratish kutubxona ishiga qaraydi. Kitob va boshqa bosma asarlar haqida muayyan maqsad bilan o'quvchilarga ma'lumot berish va ularni tashviqot qilish bibliografiya vazifasidir va h.k.

Kutubxonashunoslik - bosma nashr (kitob, gazeta, jurnal va boshqalar)lardan jamoatchilikning foydalanish maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, tizimi va shakllarini o'rganadigan fan tarmog'i. Kutubxonashunoslik vazifasi kutubxonachilik ishi nazariyasini rivojlantirish, uni ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanish qonunlarini tahlil qilish, kutubxonalarni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotdagi o'rni o'rganishdan iborat.

Kutubxonashunoslikning asosiy bo'limlari: kutubxonaning jamiyatdagi o'rni va mavqei, kutubxonachilik ishini tashkil etish asoslari, kutubxona tarmoqlari va ularning turlarini tashkil etish qonuniyatlari va boshqalarni o'z ichiga olgan umumiy Kutubxonashunoslik, kutubxona fondlarini butlash, joylashtirish va saqlash masalalarini o'z ichiga olgan kutubxona fondi; bosma nashrlarni bibliografik tavsiflash va tasniflash hamda kataloglar tuzish uslublaridan iborat kutubxona katalogi; kutubxonachilik ishini tashkil qilish va me'yorlash, kutubxona faoliyatini hisobga olish va rejalash, kutubxona binolarini qurish va uni saqlash, mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish va boshqalardan iborat kutubxonachilik ishini tashkil qilish va boshqarish; turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kitoblardan ommaviy foydalanishning mazmuni, shakli va uslublarini o'rganuvchi kutubxonachilik ishi tarixi; kutubxonada kitobxonlarga xizmat ko'rsatish tizimi, shakli, uslublari, ularda kitob o'qish madaniyatini tarbiyalash, kitobxonlarning qiziqish va talablarini o'rganish bilan bog'liq kitobxonlarga xizmat ko'rsatish va boshqa "Kutubxonashunoslik", termini 19-asrning 1-yarmida paydo bo'ldi; fan sohasi sifatidagi dastlabki ishlar ham shu davrga to'g'ri keladi. Ilk bor nemis kutubxonashunosi M. Shretinger tomonidan mustaqil fan sohasining nomi sifatida qo'llanilgan. K.ning uslubiy asoslari va masalalarini ijtimoiy-iqtisodiy tarixiy sharoitlar belgilaydi. 19-asr 2-yarmidan AQSH, Rossiya va boshqa mamlakatlarda tarqala boshlagan. K. uzoq vaqt amaliy xususiyatga ega bo'lgan soha sifatida rivojlandi. Uning faoliyat doirasiga kutubxonalarning ichki tuzilishlari, kitob fondini tanlash va tashkil qilishning texnik tomonlari, kutubxona binolarini qurish va jihozlash kabi

masalalar kiritildi. Shu bilan kutubxonaning ijtimoiy o'rnini xaqidagi masalalarni o'rganishga e'tibor berila boshlandi.

O'zbekistonda Kutubxonashunoslik 20-yillardan taraqqiy etdi. Kutubxonachilik ishini to'la yo'lga qo'yishda V.V.Bartold, V. L. Vyatkin, V. I. Mejov, Ye. K. Betgerdarning hissasi katta. Toshkent va Samarqandda kutubxonachilik kurslari ochildi (1919), Toshkent kutubxonachilik texnikumi (1937), Toshkent ped. intida kutubxonachilik fakulteti (1960) tashkil etildi, 1974-yildan kutubxonachilik fakulteti bo'lgan Toshkent madaniyat instituti ishga tushdi. O'zbekistonda kutubxonashunoslar mintaqada o'tkaziladigan fundamental i. t. ishlarida faol ishtirok etadi. O'zbekiston milliy kutubxonasi "O'zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixiga doir hujjatlar" to'plamini tuzishni davom ettirmokda.

2019-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi respublika axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, ustuvor yo'nalishlari va mexanizmlarini belgilovchi qarashlarning yagona va bir butun tizimini o'zida aks ettiradi.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
MADANIYATSHUNOSLIK
KAFEDRASI**

TASDIQLAYMAN
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
_____ D.Xolmatov
« ___ » _____ 2023 yil

**KUTUBXONA-AXBOROT FAOLIYATINING
MEYORIIY-HUQUQIY ASOSLARI
FANINING**

ISHCHI O‘QUV DASTURI

4-kurs, kunduzgi ta’lim shakli uchun

Bilim sohasi:	300 000	-	Ishlab chiqarish-texnika soha
Ta’lim sohasi:	350 000	-	Aloqa va axborotlashtirish, Telekommunikatsiya texnologiyalari sohasi
Ta’lim yo’nalishi:	5350600	-	Kutubxona-axborot faoliyati (kutuxonachilik va bibliografiya)

NAMANGAN – 2023

Fan/modul kodi KAFMHA3042		O'quv yili 2023/2024	Semestr 7	ECTS-Kreditlar 2
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 7-semestr - 2 soat
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari	30	30	60
2.	<p style="text-align: center;">1. Fanning mazmuni</p> <p>Fanning maqsadi - kutubxona jamiyatning tarkibiy qismi bo'lganligi uchun uning faoliyati mamlakatda qabul qilingan qonunlar tomonidan boshqariladi. Lekin, axborot almashuvining kuchayishi, ayniqsa, internet vositalarining kuchayishi oqibatida axborot makoni kengayib bir butun jahon axborot makoni shakllandi.</p> <p>Shunga ko'ra undan foydalanishga oid qonunlar, qoidalar ham xalqaro miqyosdagi meyorlarga amal qilishni talab qiladi.</p> <p>Fanning vazifasi - Bugungi kunda kutubxona-axborot xizmatini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga ijobiy tasir kursatuvchi xalqaro miqyosda va mamlakatimizda qabul qilingan hujjatlar quyidagi uch guruhdan iboratdir:</p> <p>4) Xalqaro tashkilotlarning (BMT, YUNESKO, Yevropa Kengashi va boshqalar) jahon hamjamiyatining, jumladan, kutubxonalar rivojlanishining umumiy asoslariga oid hujjatlari;</p> <p>5) Xalqaro tashkilotlarning bevosita kutubxona-axborot xizmati sohasiga doir hujjatlari;</p> <p>6) Mamlakatimizda kutubxona-axborot xizmati ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga, Konunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari va Farmonlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlariga, O'zbekiston axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi qarorlari va yo'riqnomalariga, Respublika axborot-kutubxona tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha idoralararo Kengash Nizomiga, Axborot-kutubxona markazi Namunaviy Nizomiga amal qiladi.</p> <p>Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, ijtimoiy hodisa va jarayonlar haqida uslubiy hamda dunyoqarishni shakllartirish vazifalarini bajaradi.</p> <p style="text-align: center;">II. ASOSIY NAZARIY QISM (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu: Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari faniga kirish</p> <p>Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari masalalari. Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari faniga kirish. Axborot texnologiyalari. Global tarmoq infratuzilmasi va internet texnologiyalari yordamida ma'lumotlarni</p>			

almashish. Axborot kutubxona tizimlari va tarmoqlarida ham axborotlarni saqlash va ularning konfidentsialligini ta'minlash muammosi. Axborot kutubxona sohasida kutubxona resurslarini ta'minlashning huquqiy jihatlarini xalqaro va milliy qonunchilik hujjatlari.

2-mavzu: Axborot sohasini rivojlantirish, axborot va soʻz erkinligini ta'minlash

Har qanday jamiyatda axborot hamisha mamlakat taraqqiyotining koʻzgusi, kishilarning ongi, dunyoqarashi, siyosiy saviyasi shakllanishining asosiy vositalaridan biri. Axborotga boʻlgan hayotiy ehtiyoj, uni qondirishga xizmat qiluvchi omillarni shakllantirish.

Insoniyat tarixida axborot toʻplash va tarqatishning dastlabki ogʻzaki (voizlar, jarchilar, choparlar va boshqalar) va yozma (papiiruslardagi, eʼlon taxtalari va hokozolardagi) namunalari. Oʻsha davrlardayoq toʻlaqonli axborot va xabarga talab hamda ehtiyoj. Zardushtiylik tarixining manbalari, Zardusht xudoning paygʻomi (xabari)ni odamlarga yetkazish orqali bosqinchilik va vayronliklar oldini olish, halol mehnat qilib, tinch-totuv yashash, adolat va haqiqatga sajda qilish kerakligini oʻrgatgan. Avestodan har qanday xabar, yangilik oʻzining takomilligi, haqiqiyliqi, toʻliqligi bilan baholanishi, uning yordamida insoniyat yaxshilik va ezgulikka qarab intilishi toʻgʻrisida.

3-mavzu: Kutubxona-axborot faoliyatini normativ-huquqiy tartibga solishning nazariy asoslari

Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilishning hozirgi sharoitida axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishning maqsad va vazifalari. Fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish boʻyicha konstitusiyaviy huquqlarini, shu jumladan milliy qadriyatlar va jahon madaniyati, amaliy va fundamental bilimlardan bahramand boʻlishini ta'minlaydigan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari koʻrsatishning sifat jihatdan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifalari.

Axborot-kutubxona faoliyatiga, kitobxonlarga xizmat koʻrsatish, fondlarni toʻldirish va saqlash, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ragʻbatlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirishga jiddiy ta'sir koʻrsatish.

4-mavzu: Axborot-resurs markazi (kutubxona) faoliyatini takomillashtirishga tegishli amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar

Axborot-resurs markazi (kutubxona) faoliyatini takomillashtirishga tegishli amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar. Oʻzbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari, hukumat qarorlari, Oʻzbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi buyruqlarining ijro etilishi va joriy qilinishi, bajarilishi qanday borayotganligining uzluksiz monitoringini ta'minlash uchun axborot-resurs markazi ish amaliyoti.

Axborot-resurs markazi ish amaliyoti:

- Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat qarorlari, Xalq ta'limi vazirligi buyruqlarini oʻrganishni ta'minlovchi tadbirlar;

- Axborot-resurs markazi(kutubxona) ish rejasi tarkibida Oʻzbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari, hukumat qarorlari, Oʻzbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi buyruqlari bajarilishining borishini oʻrganishga doir boʻlimni shakllantirish.

5-mavzu: Kutubxona-axborot xizmati koʻrsatishning xalqaro miqyosdagi va mamlakatimizdagi huquqiy meyoriy asoslari

